ISSN 2181-1709 (P)
ISSN 2181-1717 (E)

2026/№8

TA’LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR

ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-МЕТОДИК ЖУРНАЛ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND METHODICAL JOURNAL

TA’LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR
ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

08/2026
AVGUST

Muassis:
Buxoro davlat universiteti
Fan va ta’lim MChJ

Bosh muharrir: Ma’murov Bahodir Baxshulloyevich, Buxoro davlat pedagogika instituti rektori

Jamoatchilik kengashi raisi: Xamidov Obidjon Xafizovich, Buxoro davlat universiteti rektori

Mas’ul kotib: Akramova Gulbahor Renatovna

Texnik muxarrir: Davronov Ismoil Ergashevich

Tahririyat manzili:
Buxoro shahar,
Q.Murtazoyev ko‘chasi, 16-uy

E-mail:
eirjurnal2020@gmail.com

Jurnalning elektron sayti:
www.interscience.uz

Jurnal OAK Rayosatining 2021 yil30 sentyabrdagi 306/6-son Qarori bilan **PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA, FILOLOGIYA, TARIX FANLARI** bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ruyxatiga kiritilgan

Bosishga ruxsat etildi:
29.05.2026y.
Qog‘oz bichimi 60x84 1/8.
b/t.12,5.
Buyurtma raqami № 824
«FAN VA TA’LIM» nashriyotida chop etildi. Buxoro shahar https://interscience.uz/ saytida joylashtirildi

Jurnal 28.07.2021 yilda 9305 raqami bilan O‘zbekiston Ommaviy axborot vositalari davlat ro‘yxatidan o‘tgan

Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va 2 oyda 1 marta chop etildi. 2021 yil noyabr oyidan boshlab har oyda 1 marta o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi

«Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnalidan ko‘chirib bosish tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi

Maqolada keltirilgan faktlarning to‘g‘riligi uchun muallif mas’uldir

07.00.00 – TARIX FANLARI	
Ma’rupova P.M., Xudayberdiyev I. I. O‘zbekistonda davlat ekologik siyosatining transformatsiyasi: tarixiy bosqichlar va ustuvor yo‘nalishlar (1991–2025)	8
Rustamova D. A. Turkistonda jadidchilik harakatining shakllanishida usmonli turk sultonligidagi islohotlarning o‘rni”	13
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
Bafayeva V. M. Hedging and epistemic stance in uzbek efl students’ literary reflections: a small-scale corpus-based study	17
Ganiyeva D. S. Fonetika ta’limini takomillashtirish modeli	28
Murodova G. A. “Yassaviy VA Ubaydiy ijodida zikr talqini: tasavvufiy-badiiy mushtaraklik”	36
Shukurova M. X. Gender konseptini badiiy matnda kompleks o‘rganish	39
Nusratova H.Ch. O‘zbek bolalar nasrida hikoya janrining badiiy xususiyatlari va uni o‘qitishda adabiy tahlil tamoyillari	46
Nusratova A. Ch. So‘zlovchi glyutonimlarning funksional tipologiyasi	54
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
Safarova N. N. Transformativ ta’lim va kompetentlik yondashuvi integratsiyasining nazariy-didaktik asoslari	60
Utayeva I. B. Analyzing digital platforms in machine translation	66
Saparov M. Y. Sharq mutafakkirlarining barkamol shaxs tarbiyasi haqidagi qarashlari	73
Eshpo’latova M. A. Sun’iy intellekt asosida ta’lim muassasalarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish tizimini takomillashtirish	78
Xudayberdiyev E. U. Oliy ta’limda sohaga oid huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishning milliy va xorijiy tajribasi	81
Saidjonova P. Sh. Dual ta’lim sharoitida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda o‘qituvchi faoliyati va refleksiv texnologiyalarning metodik ahamiyati	88
Zamonova L. Ahmad Donishning ma’rifatparvarlik qarashlarining shakllanish omillari	95
Parmanov J.T. Fan metodologiyasi va ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish fanini o‘qitish orqali magistratura talabalarining tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish	99

Asatullayeva G. S. Tasviriy san’at mashg‘ulotlarida qalamtasvir va rangtasvir vositalari integratsiyasi orqali talabalarda kompozitsion fikrlashni rivojlantirish	107
Eshpo’latova M. A. Sun’iy intellekt asosida ta’lim muassasalarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish tizimini takomillashtirish	111
Bahranova U. I. Fizika ta’limida generativ sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari	115
Aslonova N.M. Metakognitiv strategiyalarning kasbiy pedagogik faoliyatdagi funksiyalari	122
Rajabbayeva F. R. Raqamli media tilida leksik innovatsiyalarning shakllanish tendensiyalari	127
Baxshilloyeva M B. Ingliz tilini o‘qitishda differensial topshiriqlar orqali talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish	130
Sapayeva U. R. Bo‘lajak o‘qituvchilarning liderlik sifatlarini rivojlantirishning loyihaviy refleksiv mexanizmi	134
19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI	
Alimbayeva O. I. Chet tili darslarida o‘quvchilarning tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantirish (Nostandart topshiriqlar orqali mantiqiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish)	138
Adxamova I. A. Chet tilini o‘rganishda kognitiv va psixologik to‘siqlarni bartaraf etish yo‘llari (Til o‘rganishdagi qo‘rquv, hayajon va ularni psixologik yengish mexanizmlari)	142

TA’LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR

JAMOATCHILIK KENGASHI A’ZOLARI

Djurayev Risboy Haydarovich*, pedagogika fanlari doktori, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi.*

Shamsutdinov Rustambek Temirovich, *Andijon davlat universiteti professori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat hodimi, tarix fanlari doktori*

Majidov Inom Urushevich, *texnika fanlari doktori, professor. O‘zbekiston milliy universiteti*

Olimov Qahramon Tanzilovich, *pedagogika fanlari doktori, professor. A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti Toshkent filiali*

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, *texnika fanlari doktori, professor*

Musurmonova Oyniso*, pedagogika fanlari doktori, professor*

Safarova Rohat G‘aybulloyevna, *pedagogika fanlari doktori, professor, T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti*

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, *pedagogika fanlari doktori, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi.*

TAHRIRIYAT KENGASHI A’ZOLARI

XORIJ OLIMLARI

Artamonova Yekaterina Iosifovna, *pedagogika fanlari doktori, professor, Moskva davlat pedagogika universiteti, Xalqaro pedagogika fanlari akademiyasining prezidenti*

Yemelyanova Irina Yevgeneyevna, *pedagogika fanlari doktori, professor. Janubiy-ural davlat ijtimoiy -pedagogika univversiteti. Rossiya*

Kuzmenko Galina Anatolevna, *pedagogika fanlari doktori, professor. Moskva davlat pedagogika universiteti, Jismoniy tarbiya, sport va salomatlik instituti*

Safaraliyev Bozor Safaraliyevich*, pedagogika fanlari doktori, professor. Chelyabinsk davlat akademiyasi*

Kulishov Vladimir Vasilevich, *pedagogika fanlari doktori, professor. Davlat iqtisodiyot va texnologiya universiteti prorektori, Krivoy Rog, Ukraina*

Lazarenko Irina Rudolfovna, *pedagogika fanlari doktori, professor. Altay davlat pedagogika universiteti rektori, Rossiya*

Filippova Oksana Gennadevna, *pedagogika fanlari doktori, professor. Janubiy-ural davlat ijtimoiy -pedagogika univversiteti. Rossiya*

Xristo Kyuchukov, *pedagogika fanlari doktori. Umumiy tilshunoslik va psixolingvistika professori. Berlin Erkin universiteti, Turkologiya instituti. Xalqaro psixolingvistika va Sotsiolingvistika jurnali asoschisi va muharriri, Germaniya*

Kumskov Mixail Ivanovich, *fizika-matematika fanlari doktori, professor. M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti*

Padalka Oleg Semenovich, *pedagogika fanlari doktori, professor, M.P. Dragomanova nomidagi pedagogika milliy universiteti, Ukraina*

Hazretali Tursun, *tarix fanlari doktori, professor, Xoja Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro qozoq-turk universiteti professori*

Mamedova Irada, *tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent, Ozarbayjon Milliy akademiyasi Tarix instituti bo‘lim boshlig‘i*

Timur Xo‘jao‘g‘li, *tilshunos va adabiyotshunos olim. Michigan universiteti professori (AQSh)*

Nurettin Hatunoğlu *Doç. Dr., Zonguldak Bülent Ecevit Üniversitesi Fen-Edebiyat Fakültesi Tarih Bölümü (Turkiya)*

Mullodjanov Sayfullo Kuchakovich, *tarix fanlari doktori, professor. Tojikiston milliy universiteti*

Gushko Sergey Vladimirovich, *iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Davlat iqtisodiyot va texnologiya universiteti prorektori, Krivoy Rog, Ukraina*

O‘ZBEKISTON OLIMLARI

TARIX FANLARI

Azamat Ziyo, *tarix fanlari doktori, akademik, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktori*

Rajabov Qahramon Kenjayevich, *tarix fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti bosh ilmiy xodimi*

FILOLOGIYA FANLARI

Madjidova Ra’no Urishevna, *filologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

Sharipova Laylo Frunzeyevna, *filologiya fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti*

Nigmatova Lolaxon Xamidovna, *filologiya fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti*

Yusupova Hilola O‘ktamovna, *filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti*

Akramova Surayo Renatovna, *filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doytori (PhD), dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti*

Saidova Muxayyo Umediloevna, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doytori (PhD), dotsent. Buxoro davlat universiteti

Nizamova Umida Sandjarovna, ***filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doytori (PhD),*** *Andijon davlat texnika instituti dotsenti*

PEDAGOGIKA FANLARI

Tolipov O‘tkir Qarshiyevich, *pedagogika fanlari doktori, professor. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.*

Olimov Shirinboy Sharofovich, *pedagogika fanlari doktori, professor. Buxoro davlat universiteti*

Dilova Nargiza Gaybullaevna, *pedagogika fanlari doktori DSc, professor. Buxoro davlat universiteti*

Tilavova Matlab Muxammadovna, *pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti*

Sohibov Akram Rustamovich, *pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Qarshi davlat universiteti*

Umarov Baxshullo Jo‘rayevich, *pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti*

Hasanova Gulnoz Qosimovna, *pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti*

Inoyatov Abdullo Shodiyevich, *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent. Buxoro davlat universiteti*

Davronov Nurzod Ismoilovich, *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti*

PSIXOLOGIYA FANLARI

Umarov Baxriddin Mingbayevich, *psixologiya fanlari doktori, professor. Toshkent davlat pedagogika universiteti*

Bafayev Muxiddin Muxammadovich, *psixologiya fanlari buyicha falsafa doktori (PhD). Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti*

IQTISODIYOT FANLARI

Kurolov Kobuljon Kulmanovich, *iqtisodiyot fanlari doktori, professor. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi direktori*

Mamanazarov Abduxakim Bozorovich, *pedagogika fanlari doktori DSc. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti Toshkent filiali*

FALSAFA FANLARI

Namozov Bobir Bahriyevich, *falsafa fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti*

ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

ЧЛЕНЫ ОБЩЕСТВЕННОГО СОВЕТА

***Джураев Рисбой Хайдарович**, доктор педагогических наук, академик АНРУз*

***Шамсутдинов Рустамбек Темирович**, профессор Андижанского государственного университета, заслуженный работник культуры Узбекистана, доктор исторических наук*

***Мажидов Ином Урушевич**, доктор технических наук, профессор, Национальный университет Узбекистана им. Мирзо Улугбека*

***Олимов Кахрамон Танзилович**, доктор педагогических наук, профессор. Ташкентский филиал Российского государственного педагогического университета имени А.И. Герцена*

***Таджиходжаев Зокирхужа Абдусатторович,** доктор технический наук, профессор*

***Мусурмонова Ойнисо,** доктор педагогический наук, профессор*

***Сафарова Рохат Гайбуллоевна,** доктор педагогических наук, профессор, Узбекский научно-исследовательский институт педагогических наук имени Т. Н. Кори-Ниязи*

***Ибрагимов Холбой Ибрагимович,** доктор педагогических наук, академик АНРУз*

РЕДАКЦИОННО-ИЗДАТЕЛЬСКИЙ СОВЕТ

ЗАРУБЕЖНЫЕ УЧЕНЫЕ

***Артамонова Екатерина Иосифовна,** доктор педагогических наук, профессор, Московского государственного педагогического университета. Президент Международной академии педагогических наук*

***Емельянова Ирина Евгеневна,** доктор педагогических наук, профессор, Южно-уральский государственный гуманитарно-педагогический университет. Россия*

***Кузьменко Галина Анатольевна**, доктор педагогических наук, профессор. Московский государственный педагогический университет, Институт физической культуры, спорта и здоровья*

***Сафаралиев Бозор Сафаралиевич**, доктор педагогических наук, профессор кафедры социально-культурной деятельности Челябинской государственной академии*

***Кулишов Владимир Васильевич,** доктор педагогических наук, профессор. Государственный университет экономики и технологий, Кривой Рог, Украина*

***Лазаренко Ирина Рудольфовна**, доктор педагогических наук, профессор. Ректор Алтайского государственного педагогического университета, Россия*

***Филиппова Оксана Геннадьевна**, доктор педагогических наук, профессор. Южно-уральский государственный гуманитарно-педагогический университет. Россия*

***Христо Кючуков,** доктор педагогических наук. Профессор общего языкознания и психолингвистики. Свободный университет Берлина, Институт тюркологии. Редактор Международного журнала психолингвистики и социолингвистики, Германия*

***Кумсков Михаил Иванович**, доктор физико-математических наук, профессор Московского государственного университета им. М.В. Ломоносова*

***Падалка Олег Семенович, д**октор педагогических наук, профессор, Национального педагогического университета имени М.П. Драгоманова, Украина*

***Хазретали Турсун,** доктор исторических наук, профессор Международного казахско-турецкого университета имени Ходжи Ахмада Яссави*

***Мамедова Ирада**, PhD по историческим наукам, доцент, заведующий институтом истории Национальной Академии Азербайджана*

***Тимур Хужаугли,** лингвист и литературовед. Профессор Мичиганского университета (США)*

***Nurettin Hatunoğlu,** Assoc. доктор, университет Зонгулдак Бюлент Эджевит, факультет искусств и наук, исторический факультет (Турция)*

***Муллоджанов Сайфулло Кучакович,** доктор исторических наук, профессор. Национальный университет Таджикистана*

***Гушко Сергей Владимирович**, доктор экономических наук, профессор, проректор Государственного экономико-технологического университета, Кривой Рог, Украина*

УЧЕНЫЕ УЗБЕКИСТАНА

История

***Азамат Зиё,** доктор исторических наук, академик, директор Института истории Академии наук Узбекистана*

***Раджабов Кахрамон Кенжаевич,** доктор исторических наук, профессор, главный научный сотрудник Института истории Академии наук Узбекистана*

Филология

***Маджидова Рано Уришевна,** доктор филологических наук, профессор, Узбекский государственный университет мировых языков*

***Шарипова Лайло Фрунзеевна,** доктор филологических наук. Бухарский государственный университет*

***Нигматова Лолахан Хамидовна,** доктор филологических наук. Бухарский государственный университет*

***Юсупова Хилола Уктамовна,** кандидат филологических наук, доцент. Бухарский государственный педагогический институт*

***Акрамова Сураё Ренатовна,** доктор философских наук, доцент. Бухарский государственный педагогический институт*

Саидова Мухайё Умедилоевна, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент. Бухарский государственный университет

Низамова Умида Санджаровна, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент Андижанского государственного технического института

Педагогика

***Толипов Уткир Каршиевич,** доктор педагогических наук, профессор. Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами.*

***Олимов Ширинбой Шарофович,** доктор педагогических наук, профессор. Бухарский государственный университет*

***Тилавова Матлаб Мухаммадовна,** кандидат педагогических наук, доцент. Бухарский государственный педагогический институт*

***Дилова Наргиза Гайбуллаевна,** доктор педагогических наук (DSc), профессор. Бухарский государственный университет*

***Сохибов Акрам Рустамович,** кандидат педагогических наук, доцент. Каршинский государственный университет*

***Умаров Бахшулло Джураевич,** кандидат педагогических наук, доцент. Бухарский государственный педагогический институт*

***Хасанова Гулноз Касимовна,** кандидат педагогических наук, доцент. Бухарский государственный педагогический институт*

***Иноятов Абдулло Шодиевич,** доктор философских наук (PhD) по педагогических наук, доцент. Бухарский государственный университет*

***Давронов Нурзод Исмоилович,** PhD по педагогическим наукам, доцент. Бухарский государственный педагогический институт*

Психология

***Умаров Бахриддин Мингбаевич,** доктор психологических наук, профессор. Ташкентский государственный педагогический университет*

***Бафаев Мухиддин Мухамадович,** PhD по психологическим наукам. Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами*

Экономика

***Куролов Кобулжон Кулманович,** доктор экономических наук, профессор. Директор сетевого центра переподготовки и повышения квалификации педагогов Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова*

***Маманазаров Абдухаким Бозорович,** доктор педагогических наук (DSc), доцент. Ташкентский филиал Московского государственного университета им. М.В. Ломоносова*

Философия

***Намозов Бобир Багриевич,** доктор философских наук. Бухарский государственный университет*

EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

MEMBERS OF THE PUBLIC COUNCIL

Risboy Haydarovich Djuraev, *doctor of Pedagogical Sciences, Academician of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan*
Rustambek Temirovich Shamsutdinov, *professor of Andijan State University, Honored Worker of Culture of Uzbekistan, Doctor of Historical Sciences*
Inom Urushevich Majidov, *doctor of Technical Sciences, Professor. National University of Uzbekistan.*
Kahramon Tanzilovich Olimov, *doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Tashkent branch of the Russian State Pedagogical University named after AI Gertsen*
Zokirkhoja Abdusattorovich Tadjikhodjaev, *doctor of Technical Sciences, Professor*
Oyniso Musurmonova, *doctor of pedagogical sciences, professor*
Rohat Gaybulloevna Safarova, *doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Uzbek Scientific Research Institute of Pedagogical Sciences named after TN Qori-Niyazi.*
Kholboy Ibragimovich Ibragimov, *doctor of Pedagogical Sciences, Academician of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan*

MEMBERS OF EDITPRIAL COUNCIL

Ekaterina Iosifovna Artamonova, *doctor of Pedagogical Sciences, Professor, President of the Moscow State Pedagogical University, International Academy of Pedagogical Sciences*
Irina Evgeneevna Emelyanova, *doctor of Pedagogical Sciences, Professor, South Ural State Humanitarian Pedagogical University. Russia*
Galina Anatolevna Kuzmenko, *doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Moscow State Pedagogical University, Institute of Physical Culture, Sports and Health*
Bozor Safaralievich Safaraliev, *doctor of pedagogical sciences, professor. Chelyabinsk State Academy*
Vladimir Vasilevich Kulishov, *doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Vice-Rector of the State University of Economics and Technology, Krivoy Rog, Ukraine*
Irina Rudolfovna Lazarenko, *doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Rector of Altai State Pedagogical University, Russia*
Oksana Gennadevna Filippova, doctor of Pedagogical Sciences, Professor. South Ural State Humanitarian Pedagogical University. Russia
Christo Kyuchukov, doctor of Pedagogical Sciences. Professor of General Linguistics Psycholinguistics. Free University of Berlin, Institute of Turkology. Founder and editor of the International Journal of Psycholinguistics and Sociolinguistics, Germany
Mikhail Ivanovich Kumskov, doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor. M.V. Lomonosov Moscow State University
Oleg Semenovich Padalka, doctor of Pedagogical Sciences, Professor, National Pedagogical University named after M.P. Dragomanova, Ukraine
Tursun Hazretili, doctor of Historical Sciences, Professor of the International Kazakh-Turkish University named after Khoja Ahmad Yassavi
Khuzhaugli Timur, linguist and literary critic. Professor at the University of Michigan (USA)
Hatunoğlu Nurettin, Assoc. Dr., Zonguldak Bulent Ecevit University, Faculty of Arts and Sciences, Department of History (Turkey)
Mullojanov Sayfullo Kuchakovich, doctor of Historical Sciences, Professor. National University of Tajikistan
Gushko Sergey Vladimirovich, doctor of Economics, Professor, Vice-Rector of the State University of Economics and Technology, Krivoy Rog, Ukrain

SCIENTISTS OF UZBEKISTAN

History

Azamat Ziyo, *doctor of Historical Sciences, Academician, director of the of the Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan*
Rajabov Kakhramon Kenjayevich, *doctor of Historical Sciences, Professor, main researcher of the Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan*

Philology

Majidova Rano Urishevna, *doctor of Philology, Professor, Uzbek State University of World Languages*
Sharipova Laylo Frunzeyevna, *professor, Doctor of Philology. Bukhara State University*
Nigmatova Lolaxon Xamidovna, *doctor of Philology. Bukhara State University*
Yusupova Khilola Oktamovna, *candidate of philological sciences, associate professor. Bukhara Engineering and Technology Institute*
Akramova Surayo Renatovna, *doctor of Philosophy, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute*
Saidova Mukhayyo Umediloevna, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor. Bukhara State University
Nizamova Umida Sandjarovna, Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences, associate professor at Andijan institute of engineering and technology.

Pedagogy

Tolipov Utkir Karshiyevich, *doctor of Pedagogy, Professor. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.*
Olimov Shirinboy Sharofovich, *doctor of pedagogical sciences, professor. Bukhara State University*
Tilavova Matlab Muhammadovna, *candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute*
Dilova Nargiza Gaybullayevna, *doctor of pedagogical sciences (DSc), Professor. Bukhara State University*
Sohibov Akram Rustamovich, *candidate of pedagogical sciences, associate professor. Karshi State University*
Umarov Bakhshullo Djurayevich, *Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute*
Khasanova Gulnoz Kasimovna, *candidate of pedagogical sciences, associate professor.Bukhara State Pedagogical Institute*
Inoyatov Abdullo Shodievich, *doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State University*
Davronov Nurzod Ismoilovich*, PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute*

Psychology

Umarov Bakhriddin Mingbayevich, *doctor of Psychology, Professor. Tashkent State Pedagogical University*
Bafaev Muhiddin Mukhamadovich, *PhD in Psychological Sciences. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami*

Economy

Kurolov Kobuljon Kulmanovich, *doctor of Economics, Professor. Director of the network center for retraining and advanced training of teachers of the Tashkent State Technical University named after Islam Karimov*
Mamanazarov Abdukhakim Bozorovich, *doctor of pedagogical sciences (DSc), associate professor. Tashkent branch of Moscow State University. M.V. Lomonosov*

Philosophy

Namozov Bobir Baxriyevich*, doctor of Philosophy. Bukhara State University*

07.00.00 – TARIX FANLARI

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT EKOLOGIK SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: TARIXIY BOSQICHLAR VA USTUVOR YO‘NALISHLAR (1991–2025)

Ma’rupova Parvina Muxammadjon qizi
Toshkent viloyati Chirchiq shahar
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti Tarix yo’nalishi 2-bosqich magistranti
Chirchiq shahar 25-umumiy o’rta ta’lim maktabi Tarix fani o’qituvchisi

Ilmiy rahbar:Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti
Tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xudayberdiyev Ikrom Ilxomjon o’g’li

Annotatsiya. Maqolada mustaqillikdan keyingi davrda O‘zbekistonda ekologik siyosatning mazmuni va boshqaruv usullarida yuz bergan o‘zgarishlar tarixiy ketma-ketlikda ko‘rib chiqiladi. Tahlilning markazida uch masala turadi: mustaqil ekologik qonunchilik va institutlarning shakllanishi, 2000-yillarda amaliy hamda xalqaro hamkorlik mexanizmlarining kengayishi va 2017-yildan keyin ekologik vazifalarning iqtisodiy hamda strategik rejalashtirish bilan bog‘lanishi. Normativ-huquqiy hujjatlar va davlat strategiyalarini o‘zaro qiyoslash ekologik boshqaruvning vazifalari vaqt o‘tishi bilan kengayganini ko‘rsatadi. Muallif 1991–2000, 2001–2016 va 2017–2025-yillarni shartli bosqichlar sifatida ajratib, ularning uzviyligi va farqli jihatlarini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, ekologik siyosat, ekologik boshqaruv, Orolbo‘yi, tabiiy resurslar, yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, tarixiy tahlil.

Аннотация. В статье в исторической последовательности рассматриваются изменения содержания и механизмов экологической политики Узбекистана после обретения независимости. Основное внимание уделено формированию национальной правовой и институциональной базы, развитию практических механизмов и международного сотрудничества в 2000-е годы, а также включению экологических задач в экономическое и стратегическое планирование после 2017 года. Сопоставление нормативно-правовых актов и государственных стратегий позволяет проследить расширение функций экологического управления. Периоды 1991–2000, 2001–2016 и 2017–2025 гг. рассматриваются как условные этапы данного процесса.

Ключевые слова: Узбекистан, экологическая политика, экологическое управление, Приаралье, природные ресурсы, зелёная экономика, устойчивое развитие, исторический анализ.

Abstract. This article traces changes in the content and mechanisms of Uzbekistan’s environmental policy after independence. Particular attention is paid to the creation of a national legal and institutional framework, the expansion of practical mechanisms and international cooperation during the 2000s, and the incorporation of environmental objectives into economic and strategic planning after 2017. A comparison of legal acts and state strategies shows how the functions of environmental governance broadened over time. The periods 1991–2000, 2001–2016 and 2017–2025 are treated as analytical stages whose continuity and differences help explain this transformation.

Keywords: Uzbekistan, environmental policy, environmental governance, Aral Sea region,

natural resources, green economy, sustainable development, historical analysis.

KIRISH. O‘zbekiston mustaqillikka erishgan paytda ekologik masalalar yangi davlat siyosatining chekka yo‘nalishi emas, balki meros bo‘lib qolgan murakkab muammolardan biri edi. Orol dengizining qisqarishi, sug‘oriladigan yerlarning sho‘rlanishi, suvdan foydalanishdagi ziddiyatlar va sanoat hududlaridagi ifloslanish ekologik boshqaruvni milliy darajada qayta tashkil etishni talab qildi. Shu jihatdan mustaqillik yillaridagi ekologik siyosat tarixini o‘rganish faqat tabiat holatini tasvirlash bilan cheklanmaydi. U davlat institutlari qanday shakllangani, ekologik masalalar qaysi davrda qanday siyosiy va iqtisodiy ustuvorliklar bilan bog‘langani haqida ham tasavvur beradi.

Maqolaning maqsadi 1991–2025-yillarda O‘zbekistondagi davlat ekologik siyosatining rivojlanishini tarixiy bosqichlarga ajratish, bosqichlar o‘rtasidagi davomiylik va o‘zgarishlarni ko‘rsatish hamda ekologik boshqaruvning mazmuni qanday kengayganini tahlil qilishdan iborat. Bunda davrlashtirish mutlaq chegara sifatida emas, siyosatdagi asosiy tendensiyalarni tushuntirishga xizmat qiluvchi tahliliy vosita sifatida qo‘llanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. 1991–2025-yillarda O‘zbekiston davlat ekologik siyosatining rivojlanishi huquqiy-institutsional, amaliy-boshqaruv va strategik rejalashtirish mezonlari asosida kompleks tarixiy tahlil qilindi. Ekologik siyosat taraqqiyoti 1991–2000, 2001–2016 va 2017–2025-yillardan iborat uch shartli tarixiy bosqichga ajratilib, har bir bosqichning o‘ziga xos xususiyatlari qiyosiy jihatdan ochib berildi. Shuningdek, ekologik boshqaruvning milliy huquqiy-institutsional tizimni shakllantirishdan amaliy va xalqaro hamkorlik mexanizmlariga, undan esa ekologik maqsadlarni iqtisodiy va strategik rivojlanish bilan integratsiyalashgan boshqaruv modeliga o‘tish tendensiyasi asoslandi.

Maqolaning mualliflik yondashuvi ekologik siyosatni uchta o‘zaro bog‘liq mezon orqali kuzatishga asoslanadi: huquqiy-institutsional baza, amaliy boshqaruv vositalari va strategik rejalashtirishdagi o‘rni. Aynan shu mezonlar 1991–2000, 2001–2016 va 2017–2025-yillardagi farqlarni bir tizimda qiyoslash imkonini beradi.

Tadqiqotda tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillariga amal qilindi. Muammoviy-xronologik yondashuv ekologik siyosatdagi o‘zgarishlarni vaqt ketma-ketligida kuzatish uchun, tarixiy-qiyosiy usul esa turli davrlardagi vazifalar va boshqaruv vositalarini solishtirish uchun qo‘llandi. Manba sifatida ekologiya va tabiiy resurslarga oid qonunlar, davlat dasturlari, prezident qarorlari, taraqqiyot strategiyalari va rasmiy materiallardan foydalanildi.

Mavzuga yaqin ilmiy ishlarning mavjudligi masalaning tadqiqot maydoni keng ekanini ko‘rsatadi. Xususan, Oliy attestatsiya komissiyasining 2026-yilgi rasmiy e’lonida B.M. Yuldoshevaning 1991–2025-yillardagi O‘zbekiston atrof-muhit holati tarixiga bag‘ishlangan DSc tadqiqoti qayd etilgan. Mazkur maqolada esa asosiy e’tibor ekologik holatning o‘ziga emas, davlat siyosatining huquqiy, institutsional va strategik jihatdan qanday o‘zgarganiga qaratiladi.

1. 1991–2000-yillar: milliy ekologik siyosatning huquqiy-institutsional asoslari

Mustaqillikning dastlabki o‘n yilligida asosiy vazifa ekologik boshqaruvni yangi siyosiy-huquqiy sharoitga moslashtirish edi. Avvalgi ittifoq tizimida shakllangan tartiblar o‘rniga milliy qonunchilik va respublika miqyosidagi boshqaruv mexanizmlarini yaratish zarur bo‘ldi. Shu sababli bu davrni, avvalo, ekologik siyosatning huquqiy poydevori shakllangan bosqich sifatida baholash mumkin.

1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun ushbu jarayonning muhim tayanchlaridan bo‘ldi [1]. Keyingi yillarda atmosfera havosini muhofaza qilish kabi alohida yo‘nalishlar bo‘yicha huquqiy normalarning shakllanishi ekologik boshqaruvning umumiy deklarativ vazifalardan aniq tartibga solish sohalariga o‘ta boshlaganini ko‘rsatdi [2].

Tarixiy jihatdan bu jarayonni ekologik boshqaruvning milliylashuvi deb ko‘rish mumkin: ekologik masalalar endi mustaqil davlatning o‘z qonunchiligi, manfaatlari va boshqaruv vakolatlari doirasida hal etila boshladi.

Orol dengizi va Orolbo‘yi muammosi esa ekologik siyosatning faqat ichki masala emasligini yaqqol namoyon etdi. Suv resurslarining transchegaraviy xususiyati O‘zbekiston uchun mintaqaviy hamkorlikni ekologik siyosatning ajralmas qismiga aylantirdi. Natijada 1990-yillardayoq ekologik siyosatda ikki yo‘nalish yonma-yon shakllandi: mamlakat ichida huquqiy-institutsional tizim yaratish va Orol muammosi yuzasidan davlatlararo hamkorlikni rivojlantirish.

2. 2001–2016-yillar: amaliy mexanizmlar va xalqaro hamkorlik

2001–2016-yillarda ekologik siyosatning vazifalari avvalgi bosqichda yaratilgan huquqiy bazani amaliy choralar bilan to‘ldirish tomon siljidi. Chiqindilarni boshqarish, suv va yer resurslaridan foydalanish, cho‘llanish, biologik xilma-xillik va Orolbo‘yi aholisining ekologik-ijtimoiy muammolari davlat dasturlarida ko‘proq o‘rin ola boshladi. 2002-yildagi “Chiqindilar to‘g‘risida”gi Qonun bu davrda alohida ekologik yo‘nalishlarni huquqiy tartibga solish davom etganini ko‘rsatadi [3].

Bu bosqichni faqat yangi hujjatlar qabul qilingan davr deb tavsiflash yetarli emas. Uning muhim jihati ekologik muammolarni loyiha, dastur va xalqaro hamkorlik vositalari orqali hal etishga intilish kuchayganidadir. Xalqaro ekologik kun tartibi, donorlik loyihalari va konvensiyalar bilan bog‘liq tajriba boshqaruv amaliyotiga yangi yondashuvlarni olib kirdi. Shu bilan birga, iqtisodiy o‘sish va resurslardan intensiv foydalanish sharoitida ekologik talablar bilan xo‘jalik ehtiyojlari o‘rtasidagi muvozanat masalasi saqlanib qoldi.

Shu sababli 2001–2016-yillarni o‘tish bosqichi sifatida ko‘rish mumkin. Bir tomondan, ekologik boshqaruv ko‘p hollarda alohida muammolarga javob berishga qaratilgan edi; ikkinchi tomondan esa monitoring, xalqaro tajriba va dasturiy boshqaruv kabi keyingi davr uchun muhim bo‘lgan vositalar aynan shu yillarda kengroq qo‘llanila boshladi.

3. 2017–2025-yillar: ekologik masalalarning strategik rejalashtirishga kirib borishi

2017-yildan keyingi davrda ekologik masalalarning davlat taraqqiyot dasturlari bilan bog‘lanish darajasi sezilarli ravishda oshdi. Avvalgi bosqichlarda tabiatni muhofaza qilish, resurslardan foydalanish va muayyan ekologik muammolar ustun turgan bo‘lsa, endi iqlim o‘zgarishi, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya, ko‘kalamzorlashtirish va yashil iqtisodiyot tushunchalari bir-biri bilan bog‘langan siyosiy yo‘nalishlar sifatida namoyon bo‘la boshladi.

2019-yilda 2019–2030-yillarda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasining tasdiqlanishi bu o‘zgarishning muhim huquqiy ifodasi bo‘ldi [4]. 2022-yilda qabul qilingan tegishli dasturda 2030-yilgacha issiqxona gazlari intensivligini kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini kengaytirish, suv tejovchi texnologiyalar, ko‘chat ekish va chiqindilarni qayta ishlash kabi yo‘nalishlar aniq maqsadlar bilan bog‘landi [5]. Bu holat ekologik siyosatda faqat muammoni qayd etish emas, natijani o‘lchashga intilish kuchayganini ko‘rsatadi.

“Yashil makon” kabi tashabbuslar ekologik siyosatning hududiy va ommaviy ko‘lamini ham kengaytirdi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga oid rasmiy materiallarda ekologik va yashil rivojlanish bilan bog‘liq vazifalarning umumiy taraqqiyot maqsadlari tarkibida berilishi ushbu tendensiyaning davom etayotganini ko‘rsatadi [6]. Demak, ekologik masala alohida soha doirasidan chiqib, iqtisodiyot, hududiy rivojlanish va ijtimoiy siyosat bilan tutashgan yo‘nalishga aylanmoqda.

Orolbo‘yi bo‘yicha yondashuvdagi o‘zgarish ham shu transformatsiyani ko‘rsatadi. Ilgari asosiy urg‘u ekologik inqiroz oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan bo‘lsa, keyingi davrda hududni tiklash, yashil texnologiyalar, innovatsiya va xalqaro hamkorlikni birlashtirishga intilish kuchaydi.

Shu ma’noda 2017–2025-yillarni ekologik siyosatning strategik ko‘lami kengaygan davr sifatida tavsiflash mumkin.

4. Davrlashtirish va qiyosiy tahlil

Davr	Asosiy vazifa	Ustuvor yo‘nalish	Tarixiy xususiyat
1991–2000	Milliy huquqiy va institutsional bazani yaratish	Tabiatni muhofaza qilish, Orol muammosi, resurslardan foydalanishni tartibga solish	Ekologik boshqaruvning milliylashuvi
2001–2016	Huquqiy bazani amaliy mexanizmlar bilan to‘ldirish	Suv va yer, chiqindilar, cho‘llanish, biologik xilma-xillik, xalqaro loyihalar	Dasturiy va sektorlararo boshqaruvning kengayishi
2017–2025	Ekologik maqsadlarni strategik taraqqiyot bilan bog‘lash	Yashil iqtisodiyot, iqlim, energiya, ko‘kalamzorlashtirish, Orolbo‘yi	Natijalarni o‘lchashga yo‘naltirilgan strategik yondashuv

Yashil iqtisodiyot, iqlim, energiya, ko‘kalamzorlashtirish, Orolbo‘yi Natijalarni o‘lchashga yo‘naltirilgan strategik yondashuv

Uch bosqichni qiyoslash ekologik siyosatdagi o‘zgarishni oddiy “eski-yangi” qarama-qarshiligi sifatida emas, vazifalarning bosqichma-bosqich kengayishi sifatida ko‘rishga imkon beradi. 1990-yillarda davlat uchun birlamchi masala o‘z huquqiy va institutsional asoslarini yaratish bo‘lgan. Keyingi davrda shu asoslar muayyan ekologik muammolarni boshqarish, dasturlar va xalqaro loyihalar bilan boyigan. 2017-yildan keyin esa ekologik vazifalar iqtisodiy va hududiy rivojlanish ko‘rsatkichlari bilan tobora ko‘proq bog‘lana boshlagan.

Bunday davrlashtirishdan kelib chiqadigan muhim xulosa shuki, O‘zbekistonda ekologik siyosatning tarixiy rivojlanishi avvalgi vazifalarni butunlay inkor etish orqali emas, ularga yangi funksiyalar qo‘shilishi orqali kechgan. Masalan, tabiatni muhofaza qilish vazifasi bugun ham saqlanadi, biroq unga iqlim, energiya samaradorligi, yashil iqtisodiyot va natijadorlik ko‘rsatkichlari qo‘shilgan. Shuning uchun “yashil” transformatsiyani alohida kampaniya emas, oldingi bosqichlarda shakllangan huquqiy va boshqaruv tajribasining yangi sharoitdagi davomiyligi sifatida ham talqin qilish mumkin.

1991–2025-yillar tahlili O‘zbekistonda ekologik siyosatning mazmuni bir necha marta kengayganini ko‘rsatadi. Dastlab mustaqil davlat uchun ekologik qonunchilik va boshqaruv institutlarini yaratish birlamchi bo‘lgan. 2001–2016-yillarda huquqiy bazaning amaliy ishlashi, alohida ekologik yo‘nalishlarni tartibga solish va xalqaro hamkorlikning roli oshgan. 2017-yildan keyin esa ekologik maqsadlar davlatning iqtisodiy va strategik rejalashtirish hujjatlarida ancha yaqqol ifodalana boshlagan.

Mazkur tarixiy ketma-ketlik ekologik siyosatni faqat qabul qilingan qonunlar soni bilan baholash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Siyosatning amaliy natijasi hujjatlarning hududlarda qanday bajarilishi, monitoringning sifati, ilmiy ma’lumotlardan foydalanish va jamoatchilikning ishtiroki bilan bog‘liq. Shu sababli keyingi tadqiqotlarda umumrespublika miqyosidagi davrlashtirishni Orolbo‘yi, Farg‘ona vodiysi yoki yirik sanoat markazlari misolida arxiv hujjatlari, statistika va davriy matbuot materiallari bilan tekshirish maqsadga muvofiq.

Maqola doirasida taklif etilgan uch bosqichli yondashuvning asosiy ahamiyati shundaki, u ekologik siyosatdagi davomiylikni ham, yangilanishni ham bir vaqtda ko‘rsatadi. O‘zbekiston

tajribasida tabiatni muhofaza qilish vazifasi yo‘qolmagan; aksincha, u vaqt o‘tishi bilan resurslardan foydalanish, xalqaro hamkorlik, yashil iqtisodiyot va strategik rivojlanish vazifalari bilan to‘ldirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. 9 dekabr 1992-yil.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. 27 dekabr 1996-yil.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Chiqindilar to‘g‘risida”gi Qonuni. 5 aprel 2002-yil.

4. O‘zbekiston Respublikasida 2019–2030-yillar davrida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori.

5. 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi qarori.

6. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi va uni amalga oshirishga oid rasmiy materiallar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti.

7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi. Yuldosheva B.M. “O‘zbekistonning atrof-muhit holati tarixi (1991–2025-yillar)” mavzusidagi DSc dissertatsiyasi himoyasi haqidagi rasmiy e’lon, 2026.

8. O‘zbekiston Respublikasi ekologiya sohasiga oid davlat dasturlari, strategik va normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami.

TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATINING SHAKLLANISHIDA USMONLI TURK SULTONLIGIDAGI ISLOHOTLARNING O‘RNI”

Rustamova Dilafro‘z Azamatovna
Navoiy davlat universiteti 3-kurs doktoranti
Navoiy viloyati Navoiy shahri “Nurli maskan” ixtisoslashtirilgan maktab-internati tarix fani o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada Turkistonda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik harakatining shakllanishida Usmonli turk sultonligida amalga oshirilgan Tanzimot islohotlari va konstitutsiyaviy o‘zgarishlarning o‘rni tahlil qilinadi. Usmonli matbuoti, maorif tizimidagi yangilanishlar hamda “yosh turklar” harakati g‘oyalarining Turkiston ma’rifatparvarlariga ta’sir ko‘rsatish yo‘llari — sayohatlar, matbuot aloqalari va ta’lim almashinuvi orqali — ko‘rib chiqiladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov kabi jadid namoyandalarining Usmonli islohotlariga munosabati misolida g‘oyaviy ta’sir mexanizmlari asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari Turkiston jadidchiligining xalqaro-mintaqaviy kontekstini yanada to‘liqroq tushunishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, Turkiston, Usmonli sultonligi, Tanzimot islohotlari, yosh turklar, usuli jadid maktablari, matbuot, konstitutsiyaviy harakat, ma’rifatparvarlik.

АННОТАЦИЯ. В данной статье анализируется роль танзиматских реформ и конституционных преобразований, осуществлённых в Османском султанате, в формировании джадидского движения, возникшего в Туркестане в конце XIX – начале XX века. Рассматриваются пути влияния османской печати, обновлений в системе образования, а также идей движения «младотурок» на туркестанских просветителей — через поездки, связи с прессой и обмен в сфере образования. На примере отношения таких деятелей джадидизма, как Махмудходжа Бехбуди и Мунаввар-кори Абдурашидханов, к османским реформам обосновываются механизмы идейного влияния. Результаты исследования способствуют более полному пониманию международно-регионального контекста туркестанского джадидизма.

Ключевые слова: джадидизм, Туркестан, Османский султанат, танзиматские реформы, младотурки, новометодные школы, печать, конституционное движение, просветительство.

ABSTRACT. This article examines the role of the Tanzimat reforms and constitutional transformations carried out in the Ottoman Sultanate in shaping the Jadid movement that emerged in Turkestan in the late nineteenth and early twentieth centuries. It considers the channels through which the Ottoman press, reforms in education, and the ideas of the Young Turk movement influenced Turkestani reformers — through travel, press connections, and educational exchange. Using the example of the attitudes of Jadid figures such as Mahmudkhoja Behbudiy and Munavvar Qori Abdurashidkhonov toward Ottoman reforms, the mechanisms of ideational influence are substantiated. The findings contribute to a fuller understanding of the international-regional context of Turkestani Jadidism.

Keywords: Jadidism, Turkestan, Ottoman Sultanate, Tanzimat reforms, Young Turks, new-method schools, press, constitutional movement, enlightenment.

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlari nafaqat Turkiston, balki butun musulmon Sharqi uchun islohotchilik g‘oyalarining kengroq tarqalish davri bo‘ldi. Rossiya

mustamlakachiligi sharoitida yashagan Turkiston ziyolilari orasida jamiyatni yangilash, maorifni isloh qilish va milliy uyg‘onishga xizmat qiluvchi jadidchilik harakati shakllandi.[1,8] Ushbu harakatning g‘oyaviy ildizlarini o‘rganishda Usmonli turk sultonligida amalga oshirilgan Tanzimot islohotlari (1839–1876) va undan keyingi konstitutsiyaviy jarayonlarning ta’sirini alohida ko‘rib chiqish zarurati yuzaga keladi.[2,4]

Usmonli davlatida davlat boshqaruvi, maorif, matbuot va huquq sohalarida amalga oshirilgan islohotlar, shuningdek 1876-yilgi konstitutsiya va “yosh turklar” harakatining g‘oyalari nafaqat Usmonli jamiyati, balki butun turkiy-musulmon dunyosi, jumladan Turkiston ma’rifatparvarlari uchun ham namuna vazifasini o‘tadi.[3,9] Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi jadid namoyandalarining Usmonli davlati bilan bevosita yoki bilvosita aloqalari, ularning Usmonli matbuoti va ta’lim tizimidan olgan taassurotlari jadidchilik g‘oyalarining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.[6]

Mazkur maqolaning maqsadi — Usmonli sultonligidagi islohotlarning Turkiston jadidchilik harakati shakllanishidagi o‘rnini, ta’sir mexanizmlarini hamda bu ta’sirning konkret ko‘rinishlarini ilmiy tahlil qilishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Turkiston jadidchiligi mavzusi o‘zbek tarixshunosligida keng o‘rganilgan bo‘lib, M. Boboxonov, D. Alimova va Q. Rajabovlarning tadqiqotlarida harakatning ichki ijtimoiy-siyosiy sabablari, yetakchi namoyandalari va faoliyat yo‘nalishlari batafsil yoritilgan.[1,6,8] Biroq bu ishlarning aksariyatida harakatning xalqaro-mintaqaviy, xususan Usmonli ta’siri jihati nisbatan qisqaroq e’tiborga olingan.

Xorijiy tadqiqotchi A. Khalid o‘zining Turkiston jadidchiligiga bag‘ishlangan fundamental tadqiqotida madaniy islohotchilikning mintaqalararo bog‘liqligini, jumladan Usmonli va tatar ma’rifatchilik tajribasining Turkistonga ta’sirini alohida ta’kidlaydi.[3] C. Findley va K. Karpatning Usmonli tarixiga oid ishlarida Tanzimot islohotlari, 1876-yilgi konstitutsiya va yosh turklar harakatining nafaqat Usmonli jamiyati, balki kengroq islom dunyosiga ta’siri tahlil qilingan.[4,9]

A. Bennigsen va Ch. Lemercier-Quelquejayning tadqiqotlarida esa Rossiya musulmonlari matbuotining, jumladan Ismoil Gaspralining “Tarjimon” gazetasi orqali Usmonli va boshqa turkiy xalqlar g‘oyalarining Turkistonga yetib kelish yo‘llari yoritilgan.[5] Shunga qaramay, Usmonli islohotlarining aynan Turkiston jadidchiligi shakllanishidagi bevosita ta’sir mexanizmlarini kompleks tahlil qiluvchi maxsus tadqiqotlar hozircha yetarli emas, bu esa mazkur mavzuni dolzarb qiladi.[2,7]

Shuni ham ta’kidlash lozimki, sovet davri tarixshunosligida jadidchilik harakati ko‘pincha “burjua-milliychilik” oqimi sifatida baholanib, uning xalqaro-mintaqaviy aloqalari, xususan Usmonli ta’siri masalasi deyarli o‘rganilmagan yoki tanqidiy ohangda talqin etilgan.[7,8] Mustaqillik yillaridan buyon esa bu mavzuga xolisona ilmiy yondashuv shakllanib, jadidchilikning millat taraqqiyoti yo‘lidagi progressiv harakat sifatidagi mohiyati qayta tiklandi, bu esa uning mintaqaviy va xalqaro aloqalarini ham yangi nuqtai nazardan o‘rganish imkonini yaratdi.[6,8]

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tarixiy-genetik va manbashunoslik tahlili metodlaridan foydalanildi. Turkiston jadidlarining maqolalari, sayohatnomalari va davriy matbuotda e’lon qilingan materiallari Usmonli manbalari bilan qiyosiy tahlil qilindi.[3,5]

Tarixiy-genetik yondashuv yordamida g‘oyalarning Usmonli sultonligidan Turkistonga yetib kelish yo‘llari — matbuot, sayohat, ta’lim almashinuvi — bosqichma-bosqich kuzatildi. Tizimli yondashuv asosida siyosiy, maorif va matbuot sohalaridagi islohotlar o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi, bu esa ta’sir jarayonining yaxlit manzarasini shakllantirish imkonini berdi.[4,9]

Shuningdek, mavjud ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish, qiyosiy-tipologik tahlil hamda sabab-natija munosabatlarini aniqlash usullaridan foydalanildi, bu esa tadqiqot xulosalarining ilmiy asoslanganligini ta’minladi.[1,8]

Tahlil va natijalar

Usmonli turk sultonligida XIX asr o‘rtalaridan boshlab amalga oshirilgan Tanzimot islohotlari davlat boshqaruvi, huquq, maorif va matbuot sohalarida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. 1876-yilda qabul qilingan konstitutsiya va parlament tashkil etilishi musulmon Sharqida konstitutsiyaviy boshqaruv g‘oyasining ilk yirik namunasi sifatida katta qiziqish uyg‘otdi.[2,4] Bu jarayonlar haqidagi ma’lumotlar turkiy va arab tilidagi matbuot, xususan Ismoil Gaspralining “Tarjimon” gazetasi orqali Rossiya musulmonlari, jumladan Turkiston ziyolilari orasida ham keng tarqaldi.[5,9]

Mahmudxo‘ja Behbudiyning Istanbul, Qohira va Makkaga qilgan safarlari davomida Usmonli maorif tizimi, matbuoti va ijtimoiy hayoti bilan bevosita tanishishi uning islohotchilik qarashlari shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.[6,8] Xuddi shunday, Munavvar qori Abdurashidxonov tashabbusi bilan ochilgan usuli jadid maktablarining dastur va metodikasida Usmonli hamda tatar ma’rifatchilik tajribasidan foydalanilgani manbalarda qayd etiladi.[1,3]

1908-yildagi yosh turklar inqilobi va undan keyin Usmonli davlatida konstitutsiyaviy tartibning tiklanishi Turkiston matbuotida, xususan “Sadoi Turkiston” va “Oyina” kabi nashrlarda keng yoritilib, bu voqealar mahalliy jadidlar tomonidan islohotlar zarurligini asoslash uchun ijobiy misol sifatida keltirilgan.[4,7] Shu bilan birga, tadqiqotchilar ta’kidlashicha, Turkiston jadidlari Usmonli tajribasini mexanik ravishda ko‘chirib olmagan, balki uni mahalliy ijtimoiy-siyosiy sharoitga moslashtirgan holda o‘zlashtirgan.[3,9]

Alohida ta’kidlash joizki, Turkiston jadidlari orasida Usmonli tajribasiga munosabat bir xil bo‘lmagan. Behbudiy va uning safdoshlari Usmonli islohotlarini ko‘proq maorif va matbuot sohasidagi ilg‘or tajriba sifatida qabul qilgan bo‘lsa, ba’zi yosh jadidlar orasida yosh turklar harakatining siyosiy-konstitutsiyaviy g‘oyalariga nisbatan ham qiziqish kuchaygan, bu esa Buxoro amirligidagi “yosh buxoroliklar” guruhining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.[6,7] Shunday qilib, Usmonli ta’siri Turkiston jadidchiligida bir tekis emas, balki turli guruh va yo‘nalishlar bo‘yicha turlicha darajada namoyon bo‘lgan.

Fonetika o‘qitish bilan bog‘liq ilmiy muammolar. Ona tili ta’limida qisman, o‘zbek tili o‘qitish uchun juda zarur bo‘lib turgan transkripsiya masalasa kechiktirib bo‘lmaydigan eng dolzab muammolardan hisoblanadi. Ayniqsa, alifboda kerakli tovushlar ([i], [u], [o‘]) ni ifodalovchi harflar yetishmayotgan bir paytda qulay, zamonaviy transkripsiya belgilari nihoyatda zarur. Metodikaga doir ilmiy tadiqiqotlarning sustligi sababli ham bu boradagi muammolar ortib bormoqda, jumladan, ona tili ta’limida [o‘], [i], [h] va [x] kabi talaffuzi va imlosi global darajada muammo bo‘layotgan tovushlarni o‘qitish metodikasini interfaol usullardan foydalangan holda ishlab chiqish, mashqlar tizimini yaratish masalalari ham ko‘ndalang turibdi. Qolaversa, amaliy tilshunoslik oldida fonetik ta’limga doir mazkur muammolarni dasturiy ta’minot orqli yechish, o‘zbek tilidagi tovushlar va so‘zlarning aniq va ishonchli ovozlashtirilgan raqamli variantlarini yaratish, adabiy talaffuzga o‘rgatuvchi elektron mashqlar tizimini ishlab chiqish kabi bir qator ilmiy ishlar ham o‘z tadqiqini kutib turibdi.

Darsliklarda fonetikaga doir o‘quv materiallarining berilishi. “Ona tili” darsliklarida to‘g‘ri talaffuz va imlo me’yorlarini ko‘nikma sifatida shakllantirish borasida ko‘plab mashqlar, turli tushuntirishlar beriladi. Ammo nutqiy faoliyat davomida ayrim nutq tovushlarining adabiy talaffuzi va imlosini o‘quvchiga o‘rgatish qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaraveradi.

Adabiy talaffuz va uning me’yorlari masalasi dunyoning rivojlangan mamlakatlari tillarida atroflicha o‘rganilganligini kuzatamiz [ingliz, frantsuz va b.]. Bu borada jahon tajribasida, jumladan, ingliz tilida fonetik mashqlardan unumli foydalaniladi. Shuning uchun ham amaldagi asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalarida har bir nutq tovushining hosil bo‘lish jarayoni haqida batafsil ma’lumot beriladi.

Oliy ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun nashr ettirilgan darslik hamda o‘quv qo‘llanmalarda tovushlarning talaffuz holati aks etgan maxsus chizma (rasm)lar yo‘q. O‘zbek

tiliga xos bo‘lgan ayrim tovushlarning to‘g‘ri talaffuzini oddiy, an’anaviy mashqlar bilan etarli darajada o‘rgatib bo‘lmasligini bugungi o‘quvchi, o‘quvchi, hatto ayrim katta yoshdagi ziyoli kishilar, xususan, o‘qituvchilarning nutqi ham isbotlab turibdi.

Muammoning bir uchi yana o‘rta umumta’lim maktablarida ona tili o‘qitish masalasiga borib taqaladi. Adabiy talaffuz – madaniyatlilik belgisi. O‘rta umumta’lim tizimida 5-sinfdan boshlab talaffuzning asosiy birligi hisoblangan nutq tovushlari “fonetika” bo‘limi tarkibida tizimli o‘qitila boshlaydi. “Fonetika” ta’limi taqozosiga ko‘ra shu erda o‘quvchilarga nutq tovushlari bilan birga to‘g‘ri talaffuz hamda imlo qoidalarini singdirish talabi ham qo‘yiladi.

O‘zbek adabiy tili turli lahjalardan o‘sib chiqqanligi sababli uning talaffuzi borasida hududlar bilan bog‘liq jiddiy muammolar bor. Maktab “Ona tili” darsliklarini tuzishda, ayniqsa, fonetikaga doir o‘quv materiallarini berishda mualliflar aholi hududiy talaffuzining tilga ta’sirini inobatga olishlari kerak. (Masalan, AQShda har bir shtat uchun alohida darslik yaratilgan.) Shu ma’noda dastur va darsliklar tuzishda orfoepik nuqtai nazardan har bir hududning talaffuzidagi muammolari e’tiborga olinishi lozim. Masalan, Xorazm vohasida ayrim so‘zlar talaffuzida [q] undoshi o‘rnida [k] nutq tovushini qo‘llash ko‘nikmaga aylanib qolgan. Demak, xorazmlik o‘quvchiga adabiy talaffuz me’yorlarini singdirish uchun darslikda berilgan ikkita mashq etarli bo‘lmaydi. Mavzuga monand, ammo darslikdagi o‘quv topshiriqlarini aynan takrorlamaydigan o‘quv topshiriqlarini tuzish, mashqlar tizimini yaratish va ulardan unumli foydalanishni barcha o‘qituvchi ham bir xilda amalga oshiravermaydi.

Toshkent viloyati, xususan, shahar hududida ommaviy tarzda [h] bo‘g‘iz undoshi o‘rnida muntazam [x] chuqur til orqa undoshining ishlatilishi (xandaley, xurmat, xamma va b.), shuningdek, Buxoro, Samardand (shahar hududida), Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining ayrim tumanlarida [o‘] unlisining talaffuzida muammolar borligini aytish mumkin.

Bu borada Samarqand viloyatiga alohida to‘xtalish mumkin. Pastdarg‘om, Urgut va Nurobod tumanlarida [i]–[e] unlilarining aytilishida chalkashliklar borligi kuzatiladi. Xuddi shunday Kattaqo‘g‘on tumanida [o‘]– [u] unlilarining ishlatilishida muammolar mavjud. Mazkur hududda yashovchilar, o‘quvchilar, hatto o‘qituvchilar ham [o‘] unlisini [u], [u] unlisini [o‘]o‘rnida qo‘llaydilar.

Ko‘rinadiki, “Ona tili” darsligida yuqorida keltirilgan nutq tovushlarini o‘zlashtirishga mo‘ljallangan nazariy ma’lumotlar va ularni mustahkamlovchi mashqlar etarli emas. Mazkur nutq tovushlarini sanab o‘tilgan hududlarning o‘quvchilari nutqida adabiy me’yor holatiga keltirish uchun bugungi darslik va qo‘llanmalarda deyarli e’tibor qaratilmagan maxsus fonetik mashqlar, tovushlar talaffuzi jarayonida nutq a’zolarining ko‘rinishi aks etgan alohida oksilografik chizma(rasm)lar ishlab chiqilishiga ehtiyoj seziladi.

Shuningdek, [h] bo‘g‘iz undoshining ko‘pchilikning ham yozma, ham og‘zaki nutqda noto‘g‘ri qo‘llanilayotgani, uni bartaraf etishga qaratilgan sa’y-harakatlarning deyarli sezilmayotgani bu borada zarur tavsiyalar ishlab chiqishni va ularni zudlik bilan amaliyotga tatbiq etishni taqazo etadi.

O‘zbek tilida [o‘] unlisi so‘zning turli o‘rinlarida bir-biridan farqli talaffuz etilishi ma’lum, biroq uni o‘quvchilarga farqlab berish masalasi muammoligicha qolmoqda. [o‘] unlisi talaffuzi bilan bog‘liq nozik jihatlarga aksariyat ona tili darsliklarida e’tibor qaratilmasligi o‘quvchilarimizning adabiy nutq me’yorlarini to‘la o‘zlashtirishlariga soya solib turadi. Oliy ta’limning sohaga tegishli amaldagi darsliklarida mazkur masalaga qisman e’tibor qaratilgan nazariy ma’lumotlar uchraydi, ammo u amaliy jihatdan ishlanmagan. Ta’kidlash kerakki, bugun keng amaliyotda bo‘lgan “Ona tili” darsliklarida [o‘] unlisi talaffuzda farq qilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar misollari bilan keltirilgan. Bu, albatta, ijobiy hodisa, biroq «bir holatda torroq, boshqasida kengroq aytiladi»,

degan izoh o‘quvchiga amaliy jihatdan yordam berishi qiyin. Keltirilgan misollarni o‘qituvchi ko‘magisiz to‘g‘ri talaffuz qilib bo‘lmaydi.

Masalan, torroq aytilishiga ko‘l, kengroq aytilishiga bo‘ri so‘zlari misol tariqasida keltirilgan bo‘lsa-da, bu hamisha ham kutilgan natijani beravermaydi. Shuni inobatga olib, [o‘] unlisi talaffuzi bilan bog‘liq mashqlarga keng o‘rin berish zarur.

Mashq uzluksiz takrorga asoslangandagina samara beradi. O‘quv materiallarining o‘quvchi tomonidan samarali o‘zlashtirilishi takror bilan bog‘liq. Zero, «bilimning onasi takror»dir. Ma’lumki, psixologik nuqtai nazardan inson xotirasi, jumladan, o‘quvchi xotirasi ham muayyan turlarga bo‘linadi. Ma’lumotlarni bir marta o‘qish oddiy xotirada vaqtincha saqlanadi va qisqa muddatda unutiladi. Agar uzluksiz takrorlansa, u doimiy xotiraga o‘tadi.

Mazkur masalaning yana bir jihati borki, har qanday sharoitda ham ona tili o‘qituvchilari mazkur bo‘limni o‘z imkoniyat va salohiyatlaridan kelib chiqib tushuntiradilar. Odatda, o‘quvchi uchun o‘z ona tilining hamma tovushlari ham talaffuz va imloda qiyinchilik tug‘diravermaydi. Mahalliy til hisoblangan sheva ta’sirida ayrim unli va undosh tovushlarning aytilishi hamda yozilishida chalkashliklar, xatolar bo‘lishi mumkin. Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, respublikamizning turli hududlarida o‘quvchilar nutqida, asosan, unlilardan [i] – [e], [o‘] – [u] va undoshlardan [h], [x], [q], ba’zan [j] tovushlari talaffuzida, ba’zan shuning ta’sirida imloda ham xatoga yo‘l qo‘yishadi. Bunday vaziyatlarda amalda qo‘llanilayotgan topshiriq xarakteridagi mashqlar bilan qancha ko‘p ishlansa ham, kutilgan natijaga erishish qiyin kechmoqda.

O‘quvchining og‘zaki nutqi tug‘ilib o‘sgan yeri, oilasi, yaqinlari ta’sirida shakllangan holda maktabga keladi. Ba’zan ularni o‘zlari o‘rganib qolgan holatdan adabiy talaffuz me’yorlari doirasiga o‘tkazish ancha qiyinchilik tug‘diradi. Bunday sharoitda o‘qituvchi, albatta, fonetika o‘qitish jarayonidagi dastlabki faoliyatni hududiy muammolardan kelib chiqqan holda talaffuzi qiyin nutq tovushlari ustida ishlashga qaratishdan boshlashi zarur. Aks holda, ayrim o‘quvchilar balog‘atga etganda ham ba’zi nutq tovushlari talaffuzini eplab ayta olmaydigan bo‘lib qolishadi. Bu kabi “nutqiy kemtiklik” madaniy davralarda o‘quvchiga bir umr xalaqit berishi mumkin. O‘qituvchi o‘z vaqtida og‘zaki nutqida muammolari bor o‘quvchilarga alohida e’tibor berib, maxsus talaffuz mashqlari ustida muntazam ishlasa, muammoga o‘rin qolmasligi aniq. Biroq bu borada maktabning amaldagi didaktik ta’lim vositalari (darslik va qo‘llanmalar)da fonetik mashqlarga maxsus o‘rin ajratish zarur.

Fonetika o‘qitish metodikasi bo‘yicha qilinishi lozim bo‘lgan bir qator muhim vazifalar bor.

Birinchidan, o‘zbek tili o‘qitish metodikasini takomillashtirishda fonetik ta’limga alohida urg‘u berish;

Ikkinchidan, Lingvistikaga doir ilmiy tadqiqotlarda fonetika bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish hamda fonetik ta’lim muammolariga e’tibor qaratish;

Uchunchidan, “Ona tili” darsliklarida uzluksiz va uzviy tarzda talaffuz mashqlarini berib borish;

To‘rtinchidan, bo‘lajak ona tili fani o‘qituvchilarini tayyorlashda ularning adabiy talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantirish va baholash metodikasini ishlab chiqish;

Beshinchidan, o‘zbek tilini davlat tili sifatida, ikkinchi til sifatida o‘qitish uchun tovushlar talaffuzni aniq ifoda qiluvchi shartli, transkripsya belgilarini taklif qilish.

Oltinchidan, chetdan o‘zlashgan va yangi o‘zlashayotgan so‘zlarning talaffuzni ham bir xillashtirish choralarini ko‘rish hamda bu bo‘yicha fonetika o‘qitish metodikasi uchun ham tavsiya ishlab chiqish.

Adabiy talaffuz – madaniyatlilik belgisi, u millatni birlashtiradi. Ta’lim, xususan, ona tili ta’limi fonetikadan, tovushlarni to‘g‘ri o‘rgatishdan boshlanadi. Ota-boblardan meros bo‘lib kelayotgan bu muqaddas tilni avlodlarga bus-butun yetkazishda fonetik ta’limning o‘rni nihoyatda katta,

zero bir tovush noto‘g‘ri talaffuz qilinsa, so‘zning ma’nosi o‘zgarib ketadi va kelajak avlodga tushunarsiz bo‘lib qoladi, ayniqsa, joy nomlari masalasida bu muhimdir. Avvalo oliy ta’lim adabiy talaffuz ko‘nikmasiga ega mohir o‘qituvchini tayyorab bersa, keyin u talaffuz mashqlari kiritilgan darslik va qo‘llanmalar asosida o‘quvchilarga adabiy tilda dars o‘tsa, ular o‘zbek adabiy tilining jozibasini his qiladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida fonetika o‘qitishni samarali bo‘lishiga erishish uchun amaldagi o‘quv materiallarini bu boradagi muammolarni inobatga olgan holda takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Muhimi shuki, o‘quvchida, avvalo, o‘quv soati uchun ajratilgan har bir daqiqadan, darsliklarda berilayotgan har bir ma’lumotdan unumli foydalanish ko‘nikma hamda malakasini shakllantirish va rivojlantirish talab etiladi. O‘quvchiga taqdim etilayotgan o‘quv materiallari birgina muammo yoki mavzu doirasidagina emas, balki birdaniga o‘quvchida ikki yoki uch zaruriy (adabiy talaffuz, imlo savodxonligi, zarur so‘z boyligi va mustaqil ishlash) malakalarini shakllantirishga xizmat qila olsa, ko‘zlangan maqsadga erishish oson bo‘ladi. Masalan, o‘quvchiga til fanining bo‘limlari haqida sof nazariy ma’lumotlarni ketma-ket (Amaldagi birgina 5-sinf darsligida “Bilib oling”, “Esda tuting” shaklida 200dan ortiq sof nazariy qoida va ta’riflar borligini nazada tutyapmiz) taqdim etgandan ko‘ra, ularda to‘g‘ri talaffuz va o‘z fikrini rang-barang shakllarda aniq, ravon va sodda tarzda ifodalay olish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qila oladigan amaliy jihatlarni o‘rgataylik. O‘quvchiga fonetikaga doir biror topshiriq berishda nutq tovushlari haqidagi ma’lumotlarni berish asnosida imkon qadar unda ravon nutq, mazmunli muloqot malakasini, mustaqil ishlay olish ko‘nikmasini shakllantirishga erishish darsning samaradorligini ta’minlaydi. Shu o‘rinda o‘quvchiga tahlil uchun berilgan mashq yoki topshiriq mazmuni oddiy xabar emas, balki hikmatlar, iboralar, tasviriy ifodalar, yashash qoidalariga teng bo‘lgan xalq maqollari, xalq dostonlaridan zarur parchalar shaklida bo‘lsa, bir paytning o‘zida darsning ham ta’limiy, ham tarbiyaviy, ham rivojlantiruvchi maqsadlari amalga oshadi.

Bugungi kunda ta’lim jarayoniga turli yangi pedagogik texnologiyalar tatbiq qilinmoqda. Ilmiy tadqiqotlar natijasida bir qator yangi tipdagi mashq va topshiriqlar amaliyotda sinab ko‘rilmoqda. Jumladan, I. Davronov ning algoritmik mashqlar haqidagi fikr-mulohazalari bu boradagi yangicha yondashuvlardan biridir. Biroq ona tili o‘qitishda shunday mavzular bo‘ladiki, ularning ta’limida didaktik o‘yinlardan ko‘ra an’anaviy amaliy ishlar orqali kerakli natijaga erishish mumkin bo‘ladi. Ta’kidlash kerakki, talaffuzning imloga va, aksincha, yozuvning og‘zaki nutqqa ta’siri bo‘lishi tabiiy. Fan-texnika qanchalik shiddat bilan rivojlanmasin, zamonu zaminlar o‘zgarmasin, baribir insoniyat uchun yozma nutq masalasi hech qachon o‘z mohiyatini yo‘qotmaydi. Shunday ekan, bu masala hamisha ta’limning birinchi darajali muammosi bo‘lib qolaveradi. (Davrimiz kishilarining savodxonlik darajasi bilan maqtanib bo‘lmay qoldi. Maktab partasida o‘tirgan o‘quvchining yozma nutqini imloviy, ishoraviy, uslubiy xatolardan tozalashga o‘qituvchilarning qurbi yetmay qolayotganligini hech bir sabab bilan oqlab bo‘lmaydi.)

O‘quvchilar o‘z ona tili imkoniyatlaridan mahorat bilan samarali foydalansalar, o‘z fikrlarini ta’sirchan, tushunarli bayon qila olsalar, ajdodlardan qolgan boy ilmiy, badiiy merosni chuqur anglash darajasida o‘z tilini bilsalar, ona tili ta’limi o‘z maqsadiga erishgan bo‘ladi. Buning uchun ona tili darslarida foydalaniladigan o‘quv materiallari nihoyatda puxta ishlanishi, ko‘nikmalarni kompleks tarzda shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Bir paytning o‘zida ham talaffuz, ham imlo, ham so‘z boyligini oshirish, qolaversa, mustaqil fikrlashga yo‘naltirishga sharoit yaratish zarurati takrorlash jarayonini taqozo etadi, bu esa nutqiy mahoratni oshiradi.

O‘quvchi nutqiy malakasining shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratuvchi fonetika, orfografiya, orfoepiya, punktuatsiya bo‘limlarini o‘qitishda mashqlardan muntazam foydalanish,

qolgan bo‘limlarni esa topshiriqlar asosida o‘qitish, fikrimizcha, kutilgan natijani beradi.

Avvalo, boshlang‘ich sinf “Ona tili” darsliklarida talaffuz va imlo qoidalarini amaliy singdirishga ko‘proq e’tibor qaratilishi, talaffuz ustida ishlash keyingi sinflarda ham uzluksiz davom ettirilishi lozim. Zero, madaniyatlilikning eng muhim belgisi kishining to‘g‘ri so‘zlay olishi hamda xatosiz yoza bilishidir.

Nutqning ta’sirchan, mazmunli bo‘lishida tilning so‘zdan boshqa ifoda vositalaridan ham o‘rinli va unumli foydalanish lozim. Masalan, xalq maqollari nafaqat “Adabiyot”, balki “Ona tili” darsliklarida ham ko‘proq keltirilsa, foydadan xoli bo‘lmaydi. U «yashash qoidalari» sifatida o‘quvchiga oddiy misolga qaraganda ko‘proq ma’lumot beradi. Xususan, fonetika mavzularini o‘qitishda bu jihatga e’tibor qilish zarurati mavjud. Chunki, fonetika tovushlar talaffuzi bilan bog‘liq bo‘lib, maqollar ma’lum ohangdorlikka egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Фитрат Абдурауф. Танланган асарлар. IV жилд. –Т.: 2006. –Б. 36.
2. Ramazan Q., Qajjumij X. Grammatika. Sarf. O‘rta maktablar ucun darslik. I qism. –T.: Oquvpeddavnasr, 1937.–149 b.
3. Мирзаев И.К. Ўзбек ва рус тиллари грамматикаларида фонетик материалларнинг берилиши ҳақида айрим мулоҳазалар.//ҚарДУ ахборотномаси. 2010. № 5. –Б.61 – 63.
4. Боровков А., Ғуломов А., Маърупов З., Шермуҳаммедов Т. Ўзбек тили грамматикаси. Етти йиллик ва ўрта мактабларнинг 5–6-синфлари учун дарслик. I қисм. Фонетика ва морфология. –Т.: Ўздавнашр, 1946. – 227 б.
5. Ramazan Q., Qajjumij X. Grammatika. I qism. Sarf. O`rta maktablarniŋ 5- 6- sinflari ucun darslik.– T.: Oquv-peddavnashr, 1937. – 126 б.
6. Ғуломов.А.Ғ. //Ўзбекистон совет энциклопедияси. –Т.: 1981. – 394 б.
7. Usman A., Avizov B. Ozbek tili grammatikasi. Birinci bolim. Fonetika va morfologija. Toluqsiz orta va orta maktablar uchun darslik. –T:. Ozdavnaşr, 1939. –235 b.
8. Давронов И. Алгоритмик машқ ва унинг хусусияти. Филология ва усулиёт масалалари. Илмий –усулий мақолалар тўплами. – Бухоро, 2010. – 188-193- б.

“YASSAVIY VA UBAYDIY IJODIDA ZIKR TALQINI: TASAVVUFIY-BADIIY MUSHTARAKLIK”

Murodova Gulchehra Azamat qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ahmad Yassaviy va Ubaydiy ijodida zikr tushunchasining tasavvufiy-badiiy talqini tadqiq etiladi. Zikrning inson ruhiyati, ma’naviy kamoloti, nafs tarbiyasi va ilohiy haqiqatni anglashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Yassaviy hikmatlari hamda Ubaydiy she’riy merosida zikr motivining ifodalanish xususiyatlari, uning ishq, tavba, sabr, ixlos, ma’rifat va ruhiy poklanish kabi tasavvufiy tushunchalar bilan aloqadorligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: zikr, tasavvuf, hikmat, she’riyat, nafs, ma’rifat, ishq, ruhiy kamolot, ilohiy haqiqat.

Аннотация: В данной статье исследуется суфийско-художественная интерпретация понятия зикра в творчестве Ахмада Ясави и Убайди. Анализируется роль зикра в духовном мире человека, его нравственном совершенствовании, воспитании нафса и постижении божественной истины. Освещаются особенности выражения мотива зикра в хикматах Ясави и поэтическом наследии Убайди, а также его связь с такими суфийскими понятиями, как любовь, покаяние, терпение, искренность, познание и духовное очищение.

Ключевые слова: зикр, суфизм, хикмат, поэзия, нафс, познание, любовь, духовное совершенствование, божественная истина.

Abstract: This article examines the Sufi and artistic interpretation of the concept of dhikr in the works of Ahmad Yasawi and Ubaydiy. It analyzes the role of dhikr in the spiritual world of the individual, moral and spiritual development, discipline of the ego (nafs), and comprehension of divine truth. The article also highlights the specific features of the dhikr motif in Yasawi’s Hikmats and Ubaydiy’s poetic heritage, as well as its relationship with such Sufi concepts as love, repentance, patience, sincerity, spiritual knowledge, and spiritual purification.

Keywords: dhikr, Sufism, hikmat, poetry, nafs, spiritual knowledge, divine love, spiritual perfection, divine truth.

Kirish. O‘zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotida tasavvufiy tafakkur alohida ahamiyat kasb etadi. Tasavvuf adabiyoti insonning ichki dunyosini anglash, nafsni tarbiyalash, ruhiy poklanish va ma’naviy yetuklikka intilish kabi masalalarni badiiy ifodalash imkonini berdi. Tasavvuf adabiyotining turkiy xalqlar adabiyotidagi eng muhim namoyandalaridan biri Ahmad Yassaviydir. Shoir hikmatlari xalq tiliga yaqinligi, ta’sirchan ifoda usuli hamda insonni ezgulik sari chorlovchi mazmuni bilan keyingi davr ijodkorlariga katta ta’sir ko‘rsatdi. Yassaviy asos solgan adabiy-ma’naviy an’ana keyingi davrlarda ham davom etdi. Ana shunday ijodkorlardan biri Ubaydiy bo‘lib, uning asarlarida Yassaviyga xos tasavvufiy qarashlar yangi adabiy jarayonda o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘ladi.

Tasavvufshunos olim Ibrohim Haqqulov hikmat janri, uning turlari hamda Ubaydiyning hikmatnavislikdagi o‘rniga quyidagicha izoh beradi: “Hikmat aslida, insonning borliq va ashyolar haqiqatini iqtidori qadar bilish, shunga ko‘ra harakat qilishni o‘rgatuvchi bir ilmdir. Hikmat tabiiy, riyoziy va ilohiy deya uch qismga ajratilgan. Xoja Ahmad Yassaviyning hikmatlari uchinchi turga mansub bo‘lib, uning bosh sharti olam sir-asrorini odamning o‘zini anglashi orqali kashf etishdir. Ubaydiy ham hikmatnavislikda shu yo‘lni tanlagan desak, aslo xato bo‘lmaydi. [1;4-b.]

Ahmad Yassaviyning hikmatnavislik an’anasi uning o‘zidan keyin yetishib chiqqan izdoshlari va Yassaviy maktabidan ta’sirlangan shoirlar ijodida ham izchillikda davom etgan. Qul Ubaydiy

ham o‘z ijodida hikmat janriga murojaat qilganini ayrim baytlarida bevosita ifodalaydi:

Ilmning chavgoni birla ma’rifat maydonida
Hikmat ahli kibi hikmat go‘yini urdim mano. [1;49-b.]

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ilohiy zikr tasavvuf adabiyotidagi markaziy tushunchalardan biri sanaladi. “Zikr” so‘zi arab tilida “eslash”, “yodga olish”, “unutmaslik” va “o‘tgan holatlardan ibrat olish” kabi ma’nolarni bildiradi. Tasavufda zikr oddiy harakatni ifodalamaydi. Har bir tariqatda o‘ziga xos zikr shakllari, nomlari hamda zikr odobi mavjud. Shulardan biri “zikri arra” bo‘lib, yassaviylikda o‘tirib hamda tik turib qilinadigan zikr sanaladi. Zikr qilish davomida Allohni eslash, Uni yodda tutish, g‘aflatdan saqlanish va “La ilaha illalloh” kabi kalimalarni takrorlash muhim. Tasavvufda zikr shuningdek, “Alloh-Alloh”, “Hu-Hu”, “Hay-Hay” kabi iboralarni shayx nazorati ostida jamoaviy tarzda takrorlash shaklida ham amalga oshiriladi. Barcha tasavvufiy tariqatlarda zikr qilish shakllari ikki turga bo‘linadi: oshkora (jahriy) va yashirin (sirli). Oshkora zikr - ya’ni Allohni ovoz chiqarib madh etish shakli boshqa tariqatlarda ham mavjud bo‘lsa-da, Xoja Ahmad Yassaviy yo‘lida alohida ustunlikka ega. Allohni eslashning o‘ziga xos shakli esa “zikr arra” bo‘lib, bu usul faqat Yassaviy maktabiga xos bo‘lib, Yassaviy maktabi vakillarining qarashicha, “Zikr - bu insonni oliy darajaga olib chiquvchi vosita”. Hu - Olloh taoloning ismlaridan biri bo‘lib, 3-shaxs birlikdagi “U” ma’nosini bildiradi. So‘fiylar ko‘proq shu so‘zni takrorlab zikr qiladilar.

“Yassaviylikka ko‘ra, solik zikr chog‘ida zikrulloh shiddatidan terlaydi va undagi tariqat junubi faqatgina ter suvi bilan yuviladi. Tariqat junubi-muriddagi ma’naviy nopoklik. Zikr qilish tariqatning bosh asoslaridan sanalib, sayru suluk martabasidan zikr jarayonisiz o‘tib bo‘lmaydi. Zikr murid qalbidan nafsoniy va shaytoniy vasvasalarni chiqarib tashlab, ko‘nglini poklaydi. ”[2;49]

Qul Xoja Ahmadni ushbu so‘zi orzu erur,
Orzusig‘a yetolmayin qayg‘u yeyur.
Taqlid qilib Hu zikrini oytib yurur,
Hu-Hu desam sohibdilon bo’lg‘oymukin? [3;326]

Allohni zikr qilish mazmunidagi yuqoridagi hikmatning tuzilishiga e’tibor berilsa, uning birinchi uch misrasi yakuniy savolga asos bo‘lib xizmat qiladi. Birinchi misrada “orzu”, ikkinchisida “qayg‘u”, uchinchisida “taqlid” va “Hu zikri”, to‘rtinchisida esa “sohibdil” konseptlari yuzaga keladi. Bular alohida-alohida tushunchalar emas, balki lirik subyektning ruhiy harakatini ifodalovchi yagona zanjirning tarkibiy qismlaridir. Mazkur zanjirni orzu – yetishmaslik – iztirob – zikr – o‘zini tekshirish – sohibdillik tarzida tavsiflash mumkin. “Hu” Allohga ishora qiluvchi tasavvufiy zikr shakli bo‘lsa, “Alloh” bevosita ilohiy Zot nomini bildiradi. Yassaviy poetikasida “Hu” shu tariqa oddiy zikr birligi chegarasidan chiqib, ilohiy murojaat, ruhiy o‘zgarish va ishqiy tajribaning poetik signaliga aylanadi. Birinchi hikmatda bu signal insonni o‘z qalbini tekshirishga undasa, ikkinchisida u qalbni “o‘rtantiruvchi” ichki tajribaga aylanadi. Shuning uchun mazkur ikki matnni birgalikda o‘rganish Yassaviy tasavvufiy poetikasining muhim qonuniyatini — tashqi zikrdan ichki kechinmaga, takrordan ruhiy o‘zgarishga, taqliddan qalbiy idrokka tomon harakatni ochib beradi.

Rahmatidin umid tutsang, Sahar turg‘il,
Kecha yotmay, Kunduz yig‘lab haqni topqil
Ondin so‘ngra arig‘ bo‘lub, nafsni tepgil…
Nafsni tepib, Haqqa qulluq qilmayinmu? [3;335]

Yassaviy Alloh rahmatiga yetishish uchun sahar turib, Haq yodi uchun zikr qilishni afzal biladi. Ushbu mazmun Ubaydiy hikmatlarida quyidagicha:

Yo Hu desam, yo Alloh, kayfiyatimda nogoh,
O‘rtanmakdur ishim, oh, oshiq sahar vaqtinda [1;38-b.]

Xulosa. Yassaviy va Ubaydiy ijodida zikr tasavvufiy tafakkurning muhim tushunchalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Har ikki ijodkor she’riyatida zikr insonning botiniy olamini poklash, nafsni jilovlash, ruhiy kamolotga erishish hamda Haqqa yaqinlashish vositasi sifatida talqin etiladi. Yassaviy hikmatlarida zikr ko‘proq muridning ruhiy tarbiyasi, tavba, sabr, ixlos va nafs bilan kurash jarayoni bilan uzviy bog‘langan holda ifodalanadi. Zikrning muntazam ado etilishi inson qalbini uyg‘otuvchi va uni ma’naviy komillik sari yetaklovchi omil sifatida ko‘rsatiladi. Ubaydiy ijodida esa zikr mazmuni ishq, ma’rifat, tavhid va ilohiy visol g‘oyalari bilan uyg‘unlashadi. Shoir zikr orqali insonning tashqi faoliyatidan ko‘ra ichki kechinmalariga, qalb va ruh holatiga ko‘proq e’tibor qaratadi. Shu jihatdan zikr uning she’riyatida nafaqat diniy-amaliy tushuncha, balki badiiy-falsafiy mazmun kasb etadi. Yassaviy va Ubaydiy ijodida zikr talqinida mushtarak jihatlar bilan bir qatorda individual poetik xususiyatlar ham mavjud. Yassaviyda zikr tariqat va ruhiy tarbiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa, Ubaydiyda uning ishqiy-irfoniy va poetik talqini yanada keng namoyon bo‘ladi. Demak, zikr motivi har ikki ijodkor merosida insonning ma’naviy yuksalishi va ilohiy haqiqatni anglash jarayonini ifodalovchi muhim badiiy vositalardan biridir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Muhammad Hamzaxon Abdullayev, Jamoliddin Abdullayev. Ubaydiy. Hikmatlar. – Toshkent: Movarounnahr, 2020. –165 b.
2. Ҳасан Н. Аҳмад Маҳмуд Ҳазиний (ҳаёти ва ижоди). – Тошкент: ФАН, 2001. – 104 б.
3. Ahmad Yassaviy. Umring yeldek o‘taro. “Muharrir” nashriyoti. 2020.

GENDER KONSEPTINI BADIIY MATNDA KOMPLEKS O‘RGANISH

Shukurova Matluba Xoshimovna
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek badiiy matnida gender konseptining lingvopoetik, lingvomadaniy va lingvokognitiv xususiyatlari yaxlit tizim sifatida tahlil qilinadi. Gender konsepti biologik jinsga oid nominatsiyalar yig‘indisi emas, balki ijtimoiy maqom, madaniy tajriba, aksiologik baho, individual xarakter, kommunikativ vaziyat va mualliflik talqini o‘zaro ta’sirida shakllanadigan dinamik konseptual tuzilma ekanligi asoslanadi. AYOL va ERKAK makrokonseptlarining mazmuniy mikrokonseptlari hamda ularni kesib o‘tuvchi funksional-aksiologik mikromaydonlar tavsiflanadi. Badiiy metafora, o‘xshatish, epitet, frazeologizm, milliy-madaniy predmet va marosim nomlarining gender mazmunini shakllantirishdagi vazifasi misollar asosida ochib beriladi. Shuningdek, gender konseptining mazmuniy, prototipik, freym, syujet va kognitiv-ziddiyat modellari, assotsiativ maydon hamda badiiy matn idrokining psixolingvistik bosqichlari yoritiladi. Tahlil natijasida gender mazmuni lisoniy signal, poetik mexanizm, konseptual farq, aksiologik yo‘nalish va matn funksiyasining o‘zaro munosabatida yuzaga kelishi ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: gender konsepti, gender konseptosferasi, AYOL makrokonsepti, ERKAK makrokonsepti, verbalizator, lingvopoetika, lingvomadaniyat, kognitiv model, assotsiativ maydon, psixolingvistika.

Abstract. The article examines the linguopoetic, linguocultural and linguocognitive realization of the gender concept in Uzbek literary texts. It argues that gender in literary discourse is not limited to biological-sex nominations but emerges through the interaction of social status, cultural experience, axiological evaluation, individual character, communicative situation and authorial interpretation. The paradigmatic structure of the WOMAN and MAN macroconcepts is described through content-based microconcepts and functional-axiological fields. The role of metaphor, simile, epithet, phraseology, culturally marked objects and rituals in constructing gender meanings is analyzed. The article also outlines the semantic, prototypical, frame, plot-based and cognitive-conflict models of gender conceptualization, together with associative and psycholinguistic dimensions of literary interpretation.

Keywords: gender concept, gender conceptual sphere, WOMAN macroconcept, MAN macroconcept, verbalizer, linguopoetics, linguoculture, cognitive model, associative field, psycholinguistics.

Аннотация. В статье рассматриваются лингвопоэтические, лингвокультурологические и лингвокогнитивные особенности реализации гендерного концепта в узбекском художественном тексте. Обосновывается положение о том, что гендерный концепт не сводится к совокупности номинаций биологического пола, а формируется во взаимодействии социального статуса, культурного опыта, аксиологической оценки, индивидуального характера, коммуникативной ситуации и авторской интерпретации. Описывается парадигматическая структура макроконцептов ЖЕНЩИНА и МУЖЧИНА, анализируется роль художественных средств и национально-культурных кодов в формировании гендерного содержания. Особое внимание уделяется когнитивным моделям, ассоциативному полю и психолингвистическим аспектам восприятия художественного текста.

Ключевые слова: гендерный концепт, гендерная концептосфера, макроконцепт, вербализатор, лингвопоэтика, лингвокультура, когнитивная модель, ассоциативное поле.

1. KIRISH (INTRODUCTION)

Zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik paradigma til birliklarini inson tafakkuri, tajribasi, madaniy xotirasi va kommunikativ faoliyati bilan uzviy aloqada o‘rganishni taqozo etmoqda. Bunday yondashuvda badiiy matn faqat estetik shakl yoki axborot uzatish vositasi sifatida emas, balki muayyan jamiyatning qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari va borliq haqidagi tasavvurlarini mujassamlashtiruvchi murakkab konseptual makon sifatida talqin qilinadi. Gender konsepti ana shu makonda til, madaniyat va individual badiiy tafakkur kesishgan nuqtada namoyon bo‘ladi.

Gender va til munosabatini tadqiq etishda genderni o‘zgarmas biologik belgilarga tenglashtirmaslik muhim metodologik shartdir. P. Eckert va S. McConnell-Ginet genderni ijtimoiy amaliyot bilan bog‘liq dinamik kategoriya sifatida izohlaydi [1]. J. Sunderland genderning diskursiv ifodalanishi va ijtimoiy munosabatlar bilan aloqasiga e’tibor qaratadi [2]. Kognitiv tilshunoslikda esa konseptual kategoriyalash, prototip va metaforik tafakkur til birliklari orqali inson tajribasining qanday tashkil etilishini tushuntirishga xizmat qiladi [3; 4].

O‘zbek tilshunosligida konsept, gender, oila, ayol obrazi va badiiy matnning antropotsentrik tahliliga oid izlanishlar muayyan nazariy zamin yaratgan. Biroq o‘zbek badiiy matnidagi AYOL va ERKAK makrokonseptlarining o‘zaro munosabati, ularning paradigmatik verbalizatorlari, poetik qayta ishlanishi, milliy-madaniy kodlanishi va kognitiv modellarini bir tizimda o‘rganish ehtiyoji saqlanib qolmoqda. Mazkur maqolaning dolzarbligi gender konseptini alohida nominatsiyalar doirasida emas, balki badiiy matnning semantik, poetik, madaniy va idrokiy qatlamlari birligida tahlil qilish zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek badiiy matnida gender konseptining lingvopoetik, lingvomadaniy va lingvokognitiv voqelanish mexanizmlarini aniqlash, AYOL va ERKAK makrokonseptlarining tarkibiy munosabatlarini tavsiflash hamda ularni tahlil qilishning izchil modelini asoslashdan iborat. Ushbu maqsad doirasida gender konsepti va gender konseptosferasi farqlanadi; makrokonseptlar tarkibidagi mikrokonseptlar va funksional-aksiologik mikromaydonlar aniqlanadi; poetik vositalarning konseptual hamda baholovchi vazifasi ochib beriladi; milliy-madaniy birliklar va kognitiv modellar tahlil qilinadi.

2. TADQIQOT METODOLOGIYASI (METHODS)

Tadqiqot materiali sifatida o‘zbek she’riy va nasriy matnlarida gender konseptosferasini voqelantiruvchi lisoniy birliklar, shuningdek, dissertatsiyada tahlil qilingan badiiy parchalar va o‘zbek tili milliy-madaniy birliklariga oid assotsiativ lug‘at materiallari olindi. Tahlilda tavsiflash, tasniflash, kontekstual-semantik, komponent, konseptual, lingvopoetik, lingvomadaniy va aksiologik tahlil usullaridan foydalanildi.

Metodologik jihatdan gender konsepti muayyan gender hodisasiga oid bilim, baho va assotsiatsiyalar tuzilmasi sifatida, gender konseptosferasi esa shu konseptlarning o‘zaro bog‘langan, iyerarxik va dinamik milliy-madaniy hamda badiiy tizimi sifatida talqin qilinadi. Shu farqlash tahlil birligini aniqlashda muhim: alohida “ona”, “ota”, “kelin”, “yigit” nominatsiyasi konseptning o‘zi bilan tenglashtirilmaydi, balki uning matnda faollashgan mazmuniy qatlamini ko‘rsatuvchi verbalizator sifatida qaraladi.

Tahlil uch o‘zaro bog‘liq bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda bevosita nominatsiyalar, qarindoshlik nomlari, maqom va faoliyatni bildiruvchi birliklar aniqlanib, AYOL va ERKAK makrokonseptlari doirasida guruhlandi. Ikkinchi bosqichda metafora, o‘xshatish, epitet, frazeologizm, takror, parallelizm, ramz va detal kabi poetik vositalarning kontekstual vazifasi tekshirildi. Uchinchi bosqichda madaniy kodlar, assotsiativ aloqalar, freym va syujet modellari hamda o‘quvchi idroki bilan bog‘liq psixolingvistik jarayonlar umumlashtirildi.

Genderga oid birliklarni aniqlashda uch ma’no qatlami farqlanadi: lug‘aviy-nominativ ma’no,

milliy-madaniy konnotatsiya va konkret matnda yuzaga keladigan individual-estetik ma’no. Masalan, “ro‘mol”, “beshik”, “belbog‘” yoki “chopon” birliklari o‘z-o‘zidan gender belgisi hisoblanmaydi. Ularning genderologik qiymati personaj maqomi, syujet, tarixiy-madaniy muhit va mualliflik yondashuvi bilan bog‘liq holda yuzaga chiqadi. Xuddi shuningdek, badiiy obrazdagi muayyan xususiyatni barcha ayol yoki erkaklarga xos universal belgi sifatida umumlashtirishdan tiyilish metodologik talab sifatida qabul qilindi.

Assotsiativ qatlamni tavsiflashda D. Lutfullayeva, R. Davlatova va B. Tojiboyev tomonidan tuzilgan “O‘zbek tili assotsiativ lug‘ati (milliy-madaniy birliklar)” materiallaridan foydalanish imkoniyati hisobga olindi [5]. Mazkur lug‘atda “ayol” va “erkak” leksemalari bevosita stimul sifatida berilmaganligi sababli, gender aloqalari “alla”, “beshik”, “chimildiq”, “belbog‘”, “angishvona”, “chonon” singari milliy-madaniy stimullar orqali bilvosita kuzatiladi. Shu bois bu materiallar mustaqil yangi tajriba natijasi sifatida emas, mavjud assotsiativ zahirani talqin qilish manbasi sifatida qo‘llanadi.

3. NATIJALAR (RESULTS)

3.1. AYOL va ERKAK makrokonseptlarining paradigmatik tuzilishi

Tahlil natijalari o‘zbek badiiy matnida gender konseptosferasining AYOL va ERKAK makrokonseptlari iyerarxik hamda tarmoqli tuzilishga egaligini ko‘rsatadi. AYOL makrokonseptining mazmuniy mikrokonseptlari qatoriga ona, qiz, xotin/rafiqa, kelin, opa, singil, buvi/momo, qaynona kabi birliklar kiradi. Ular qarindoshlik, yosh, nikoh yoki ijtimoiy maqomni ifodalaydi. Olima, o‘qituvchi, shifokor, shoira, dehqon, chevar, rahbar kabi nominatsiyalar esa ayolning kasbiy va ijtimoiy faoliyatini verbalizatsiya qiladi. Shu tariqa AYOL makrokonsepti faqat oilaviy munosabatlar bilan chegaralanmay, bilim, mehnat, ijod, kasbiy mahorat va mustaqillik belgilarini ham qamrab oladi.

ERKAK makrokonseptining mazmuniy mikrokonseptlari erkak, yigit, ota, o‘g‘il, er, kuyov, aka/uka, bobo/chol singari birliklar orqali voqelanadi. Bu nominatsiyalar umumiy gender belgisidan tashqari yosh, qarindoshlik, nikoh, avlod va ijtimoiy maqomni farqlaydi. Makrokonsept tarkibidagi mas’uliyat, himoya, mehnat, mardlik, g‘urur, sadoqat, vorislik, hissiyot, hukmronlik va ojizlik kabi belgilar esa birgina mikrokonseptga tegishli bo‘lmay, turli mazmuniy uzvlarni kesib o‘tuvchi funksional-aksiologik mikromaydonlarni hosil qiladi.

Mazkur tasnifda mikrokonsept va mikromaydonni farqlash zarur. Mikrokonsept shaxsning muayyan qarindoshlik yoki ijtimoiy maqomini belgilasa, funksional-aksiologik mikromaydon turli maqomlarda takrorlanishi mumkin bo‘lgan faoliyat, xususiyat va baho belgilarini birlashtiradi. Masalan, mehr, sadoqat, mas’uliyat va mehnat ayol yoki erkakka mutlaq tegishli atributlar emas; ular ona, ota, farzand, turmush o‘rtoq yoki boshqa personajlar obrazida turlicha namoyon bo‘lishi mumkin. Demak, ayol va erkak makrokonseptlari ikki yopiq, o‘zaro mutlaq qarama-qarshi semantik tizimni tashkil etmaydi.

Makrokonseptning yadro va periferiyasi ham tayyor, o‘zgarmas ro‘yxat sifatida belgilanmaydi. Yadro nominativ birliklar va matnda takroran faollashadigan belgilar bilan shakllansa, kasb, faoliyat, baholovchi sifatlar va individual xarakterga oid birliklar kontekstga qarab turli periferik qatlamlarni yuzaga chiqaradi. Ijtimoiy tajribadagi o‘zgarishlar esa ayrim periferik belgilarni markazga olib chiqishi mumkin. Shu sababli badiiy matndagi gender tuzilmasi dinamik va ochiq konseptual tizim sifatida talqin qilinadi.

3.2. Gender konseptining lingvopoetik verbalizatsiyasi

Gender mazmuni badiiy matnda bevosita nominatsiyalar bilangina emas, metafora, o‘xshatish, epitet, frazeologizm, mubolag‘a, gradatsiya, antiteza, takror, parallelizm, murojaat, ramz va detal orqali ham shakllanadi. Bu vositalarning vazifasi shunchaki obrazlilikni kuchaytirishdan iborat emas: ular muayyan belgini markazlashtiradi, personajning konseptual maqomini belgilaydi va

mualliflik bahosini yuzaga chiqaradi. Shuning uchun lingvopoetik tahlil lisoniy signal, poetik mexanizm, konseptual talqin, aksiologik yo‘nalish va matn funksiyasi ketma-ketligida olib borilishi lozim.

E. Siddiqovaning “Begim onam, sabr daraxtim” she’rida ona mikrokonsepti fitomorfik metafora asosida shakllanadi. Ona daraxtga, farzandlar uning shoxlaridagi polaponlarga, hayot sinovlari esa daraxtni butaydigan shamollarga qiyoslanadi. Daraxtning ildizga egaligi, bardoshliligi, panoh va avlod davomiyligi bilan bog‘liq belgilari ona obraziga ko‘chiriladi. “To‘rtta fasl gullaydi” ifodasi metafora va mubolag‘ani birlashtirib, onalikni sabr va fidoyilikning yuksak darajasi sifatida poetik ideallashtiradi. Biroq mazkur belgi barcha onalarning tabiiy xususiyati sifatida emas, muayyan muallif yaratgan individual-badiiy model sifatida talqin qilinishi kerak.

Muhammad Yusufning “Ota” she’ridagi “Qabrdan qo‘l cho‘zib turgan qalqonim bor” misrasida ota obrazi “qalqon” metaforasi orqali ifodalanadi. Qalqonning xavfdan saqlash va zarbani qaytarish semalari otaning farzand xotirasida saqlanib qolgan ruhiy tayanchligi bilan bog‘lanadi. Bu yerda an’anaviy “ota – himoyachi” modeli aynan takrorlanmaydi: jismoniy himoya belgisi xotira, sog‘inch va ma’naviy tayanch mazmuniga transformatsiyalanadi. Demak, metafora mavjud gender modelini yangi semantik qatlam bilan boyitadi.

A. Oripovning “Qasam dara” she’ridagi “Qafasdagi sherdan vahshiyroq” o‘xshatishi ovchi personajning muayyan vaziyatdagi ruhiy zo‘riqishi va g‘azabini kuchaytiradi. Zoomorfik etalonning gender qiymati “erkak – tajovuzkor” kabi umumlashtiruvchi hukmni bermaydi; u konkret personaj, vaziyat va mualliflik bahosi bilan belgilanadi. O. Hojiyevaning “Ayol” she’ridagi “Oqshom pari qizday silkitar ro‘mol” misrasida esa o‘xshatish, ro‘mol detali, “bir etak bolasin jamlab quchoqda” hamda “qozonga o‘t yoqar” birliklari ayol va ona obrazining muayyan milliy-madaniy talqinini yaratadi. Bu poetik manzara ham barcha ayollarga xos universal vazifa emas, balki matnda ideallashtirilgan badiiy qiyofadir.

Keltirilgan misollar gender konseptining lingvopoetik voqelanishida kamida uch yo‘nalishni farqlashga imkon beradi: reproduktiv yo‘nalishda mavjud madaniy model estetik qayta ishlanib mustahkamlanadi; transformativ yo‘nalishda tanish modelga yangi belgilar qo‘shilib, uning semantik chegarasi kengayadi; ziddiyatli yo‘nalishda esa stereotipik kutilma personajning real xatti-harakati yoki mualliflik bahosi bilan mos kelmaydi. Shunday qilib, poetik obraz gender stereotipining oddiy nusxasi emas, uni tasdiqlashi, murakkablashtirishi yoki qayta baholashi mumkin.

3.3. Gender konseptosferasining lingvomadaniy qatlamlari

Gender konseptosferasining lingvomadaniy tarkibi qarindoshlik nominatsiyalari, shaxs nomlari, kiyim va predmet detallari, marosim nomlari, makon birliklari, paremiya va frazeologizmlar, murojaat hamda nutqiy etiket birliklari orqali namoyon bo‘ladi. Bunday birliklar milliy xotirada shakllangan bilimlarni faollashtiradi, biroq ularning gender qiymati lug‘aviy ma’nodan avtomatik ravishda kelib chiqmaydi. U personajning maqomi, syujetdagi vazifasi, tarixiy-madaniy muhit va mualliflik pozitsiyasi bilan birgalikda aniqlanadi.

Masalan, “ostona” va “chimildiq” birliklari oddiy makon nomi bo‘lish bilan birga, badiiy kontekstda maqom almashinuvi, nikoh va yangi oilaga kirish bilan bog‘liq ramziy mazmunni faollashtiradi. Ostona qizning ota uyidan kelin sifatida boshqa uyga o‘tishi yoki farzandning mustaqil hayotga chiqishi kabi vaziyatlarda hududlar orasidagi chegara emas, balki yangi ijtimoiy maqomning ramziy nuqtasi sifatida talqin qilinishi mumkin. Chimildiq esa nikoh va yangi oila mazmunini ifodalovchi madaniy makon belgisiga aylanadi.

Murojaat birliklari ham gender konseptosferasining faol qatlamidir. “Opa”, “singlim”, “aka”, “otaxon”, “onaxon”, “buvijon”, “bolam” kabi birliklar genealogik qarindoshlikni bildirish bilan

cheklanmay, hurmat, yosh farqi, mehr, ijtimoiy yaqinlik yoki nasihat munosabatini ifodalashi mumkin. “Singlim” samimiy g‘amxo‘rlikni, “bolam” esa kontekstga ko‘ra mehr, nasihat, hukmronlik yoki kinoyani yuzaga chiqaradi. Demak, bunday etiket birliklarining pragmatik va gender mazmuni intonatsiya, dialogik vaziyat hamda suhbatdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy masofa bilan belgilanadi.

Oila konsepti AYOL va ERKAK makrokonseptlarini bog‘lovchi politsentrik tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi. Uning badiiy gender mazmuni mazmuniy, aksiologik, kommunikativ-pragmatik, milliy-hududiy qatlamlar hamda ziddiyatlar o‘zaro ta’sirida shakllanadi. Oila munosabatlari yaqinlik, o‘zaro yordam, mas’uliyat, hokimiyat va istak bilan bog‘liq modellarni faollashtiradi. “Uy”, “hovli”, “nikoh”, “to‘y”, “chimildiq”, “kelinsalom”, “duo” kabi birliklar oilani faqat makon yoki marosim sifatida emas, balki qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatida badiiy talqin qilishga xizmat qiladi.

3.4. Gender konseptining lingvokognitiv va psixolingvistik modellari

Lingvokognitiv tahlilda lisoniy birlikning lug‘aviy-semantik mazmuni bilan birga, u faollashtiradigan bilim strukturasi va matndagi konseptual aloqalar ham hisobga olinadi. Badiiy gender konseptini tahlil qilishda mazmuniy, prototipik belgili, freym, asar syujeti va kognitiv-ziddiyat modellari farqlanadi. Mazmuniy model ota-farzand, ona-farzand, er-xotin, aka-singil kabi munosabatlarni belgilaydi. Prototipik model madaniy xotirada shakllangan kutilmalarni faollashtiradi, biroq bu kutilmalar barcha personajlar uchun majburiy yoki o‘zgarmas me’yor hisoblanmaydi.

Freym modeli gender maqomini muayyan vaziyat va munosabatlar tarkibida ko‘rsatadi. Masalan, nikoh, farzand tarbiyasi, oilani ta’minlash yoki kelin bo‘lib tushish kabi ssenariylarda ishtirokchilar, ularning maqomi, vazifasi va o‘zaro munosabati faollashadi. Syujet modeli esa mazkur ssenariyning bajarilishi, buzilishi yoki qayta tuzilishini kuzatadi. Kognitiv-ziddiyat modeli personajning kutilgan prototipga mos kelmasligi, ijtimoiy rol va real xatti-harakat o‘rtasidagi tafovut, yoki muallif bahosi bilan personaj o‘z-o‘zini anglashining farqlanishini ochishga imkon beradi.

Shu asosda individual gender farqini tiklash uchun quyidagi izchillik taklif etiladi: nominatsiya – mazmuniy maqom – freym – prototipik belgilar – real xatti-harakat – kognitiv moslik yoki ziddiyat – aksiologik natija. Mazkur ketma-ketlik nominatsiyani tahlilning boshlang‘ich nuqtasi sifatida oladi, biroq xulosani faqat so‘zning lug‘aviy ma’nosiga bog‘lab qo‘ymaydi. Natijada personajning gender mazmuni matn davomida qanday o‘zgarishi, qaysi belgi markazlashishi va mualliflik bahosi qanday shakllanishi aniqlanadi.

Assotsiativ maydon gender konseptosferasining madaniy xotira bilan bog‘liq qatlamini yoritadi. Mavjud o‘zbek assotsiativ lug‘ati materiallari asosida qarindoshlik (ona, ota, buvi, bobo, qiz, yigit, kelin, kuyov), faoliyat (parvarish, kurash, mehnat, duo), marosim (to‘y, nikoh, beshik to‘yi, chilla, kelinsalom, aza), predmet (beshik, belbog‘, chopon, angishvona, surma), hissiy-aksiologik (mehr, hayo, g‘urur, mardlik, or-nomus) va intertekstual assotsiatsiyalarni farqlash mumkin. Assotsiativ reaksiyaning takrorlanishi yoki faolligi muayyan respondentlar guruhining madaniy xotirasidagi bog‘lanishlarni ko‘rsatadi, lekin biologik yoki ontologik mohiyatni belgilamaydi.

Psixolingvistik yondashuv badiiy matnni idrok etishda lisoniy signalning diqqatni faollashtirishi, tasavvur va xotira bilan bog‘lanishi, emotsional-aksiologik baholashni yuzaga chiqarishi hamda kontekstual mazmunni tiklashiga e’tibor qaratadi. Bu yerda psixolingvistik sxema yangi eksperimental natija emas, balki badiiy matn idrokining imkoniyatlarini tavsiflovchi nazariy modeldir. O‘quvchi umumiy-madaniy assotsiatsiyalarni matn kontekstida qayta tashkil etadi; shu jarayonda muallifning individual poetik modeli va personajning lisoniy maqomi bir-biridan farqlanadi.

4. MUHOKAMA (DISCUSSION)

Olingan natijalar gender konseptini faqat ayol va erkak nominatsiyalari yoki ularga an’anaviy tarzda biriktirilgan sifatlar orqali izohlash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Badiiy matnda gender mazmuni nominatsiya, ijtimoiy maqom, faoliyat, madaniy belgi, aksiologik baho, individual xarakter va vaziyatning o‘zaro ta’sirida shakllanadi. Shu jihatdan konsept va konseptosfera o‘rtasidagi farq tahlilning nazariy aniqligini ta’minlaydi: birinchisi muayyan hodisaga oid bilim va baholar tuzilmasi bo‘lsa, ikkinchisi bunday tuzilmalarning o‘zaro bog‘langan tizimidir.

AYOL va ERKAK makrokonseptlarining paradigmatik tuzilishi ham qat’iy binar qarama-qarshilikka asoslanmaydi. Mehr, muhabbat, sadoqat, mas’uliyat, mehnat, himoya, dard, sabr, jasorat, qo‘rquv singari belgilar bir makrokonseptning mutlaq mulki emas. Ular turli personajlarda turlicha namoyon bo‘lishi, ayrim hollarda stereotipik kutilmani tasdiqlashi, boshqa hollarda esa uni o‘zgartirishi mumkin. Shu sababli gender stereotipi empirik haqiqat yoki biologik mohiyat sifatida emas, matnda tasdiqlanishi, murakkablashishi yoki qayta baholanishi mumkin bo‘lgan madaniy-konseptual model sifatida qaralishi lozim.

Lingvopoetik va lingvomadaniy tahlilning o‘zaro to‘ldiruvchanligi ham muhim. Lingvopoetik yondashuv badiiy shaklning konseptual vazifasini, ya’ni metafora, o‘xshatish, epitet va boshqa vositalar orqali qaysi belgi markazlashtirilishini aniqlaydi. Lingvomadaniy yondashuv esa shu shakl ortida turgan umumiy tajriba, tarixiy xotira, urf-odat va qadriyatlarni ochadi. Biroq madaniy detalning mavjudligi uni avtomatik ravishda gender belgisi deb baholashga asos bo‘lmaydi; bunday xulosa kontekst, maqom, baho va syujet bilan tekshirilishi kerak.

Kognitiv modellar gender konseptining matn ichidagi dinamikasini ko‘rsatadi. Nominatsiya va prototip personaj haqidagi dastlabki kutilmani yuzaga keltirsa, real xatti-harakat va syujet rivoji ushbu kutilmani tasdiqlashi yoki unga zid kelishi mumkin. Aynan shu ziddiyat badiiy obrazning individual-estetik mazmunini kuchaytiradi. Assotsiativ va psixolingvistik qatlamlar esa o‘quvchining matnni anglash jarayonida umumiy madaniy bilimlarni qanday faollashtirishi va qayta talqin qilishini izohlash imkonini beradi.

Tadqiqotning muhim metodologik chegarasi shundaki, mavjud assotsiativ lug‘atdagi materiallar ayol va erkak leksemalariga bevosita berilgan stimul-javob tajribasi emas. Shu bois ulardan gender konseptining to‘liq psixolingvistik portretini yaratish uchun emas, balki milliy-madaniy stimullar bilan bog‘liq assotsiativ qatlamni bilvosita tavsiflash uchun foydalanish mumkin. Xuddi shuningdek, badiiy matndagi alohida obrazlardan butun jamiyat yoki barcha ayol-erkaklarga xos qat’iy xulosa chiqarish metodologik jihatdan asosli emas. Kelgusidagi tadqiqotlarda turli janr, davr va mualliflar korpusini qiyoslash, shuningdek, bevosita assotsiativ tajriba materiallari bilan badiiy tahlil natijalarini solishtirish istiqbolli yo‘nalish bo‘la oladi.

5. XULOSA (CONCLUSION)

O‘zbek badiiy matnida gender konsepti biologik jinsga oid nominatsiyalar yig‘indisi emas, balki lisoniy, ijtimoiy-madaniy, aksiologik, kognitiv va individual-badiiy omillar ta’sirida shakllanadigan dinamik konseptual tuzilma ekanligi aniqlandi. Gender konsepti muayyan gender hodisasiga oid bilim va baholash tizimini, gender konseptosferasi esa AYOL va ERKAK makrokonseptlari hamda ularga aloqador mikrokonsept va mikromaydonlarning o‘zaro bog‘langan tizimini ifodalaydi.

AYOL makrokonsepti ona, qiz, xotin/rafiqa, kelin, opa, singil, buvi/momo kabi mazmuniy mikrokonseptlar; ERKAK makrokonsepti esa ota, o‘g‘il, er, kuyov, aka/uka, bobo/chol kabi mikrokonseptlar orqali voqelanadi. Mehr, sadoqat, mas’uliyat, himoya, mehnat, matonat, mardlik, hissiylik va ojizlik singari belgilar turli mikrokonseptlarni kesib o‘tuvchi funksional-aksiologik mikromaydonlarni hosil qiladi. Bu belgilarni bir jinsga mutlaq biriktirish mumkin emas.

Gender konseptining lingvopoetik voqelanishi lisoniy signal – poetik mexanizm – konseptual

farq – aksiologik yo‘nalish – matn funksiyasi munosabatida yuzaga keladi. Metafora, o‘xshatish, epitet va frazeologik birliklar mavjud gender modelini takrorlashi, transformatsiyalashi yoki ziddiyatga kiritishi mumkin. Badiiy obrazni stereotip bilan tenglashtirmaslik, mualliflik talqini va personaj nutqini farqlash tahlilning muhim shartidir.

Lingvomadaniy qatlam qarindoshlik nomlari, predmet va kiyim detallari, marosimlar, makon birliklari, murojaat va etiket shakllari orqali namoyon bo‘ladi. Ularning gender qiymati tarixiy-madaniy kod, personaj maqomi, kommunikativ vaziyat va badiiy funksiya tutashuvida belgilanadi. Oila konsepti esa AYOL va ERKAK makrokonseptlarini mazmuniy, aksiologik, kommunikativ-pragmatik va milliy-hududiy qatlamlar orqali birlashtiruvchi politsentrik tizimdir.

Lingvokognitiv tahlilda mazmuniy, prototipik, freym, syujet va kognitiv-ziddiyat modellari gender mazmunining matn davomida rivojlanishini ochadi. Nominatsiya – maqom – freym – prototipik belgi – real xatti-harakat – kognitiv moslik yoki ziddiyat – aksiologik natija ketma-ketligi individual gender obrazini izchil tahlil qilish imkonini beradi. Assotsiativ va psixolingvistik qatlamlar esa umumiy madaniy xotira bilan individual badiiy idrokning o‘zaro munosabatini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, gender konseptini badiiy matnda kompleks o‘rganish til, madaniyat, poetik tafakkur va idrok jarayonlarini yagona tahliliy maydonda birlashtirishni talab etadi. Taklif etilgan yondashuv o‘zbek badiiy matnidagi gender mazmunini stereotipik umumlashtirishlardan xoli, kontekstual va ko‘p sathli tarzda tadqiq etish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Eckert P., McConnell-Ginet S. Language and Gender. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2013. – 331 p.

2. Sunderland J. Gendered Discourses. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2004. – 231 p.

3. Lakoff G. Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind. – Chicago: University of Chicago Press, 1987. – 330 p.

4. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 2003. – 296 p.

5. Lutfullayeva D., Davlatova R., Tojiboyev B. O‘zbek tili assotsiativ lug‘ati (milliy-madaniy birliklar). – Toshkent: Navoiy universiteti, 2019. – 334 b.

6. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 92 b.

7. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: Fan, 2008. – 320 b.

8. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. – 136 b.

9. Stockwell P. Cognitive Poetics: An Introduction. 2nd ed. – New York: Routledge, 2020. – 294 p.

10. Gavins J. Text World Theory: An Introduction. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2007. – 226 p.

11. Holmes J., Meyerhoff M. (eds.). The Handbook of Language and Gender. – Oxford: Blackwell, 2003. – 542 p.

12. Shukurova M.X. Badiiy matnda gender konsepti: lingvopoetik, lingvomadaniy, lingvokognitiv yondashuv. Filol. fan. doktori (DSc) diss. – Toshkent, 2026.

O‘ZBEK BOLALAR NASRIDA HIKOYA JANRINING BADIIY XUSUSIYATLARI VA UNI O‘QITISHDA ADABIY TAHLIL TAMOYILLARI

Nusratova Hamida Cho‘liboyevna
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti professori, PhD.

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek bolalar nasrida hikoya janrining badiiy-estetik xususiyatlari, janrning shakllanishi va taraqqiyot tendensiyalari hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga hikoyalarni adabiy tahlil asosida o‘rgatishning nazariy-metodik jihatlari tadqiq etiladi. Hikoya janrining kompozitsion yaxlitligi, syujet qurilishi, obrazlar tizimi, xarakterlar dinamikasi va badiiy konfliktning o‘ziga xos xususiyatlari adabiy ta’lim nuqtayi nazaridan yoritiladi. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida badiiy matnni idrok etish, qahramonlar xatti-harakatlariga munosabat bildirish, matnga tayanib mustaqil fikrlash va dastlabki adabiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirishning samarali metodik tamoyillari asoslab beriladi. Hikoya janrini o‘rgatishda estetik idrok, yosh xususiyatlariga mos yondashuv, muammoli savollar, matniy tahlil va ijodiy topshiriqlarning o‘zaro uyg‘unligi muhim metodik omil sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek bolalar nasri, hikoya janri, adabiy tahlil, estetik idrok, badiiy obraz, syujet, kompozitsiya, boshlang‘ich ta’lim, adabiy kompetensiya, badiiy tafakkur, metodik yondashuv.

Аннотация. В статье исследуются художественно-эстетические особенности жанра рассказа в узбекской детской прозе, тенденции его становления и развития, а также теоретические и методические аспекты преподавания рассказа на основе литературного анализа в начальных классах. Рассматриваются композиционная целостность рассказа, особенности сюжетной организации, система образов, динамика характеров и художественный конфликт с точки зрения литературного образования. Особое внимание уделяется формированию у младших школьников навыков эстетического восприятия художественного текста, оценки поступков персонажей, самостоятельного мышления на основе текста и первоначального литературного анализа. Обосновывается значимость сочетания эстетического восприятия, возрастного подхода, проблемных вопросов, текстового анализа и творческих заданий в процессе обучения рассказу.

Ключевые слова: узбекская детская проза, жанр рассказа, литературный анализ, эстетическое восприятие, художественный образ, сюжет, композиция, начальное образование, литературная компетенция, художественное мышление, методический подход.

Abstract. This article examines the artistic and aesthetic features of the short story genre in Uzbek children’s prose, its development, and the theoretical and methodological foundations of teaching short stories through literary analysis in primary education. It explores the compositional unity, plot structure, character system, character development, and artistic conflict of short stories from the perspective of literary education. Particular attention is paid to developing primary school students’ aesthetic perception, their ability to evaluate characters’ actions, think independently based on textual evidence, and acquire initial literary analysis skills. The article substantiates the importance of integrating age-appropriate instruction, aesthetic perception, problem-based questions, text-based analysis, and creative tasks into the teaching process.

Keywords: Uzbek children’s prose, short story genre, literary analysis, aesthetic perception, literary character, plot, composition, primary education, literary competence, artistic thinking, teaching methodology.

Jahon adabiyotshunosligida nasriy janrlarning shakllanishi, tarixiy taraqqiyoti, poetik

xususiyatlari hamda badiiy tafakkur rivojiga ko‘rsatgan ta’sirini o‘rganish adabiyotshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, kichik epik janrlarning badiiy imkoniyatlarini tadqiq etish, ularda inson va jamiyat munosabatlari, ijtimoiy muhit, ma’naviy qadriyatlar hamda inson xarakterining badiiy ifodalanish mexanizmlarini aniqlash nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda bolalar nasri, ayniqsa, hikoya janri alohida o‘rin tutadi. Chunki bolalar uchun yaratilgan hikoyalar yosh kitobxonning nafaqat bilim va dunyoqarashini kengaytiradi, balki uning estetik didi, hissiy olami, axloqiy qarashlari va mustaqil fikrlash qobiliyatining shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbek bolalar adabiyotida hikoya janri yosh avlodning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni badiiy talqin etish, bolalarning hayotiy tajribasini boyitish va ularni ijtimoiy munosabatlarni anglashga yo‘naltirishda muhim vosita hisoblanadi. Bolalar hikoyalarida kundalik hayot voqealari, oilaviy munosabatlar, do‘stlik, mehr-oqibat, tabiatga munosabat, insonparvarlik, mas’uliyat va vatanparvarlik kabi mavzular ixcham syujet hamda ta’sirchan obrazlar vositasida yoritiladi.

Hikoya janrining badiiy imkoniyatlarini ta’lim jarayoniga samarali tatbiq etish esa asar mazmunini oddiy qayta hikoyalash bilan cheklanib qolmasdan, uning estetik mohiyatini anglash, obrazlar xarakterini tahlil qilish, muallif pozitsiyasini aniqlash va badiiy detallar vazifasini tushunishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich sinflarda hikoya janrini adabiy tahlil asosida o‘rgatish o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning badiiy tafakkuri va adabiy kompetensiyasini shakllantirishning muhim sharti sanaladi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, boshlang‘ich ta’lim bosqichida badiiy matnni o‘qish, tushunish va tahlil qilish jarayonlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish, o‘quvchilarni tayyor xulosalarni qabul qiluvchi tinglovchidan mustaqil fikrlovchi va estetik munosabat bildira oladigan kitobxonga aylantirish zarurati mavjud. Bunda hikoya janrining kompozitsion xususiyatlari, obrazlar tizimi va badiiy g‘oyasini o‘quvchilarning yosh hamda psixologik imkoniyatlariga mos ravishda o‘rgatish muhim metodik vazifa hisoblanadi.

Maqolaning maqsadi — o‘zbek bolalar nasrida hikoya janrining badiiy-estetik xususiyatlarini yoritish hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida adabiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqish uchun zarur yondashuvlarni tizimlashtirishdan iborat.

Maqolaning vazifalari - hikoya janrining adabiy-nazariy xususiyatlarini tavsiflash, o‘zbek bolalar nasrida hikoya janrining tarbiyaviy va estetik imkoniyatlarini yoritish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining badiiy matnni idrok etish xususiyatlarini hisobga olgan holda adabiy tahlil tamoyillarini belgilash, hikoyani o‘rgatishda syujet, kompozitsiya, obraz va badiiy g‘oya tahlilining o‘zaro aloqadorligini asoslash, adabiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik usullarni tavsiflashdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada adabiyotshunoslik va ta’lim metodikasi doirasidagi nazariy yondashuvlarga asoslanildi. Hikoya janrining badiiy xususiyatlarini yoritishda tavsifiy-tahliliy, qiyosiy tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Adabiy tahlilning ta’lim jarayonidagi imkoniyatlarini ochib berishda pedagogik kuzatish va metodik talqin tamoyillariga tayanuvchi nazariy yondashuv qo‘llanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini badiiy asarni shakl va mazmun birligi sifatida o‘rganish, badiiy obrazning estetik mohiyatini aniqlash hamda ta’lim oluvchining yosh xususiyatlarini hisobga olish tamoyillari tashkil etadi. Maqola nazariy-metodik xarakterga ega bo‘lib, unda tajriba-sinov natijalari yoki statistik ko‘rsatkichlar keltirilmaydi.

Natijalar va muhokama

Hikoya janrining nazariy-badiiy xususiyatlari. Hikoya badiiy adabiyotning kichik epik janrlaridan biri bo‘lib, unda hayotiy voqea-hodisalar, inson xarakteri va ijtimoiy munosabatlar nisbatan ixcham shaklda badiiy ifodalanadi. Hikoyaning janr sifatidagi muhim xususiyati voqelikning muayyan bir jihatini tanlab olish, uni kompozitsion jihatdan yaxlit shaklda tasvirlash va badiiy g‘oyani cheklangan syujet doirasida ochib berishdan iborat. Erkin Xudoyberdiyevning adabiyotshunoslikka oid qarashlari doirasida badiiy asarning janriy tabiati va shakliy xususiyatlarini uning mazmuni bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Hikoyada voqealar rivoji, qahramonlarning xatti-harakati, muayyan hayotiy vaziyat va uning natijasi markaziy o‘rinni egallaydi. Biroq hikoyaning badiiy qiymati faqat voqeaning ixcham bayon etilishi bilan belgilanmaydi. Unda muallifning voqelikka munosabati, tasviriy vositalardan foydalanish mahorati, qahramon ruhiyatini ochish usullari va o‘quvchida estetik taassurot uyg‘otish imkoniyatlari ham muhim mezon hisoblanadi.

Hikoya kompozitsiyasi, odatda, voqea boshlanishi, rivoji, muayyan ziddiyatning yuzaga kelishi va badiiy yakun kabi unsurlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Biroq bu unsurlar barcha hikoyalarda bir xil ketma-ketlikda namoyon bo‘lmaydi. Ayrim asarlarda voqea bevosita ziddiyatli vaziyatdan boshlansa, boshqalarida qahramonning ruhiy holati yoki muayyan manzara orqali badiiy mazmun shakllantiriladi. Shu sababli hikoyani o‘rganishda uni oldindan belgilangan qolipga majburan moslashtirish emas, balki muallif tanlagan kompozitsion yechimning badiiy vazifasini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Bolalar hikoyalarida mazmunning yosh kitobxon idrokiga mos tarzda tashkil etilishi alohida ahamiyatga ega. Voqealarning tushunarli bayon qilinishi, qahramonlarning aniq xatti-harakatlar orqali tavsiflanishi, hayotiy vaziyatlarning bolalar tajribasiga yaqinligi asarning ta’sirchanligini oshiradi. Shu bilan birga, bolalar adabiyotini faqat axloqiy nasihat vositasi sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas. Uning estetik vazifasi ham muhim bo‘lib, badiiy obrazlar, tasviriy vositalar, syujet va muallif uslubi orqali bolada go‘zallikni his etish, voqelikni mustaqil anglash va hissiy munosabat bildirish qobiliyatini rivojlantiradi.

O‘zbek bolalar nasrida hikoya janrining badiiy-tarbiyaviy imkoniyatlari.

O‘zbek bolalar adabiyoti tarixiy taraqqiyot davomida xalq og‘zaki ijodi, mumtoz yozma adabiyot va zamonaviy badiiy tafakkur an’analari bilan uzviy aloqada rivojlangan. Xalq ertaklari, rivoyatlar, maqollar va hikmatli hikoyatlar yosh avlodni hayotiy tajriba, axloqiy qarashlar hamda milliy qadriyatlar bilan tanishtirishda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan. Kaykovusning “Qobusnoma”, Sa’diyning “Guliston” va “Bo‘ston”, Jomiyning “Bahoriston” kabi asarlaridagi pand-nasihat mazmunidagi hikoyatlar Sharq yozma adabiyotida yosh avlod tarbiyasiga xizmat qilgan muhim an’analarni namoyon etadi. Ushbu asarlarni zamonaviy bolalar adabiyoti bilan aynan bir janriy hodisa sifatida tenglashtirishdan ko‘ra, ularni bolalar adabiyotining ma’naviy-ma’rifiy ildizlari bilan bog‘liq adabiy meros sifatida o‘rganish ilmiy jihatdan asosliroqdir.

Zamonaviy o‘zbek bolalar nasrida Hakim Nazir, Nosir Fozilov, Xudoyberdi To‘xtaboyev, Farhod Musajon, Safar Barnoyev, Abdusaid Ko‘chimov, Anvar Obidjon va boshqa ijodkorlarning asarlari yosh kitobxonning ma’naviy olami, qiziqishlari va hayotiy tasavvurlarini badiiy aks ettirishi bilan ajralib turadi. Ularning ijodida bolalarning kundalik hayoti, oila va maktab muhiti, tengdoshlar o‘rtasidagi munosabatlar, tabiatga mehr, do‘stlik, mas’uliyat va insoniy fazilatlar turli badiiy shakllarda ifodalanadi.

Bolalar hikoyalarining tarbiyaviy imkoniyati, avvalo, qahramonlar faoliyati va ular duch keladigan hayotiy vaziyatlar orqali namoyon bo‘ladi. Qahramonning tanlovi, qarori va xatti-harakati kitobxonni voqea mohiyatini anglashga, uning sabab va oqibatlari haqida fikr yuritishga

undaydi. Bunda muallifning tayyor axloqiy xulosani bevosita bayon qilishi shart emas. Aksincha, qahramonning ichki kechinmalari va voqealar rivoji orqali yuzaga keladigan badiiy xulosa o‘quvchining mustaqil fikrlashiga keng imkoniyat yaratadi. Masalan, Shodmonbek Otaboyevning “Itolg‘i” hikoyasida inson va tabiat munosabatlari, jonivorlarga mehr, erkinlik va mas’uliyat masalalari badiiy vaziyat orqali yoritiladi. Asarda Shavkatning itolg‘i qushini qo‘lga o‘rgatish va undan foydalanish istagi bilan qushning erkin yashash ehtiyoji o‘rtasidagi ziddiyat hikoyaning mazmuniy markazini tashkil etadi. Qahramonning dastlabki qarashlari va keyinchalik yuzaga kelgan anglash jarayoni uning xarakteridagi o‘zgarishni ko‘rsatadi.

Mazkur hikoyani adabiy tahlil asosida o‘rganishda o‘quvchilar e’tiborini faqat qushning ozodlikka chiqarilishiga emas, balki Shavkatning qaroriga olib kelgan ruhiy va axloqiy omillarga qaratish lozim. “Shavkat nima sababdan qushni qafasdan ozod qildi?”, “Qahramonning munosabati voqealar davomida qanday o‘zgardi?”, “Erkinlik tushunchasi hikoyada qanday badiiy vazifa bajarmoqda?” kabi savollar o‘quvchilarning matn ustida mustaqil fikr yuritishiga yordam beradi. Shu jihatdan, hikoya janri bolalar ta’limida nafaqat axloqiy tarbiya, balki badiiy tafakkur, empatiya, sabab-oqibat munosabatlarini anglash va mustaqil baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ham samarali didaktik imkoniyatlarga ega.

Boshlang‘ich sinflarda adabiy tahlilning nazariy-metodik asoslari. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchining o‘qish, tushunish, og‘zaki va yozma nutq, mustaqil fikrlash hamda estetik idrok ko‘nikmalari shakllanadigan muhim davr hisoblanadi. Mazkur bosqichda badiiy asarni o‘rganish jarayoni o‘quvchining yosh va psixologik xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilishi zarur. O‘quvchilarning badiiy matnni qabul qilishi, obrazlarni tasavvur etishi va voqealarga munosabat bildirish qobiliyati bosqichma-bosqich rivojlanadi.

Adabiy tahlil badiiy asarning mazmunini qayta hikoya qilish bilan cheklanmaydi. U asarning g‘oyaviy-badiiy yaxlitligini anglash, obrazlarning o‘zaro munosabatlarini aniqlash, syujet va kompozitsiya xususiyatlarini tushunish, muallifning badiiy niyatini matn asosida izohlash hamda asarning estetik ta’sirini idrok etish jarayonini qamrab oladi. Shu sababli boshlang‘ich sinflarda adabiy tahlilni o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga muvofiq soddadan murakkabga qarab tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi sinfda asosiy e’tibor matnni tinglash va o‘qish, voqealar ketma-ketligini anglash, qahramonlarni tanish hamda ularning xatti-harakatlariga sodda munosabat bildirishga qaratiladi. Ikkinchi sinfda qahramonlarning xususiyatlarini matndagi voqealar bilan bog‘lash, asosiy va ikkinchi darajali voqealarni farqlash, hikoyaning mazmunini izchil bayon etish ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Uchinchi sinfda qahramonlarning xatti-harakatlari sabablarini aniqlash, voqealar o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini tushuntirish va asarning asosiy g‘oyasini belgilashga e’tibor kuchaytiriladi. To‘rtinchi sinfda esa o‘quvchilarni matnning badiiy xususiyatlarini izohlash, qahramonlarning qarorlarini dalillar asosida baholash, muallif munosabatini aniqlash va mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltirish mumkin.

Bu taqsimot metodik tavsiya xarakteriga ega bo‘lib, o‘quvchilarning individual tayyorgarligi va amaldagi o‘quv dasturiga qarab moslashtirilishi lozim.

Boshlang‘ich sinflarda hikoya janrini o‘rgatish quyidagi metodik tamoyillarga tayanishi mumkin:

Yoshga moslik tamoyili. Badiiy matnning mazmuni, til xususiyatlari va tahlil topshiriqlari o‘quvchilarning yoshiga, bilish imkoniyatlariga va o‘qish tajribasiga muvofiq tanlanishi kerak.

Badiiy matnga tayanish tamoyili. Har qanday tahliliy fikr, qahramonga berilgan tavsif va chiqarilgan xulosa asardagi muayyan voqea, dialog yoki badiiy detal bilan asoslanishi lozim. Bu yondashuv o‘quvchida matnni diqqat bilan o‘qish va dalillar asosida fikr bildirish malakasini rivojlantiradi.

Shakl va mazmun birligi tamoyili. Hikoyaning g‘oyaviy mazmuni uning syujeti, kompozitsiyasi, obrazlari, badiiy tili va tasviriy vositalari bilan uzviy aloqada o‘rganilishi kerak. Bunda badiiy shaklni mazmundan ajratib, faqat nazariy atamalarni yodlatishdan qochish zarur.

Faollik va mustaqil fikrlash tamoyili. O‘quvchi dars jarayonida tayyor xulosalarni qabul qiluvchi emas, balki savol beruvchi, kuzatuvchi, tahlil qiluvchi va o‘z fikrini asoslovchi faol ishtirokchi bo‘lishi lozim.

Estetik idrok tamoyili. Hikoyani o‘rganishda o‘quvchining asardan olgan hissiy taassuroti, badiiy manzarani tasavvur qilishi, qahramonlar kechinmalarini anglashi va asarga nisbatan shaxsiy munosabati e’tiborga olinishi zarur.

Mazkur tamoyillar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning uyg‘un qo‘llanishi hikoyani o‘rgatish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Hikoya janrini adabiy tahlil asosida o‘rgatish bosqichlari. Hikoyani adabiy tahlil asosida o‘rgatishda dars jarayonini o‘zaro aloqador bosqichlar asosida tashkil etish mumkin. Ushbu bosqichlar qat’iy va o‘zgarmas qolip emas, balki o‘qituvchiga dars maqsadi hamda matn xususiyatlariga ko‘ra moslashtirish imkonini beruvchi metodik modeldir.

Birinchi bosqich — matnni idrok etishga tayyorlash. Ushbu bosqichda o‘quvchilarda asar mavzusiga nisbatan qiziqish uyg‘otiladi, matnda uchrashi mumkin bo‘lgan tushunarsiz so‘zlar izohlanadi va mavzuga doir dastlabki tasavvurlar faollashtiriladi. Bunda rasm, suhbat, muammoli savol yoki hayotiy vaziyatdan foydalanish mumkin. Tayyorlov jarayoni asarning asosiy mazmunini oldindan ochib berishga emas, balki o‘quvchini mustaqil idrokka yo‘naltirishga xizmat qilishi kerak.

Ikkinchi bosqich — ifodali o‘qish va dastlabki taassurotni aniqlash. Hikoya o‘qituvchi yoki o‘quvchilar tomonidan ifodali o‘qiladi. Zarur hollarda matn qismlarga ajratilib, mazmuniy pauzalar orqali o‘qish tashkil etiladi. O‘qishdan so‘ng o‘quvchilarning dastlabki taassurotlari tinglanadi. “Hikoyaning qaysi qismi sizda kuchli taassurot qoldirdi?”, “Qaysi qahramon sizning e’tiboringizni tortdi?” kabi savollar orqali o‘quvchilarning hissiy munosabati aniqlanadi.

Uchinchi bosqich — syujet va kompozitsiyani o‘rganish. Bu jarayonda o‘quvchilar voqealar ketma-ketligini aniqlaydilar, asosiy voqeani ikkinchi darajali tafsilotlardan farqlaydilar, ziddiyatning yuzaga kelishi va rivojlanishini kuzatadilar. O‘quvchilarning yoshiga qarab voqealar zanjiri, syujet xaritasi yoki rasmli ketma-ketlikdan foydalanish mumkin.

To‘rtinchi bosqich — obrazlar tizimi va xarakter tahlili. Hikoya qahramonlarining tashqi xatti-harakatlari, nutqi, qarorlari va boshqa obrazlar bilan munosabatlari o‘rganiladi. O‘quvchilar qahramon xarakteriga baho berishda matndan dalil keltirishga yo‘naltiriladi. Bu bosqichda qahramonning o‘zgarishi, uning qarorlariga ta’sir ko‘rsatgan omillar va asardagi ziddiyatning mohiyatini aniqlash muhimdir.

Beshinchi bosqich — badiiy g‘oya va muallif pozitsiyasini anglash. O‘quvchilar asarda qanday hayotiy masala ko‘tarilganini, voqealar orqali qanday fikr ilgari surilganini va muallifning munosabati qaysi badiiy vositalar orqali ifodalanganini aniqlashga o‘rgatiladi. Bu jarayonda o‘qituvchi tayyor axloqiy xulosa berish o‘rniga, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga imkon yaratishi zarur.

Oltinchi bosqich — umumlashtirish va ijodiy faoliyat. Yakuniy bosqichda o‘quvchilar asar yuzasidan xulosa chiqaradilar, qahramonlarga munosabatlarini asoslaydilar va hikoya mazmunini boshqa hayotiy vaziyatlar bilan bog‘laydilar. Ijodiy topshiriqlar sifatida hikoyaga boshqa sarlavha qo‘yish, qahramon nomidan qisqa kundalik yozish, voqeaga muqobil yakun taklif etish yoki hikoya asosida rasm chizishdan foydalanish mumkin.

Ushbu bosqichlarning izchil amalga oshirilishi o‘quvchilarda badiiy matnni idrok etishdan

boshlab, mustaqil tahlil va umumlashtirishgacha bo‘lgan ko‘nikmalarning rivojlanishiga metodik zamin yaratadi.

Adabiy tahlil va talqin munosabati. Adabiyotshunoslikda tahlil va talqin tushunchalari badiiy asarni anglashning o‘zaro uzviy bog‘liq jihatlari hisoblanadi. Tahlil badiiy matnning tarkibiy qismlari, obrazlar tizimi, syujet, kompozitsiya, til va tasviriy vositalarini o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, talqin asarning mazmun-mohiyatini tushunish, uning badiiy g‘oyasini izohlash va muallifning estetik pozitsiyasini anglash bilan bog‘liqdir.

Tahlil jarayonida badiiy asar muayyan tarkibiy unsurlarga ajratilib o‘rganiladi, biroq bu jarayon asarning yaxlitligini yo‘qotmasligi lozim. Aksincha, tahlilning asosiy vazifasi alohida badiiy unsurlarning umumiy g‘oyaviy-estetik mazmunni shakllantirishdagi vazifasini ochib berishdan iborat. Talqin esa tahlil natijalarini umumlashtirib, asarning mazmuniy va estetik mohiyatini anglash imkonini yaratadi.

Boshlang‘ich sinflarda ushbu ikki jarayon o‘quvchilarning bilish imkoniyatlariga muvofiq sodda shaklda namoyon bo‘ladi. Masalan, qahramonning muayyan xatti-harakatini aniqlash tahliliy faoliyat bo‘lsa, ushbu xatti-harakatning sababini tushuntirish va unga shaxsiy munosabat bildirish talqin elementlarini tashkil etadi.

Shu bois adabiy ta’limda tahlilni faqat nazariy tushunchalarni o‘zlashtirish bilan cheklash maqsadga muvofiq emas. O‘quvchi matnni o‘qish, kuzatish, savollarga javob berish, dalillarni aniqlash va mustaqil xulosa chiqarish orqali tahliliy hamda talqiniy fikrlashni birgalikda rivojlantirishi kerak.

Hikoyani o‘rgatishda samarali metodik usullar. Boshlang‘ich sinflarda hikoya janrini o‘rgatishda o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydigan interfaol va matnga yo‘naltirilgan metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Muammoli savollar metodi. O‘quvchilarga asar mazmunini oddiy qayta aytib berishni emas, balki voqea sabablarini aniqlash va muayyan qarorlarni baholashni talab qiladigan savollar beriladi. Masalan, “Qahramon boshqa qaror qabul qilishi mumkinmidi?”, “Uning o‘rnida bo‘lganingizda qanday yo‘l tutardingiz?” kabi savollar mustaqil fikrlashni faollashtiradi.

Obrazlar xaritasi. O‘quvchilar hikoya qahramonining asosiy xususiyatlarini, xatti-harakatlarini, maqsadlarini va boshqa obrazlar bilan munosabatlarini jadval yoki sxema ko‘rinishida aks ettiradilar. Bu usul obraz xarakterining badiiy matn asosida shakllanishini anglashga yordam beradi.

Voqealar zanjiri. Hikoyadagi muhim voqealar ketma-ketligi rasm, kalit so‘z yoki qisqa jumlalar orqali ifodalanadi. Mazkur usul syujetning izchilligini anglash, asosiy voqealarni ajratish va sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Matniy dalillar bilan ishlash. O‘quvchilar qahramonga berilgan tavsifni asardan topilgan muayyan jumla, dialog yoki voqea bilan asoslaydilar. Bu usul o‘quvchini shaxsiy fikrini dalillashga va matnni diqqat bilan o‘qishga o‘rgatadi.

Ijodiy qayta talqin. O‘quvchilarga hikoyadagi voqeani boshqa qahramon nuqtayi nazaridan bayon qilish, yangi sarlavha tanlash yoki muqobil yakun yaratish kabi topshiriqlar beriladi. Ushbu faoliyat badiiy tafakkur va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

Mazkur metodlarni tanlashda darsning maqsadi, hikoyaning janriy xususiyatlari va o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi hisobga olinishi kerak. Har qanday interfaol metodning samaradorligi uning tashqi qiziqarliligi bilan emas, balki o‘quvchini matnni chuqurroq anglashga qay darajada yo‘naltirishi bilan belgilanadi.

Adabiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘qituvchining roli. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida adabiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘qituvchining metodik mahorati muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchi badiiy matnni o‘quvchilarga tayyor xulosalar shaklida taqdim

etuvchi shaxs emas, balki ularni mustaqil fikrlashga, kuzatishga, savol berishga va o‘z qarashlarini asoslashga yo‘naltiruvchi pedagogik tashkilotchi sifatida faoliyat yuritishi lozim.

O‘qituvchi, avvalo, o‘quvchilarning matnni tushunish darajasi, so‘z boyligi, o‘qish tezligi va badiiy tasavvurini hisobga olishi zarur. Tahlil jarayonida murakkab adabiy atamalardan ortiqcha foydalanish o‘quvchilarning asarga bo‘lgan qiziqishini susaytirishi mumkin. Shu sababli syujet, kompozitsiya, obraz, konflikt kabi tushunchalarni dastlab amaliy misollar orqali anglatib, keyinchalik ularning nazariy mohiyatini izohlash maqsadga muvofiq. Shuningdek, o‘quvchilarning turli qobiliyat va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda differensial topshiriqlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Ayrim o‘quvchilarga voqealar ketma-ketligini aniqlash yoki qahramonlarni tavsiflash kabi sodda topshiriqlar berilsa, yuqoriroq tayyorgarlikka ega o‘quvchilar muallif pozitsiyasini aniqlash, qahramon xatti-harakatlarini matniy dalillar asosida baholash va mustaqil talqin yaratishga yo‘naltirilishi mumkin.

O‘qituvchining asosiy vazifalaridan yana biri o‘quvchilarda muntazam kitobxonlik madaniyatini shakllantirishdir. Kitobxonlik faqat o‘qilgan matnlar soni bilan belgilanmaydi. O‘qilgan asar mazmunini anglash, badiiy obrazlarga munosabat bildirish, o‘qishdan estetik zavq olish va o‘z fikrini mustaqil ifodalash ham kitobxonlik madaniyatining muhim tarkibiy qismlaridir. Shu nuqtayi nazardan, hikoya janrini adabiy tahlil asosida o‘rgatish o‘qituvchidan adabiyotshunoslikka oid bilimlar, pedagogik yondashuv, psixologik kuzatuvchanlik va ijodiy metodik mahoratning uyg‘unligini talab qiladi.

Xulosa. O‘zbek bolalar nasrida hikoya janri yosh avlodning ma’naviy-axloqiy qarashlarini shakllantirish, estetik didini rivojlantirish va hayotiy hodisalarni anglash qobiliyatini takomillashtirishda muhim badiiy vosita hisoblanadi. Hikoyaning ixcham syujeti, kompozitsion yaxlitligi, obrazlar tizimi va hayotiy ziddiyatlarni badiiy ifodalash imkoniyatlari uni boshlang‘ich ta’lim jarayonida samarali o‘quv materiali sifatida qo‘llashga zamin yaratadi.

Tahlil natijasida hikoya janrini adabiy tahlil asosida o‘rgatish badiiy matn mazmunini o‘zlashtirish, obrazlar xarakterini anglash, syujet va kompozitsiya xususiyatlarini farqlash, muallifning badiiy niyatini tushunish hamda mustaqil fikr bildirish jarayonlarini o‘zaro uyg‘unlashtirishni talab qilishi aniqlandi. Bunda tahlil va talqin bir-birini to‘ldiruvchi faoliyatlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarda adabiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish izchil va bosqichma-bosqich tashkil etilishi lozim. Dastlab matnni idrok etish, voqealar ketma-ketligini anglash va qahramonlarga munosabat bildirishga e’tibor qaratilsa, keyingi bosqichlarda sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, badiiy g‘oyani anglash, matniy dalillar asosida fikr yuritish va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Hikoyani o‘rgatishda yoshga moslik, badiiy matnga tayanish, shakl va mazmun birligi, estetik idrok hamda o‘quvchi faolligini ta’minlash tamoyillariga amal qilish muhim metodik ahamiyat kasb etadi. Muammoli savollar, obrazlar xaritasi, voqealar zanjiri, matniy dalillar bilan ishlash va ijodiy qayta talqin kabi usullar o‘quvchilarning tahliliy va ijodiy fikrlashini faollashtirish imkonini beradi. Shunday qilib, hikoya janrini adabiy tahlil asosida o‘rgatish o‘quvchilarning nafaqat o‘qish savodxonligini, balki adabiy kompetensiyasi, estetik tafakkuri va mustaqil mulohaza yuritish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yaxlit pedagogik jarayon sifatida qaralishi lozim. Mazkur yondashuvning samaradorligini yanada aniq belgilash uchun kelgusida turli sinflarda tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, o‘quvchilarning tahliliy ko‘nikmalaridagi o‘zgarishlarni mezonlar asosida baholash istiqbolli ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xudoyberdiyev, E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent, 2007.
2. Rasulov, A. Badiiylik – bu zavol yangilik. – Toshkent, 2007.
3. Solijonov, Y. Hozirgi o‘zbek hikoyasi // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2012. – № 4.
4. Mamajonov, S. Tanqidchi va adabiy jarayon // O‘zbek adabiyoti tanqidi: antologiya. – Toshkent: Turon iqbol, 2011.
5. G‘afforova, T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar: o‘qituvchi kitobi. – Toshkent: Tafakkur, 2011.
6. Aydarova, U. B. O‘qish savodxonligi. 2-sinf. – Toshkent: Novda, 2023.

SO‘ZLOVCHI GLYUTONIMLARNING FUNKSIONAL TIPOLOGIYASI

Nusratova Aziza Cho`liboyevna,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada “The Gingerbread Man”, Gianni Rodarining “The Adventures of Cipollino”, Lewis Carrollning “Alice’s Adventures in Wonderland”, aka-uka Grimmlarning “Hansel and Gretel” ertagi, E. B. Whitening “Charlotte’s Web” asari va o‘zbek bolalar adabiyotidagi oziq-ovqat hamda o‘simlik obrazlarini personifikatsiyalash an’analari olindi. So‘zlovchi glyutonimlar oddiy dekorativ obraz emas, balki syujetni harakatlantiruvchi, axloqiy bahoni yetkazuvchi, milliy-madaniy kodni ifodalovchi va bola o‘quvchi bilan kommunikativ aloqa o‘rnatuvchi murakkab badiiy birlik ekanini, so‘zlovchi glyutonimlarning funksional tipologiyasi o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: glyutonim, glyutonik diskurs, bolalar adabiyoti, personifikatsiya, lingvopoetika, semiotika, nutqiy akt, konseptual metafora, oziq-ovqat antropologiyasi.

Аннотация. В статье анализируются произведения «The Gingerbread Man», «Приключения Чиполлино» Джанни Родари, «Алиса в Стране чудес» Льюиса Кэрролла, сказка братьев Гримм «Гензель и Гретель», произведение Э.Б. Уайта «Паутина Шарлотты» (Charlotte’s Web), а также традиции персонификации пищевых и растительных образов в узбекской детской литературе. Результаты исследования показывают, что говорящие глютонимы являются не просто декоративными художественными образами, а представляют собой сложные художественные единицы, которые развивают сюжет, передают нравственную оценку, воплощают национально-культурный код и обеспечивают коммуникативное взаимодействие с ребёнком-читателем. Кроме того, в статье разработана и проанализирована функциональная типология говорящих глютонимов.

Ключевые слова: глюттоним, глюттонический дискурс, детская литература, персонификация, лингвопоэтика, семиотика, речевой акт.

Annotation. This article analyzes The Gingerbread Man, Gianni Rodari’s The Adventures of Cipollino, Lewis Carroll’s Alice’s Adventures in Wonderland, the Brothers Grimm’s Hansel and Gretel, E. B. White’s Charlotte’s Web, together with the tradition of personifying food- and plant-related characters in Uzbek children’s literature. The findings indicate that speaking glyutonyms are not merely decorative narrative elements; rather, they represent complex literary constructs that propel the plot, communicate moral values, embody national and cultural codes, and facilitate communicative interaction with child readers. In addition, the study develops and examines a functional typology of speaking glyutonyms.

Keywords: food name, gluttonic discourse, children’s literature, personification, linguopoetics, semiotics, speech act, conceptual metaphor.

Ilmiy manbalarda glyuttonim atamasi odatda oziq-ovqat, taom, ichimlik, tanovul jarayoni va gastronomik madaniyat bilan bog‘liq birliklarni anglatishi qayd etiladi. U lingvokulturologiya, badiiy matn tahlili va tarjimashunoslikda faol qo‘llanmoqda. O‘zbek va mintaqaviy ilmiy adabiyotlarda glyuttonimlar milliy lisoniy manzara, madaniy kod va badiiy tasvir vositasi sifatida talqin qilinadi.

Badiiy adabiyotda glyuttonimlar oddiy nominativ birlik bo‘lib qolmaydi. Ular asarda makon va zamonni belgilash, qahramonning ijtimoiy mansubligini ko‘rsatish, milliy muhitni yaratish,

urf-odat va dunyoqarashni ochish vazifalarini bajaradi. Shu sababli taom nomlari, ichimliklar, dasturxon unsurlari yoki ovqatlanish bilan bog‘liq metaforalar ko‘pincha matnda estetik yuk oladi. Ayrim tadqiqotlarda badiiy asardagi glyuttonimlar “taom konsepti”ning ifodasi, pragmatik xususiyatga ega realiya va o‘xshatmalar tizimi sifatida sharhlanadi.

Hozirgi davr badiiy talqinida glyuttonimlarning funksiyasi yanada kengaygan. Endilikda ular faqat milliy taom nomini berish uchun emas, balki personaj ruhiyatini, maishiy muhitni, ijtimoiy tabaqalanishni va hatto ideologik qarashlarni ifodalash uchun ham xizmat qilmoqda. Masalan, qahramon iste’mol qiladigan taom, uning taomga munosabati yoki tanovul madaniyati orqali muallif personajning xarakterini bilvosita ochadi. Bu hol, ayniqsa, zamonaviy nasrda, psixologik tasvir kuchaygan asarlarda va kundalik hayot detallariga tayanadigan badiiy matnlarda yaqqol ko‘rinadi.

So‘zlovchi glyuttonimlar masalasiga kelganda, bu yerda taom yoki oziq-ovqat bilan bog‘liq birliklarning nutq ichida qanday badiiylashuvi muhim hisoblanadi. Ya’ni glyuttonimlar dialog, ichki monolog, muallif nutqi yoki tasviriy parchada qo‘llanib, so‘zlovchining dunyoqarashi va nutqiy individualligini namoyon etadi. Qahramonning “non”, “osh”, “choy”, “sut”, “qatiq” kabi birliklarni qanday semantik va emotsional fonda ishlatishi uning milliy xotirasi, oilaviy muhiti, yosh xususiyati yoki ijtimoiy tajribasi bilan chambarchas bog‘lanadi. Shu bois glyuttonimlar badiiy matnda leksik birlik bo‘lish bilan birga, nutq egasining madaniy portretini yaratadigan vosita hamdir. Bu yondashuv glyuttonimlarni lingvokulturologik belgi sifatida ko‘radigan ilmiy qarashlar bilan hamohangdir.

So‘zlovchi glyutonimni uch komponentning birligida ta’riflash mumkinligi aniqlandi: 1) glyutonimik nominatsiya; 2) antropomorf yoki subyektlashtirilgan maqom; 3) verbal agentlik. Faqat oziq-ovqat nomining tilga olinishi so‘zlovchi glyutonimni hosil qilmaydi. Masalan, “Snow White”dagi zaharlangan olma kuchli semiotik obyekt, biroq u gapirmaydi; shuning uchun u verbal glyutonim emas. “The Gingerbread Man” esa pishirilgan mahsulot bo‘lishi, mustaqil harakat qilishi va doimiy ravishda gapirishi sababli so‘zlovchi glyutonimning to‘liq namunasidir.

So‘zlovchi glyutonimning nomi ko‘pincha apellyativdan atoqli otga o‘tadi. Oddiy “gingerbread man” bir mahsulot turini bildirsa, ertak kontekstida u yakka qahramonning nomi va identifikatoriga aylanadi. Xuddi shuningdek, “Cipollino” italyancha cipolla — piyoz so‘zidan hosil bo‘lib, mahsulot semantikasini personaj identifikatsiyasiga ko‘chiradi. Bunda nom va xarakter o‘rtasida motivlanganlik mavjud: mahsulotning shakli, ta’mi, hidi yoki madaniy bahosi personajning badiiy sifatlariga aylantiriladi.

“The Gingerbread Man” qahramonining nutqi ritmik takror va o‘zini ulug‘lash formulasiga asoslangan. Uning qochib ketganlar ro‘yxatini takrorlashi bir tomondan bola o‘quvchi uchun eslab qolish va ishtirok etish imkonini yaratsa, ikkinchi tomondan personajning haddan tashqari ishonchi va kibrini kuchaytiradi. Takror syujetning har bir yangi bosqichini avvalgi bosqich bilan bog‘laydi. Shu tarzda nutqning fonik va sintaktik shakli bevosita xarakter yaratish vositasiga aylanadi.

Rodarining “The Adventures of Cipollino” asarida mahsulot nomlari butun personajlar tizimini tashkil qiladi. Sabzavot va mevalarning nomlari ijtimoiy tiplarni kodlaydi: oddiy va kundalik mahsulotlar xalq vakillari sifatida, hashamat yoki kuch bilan bog‘langan obrazlar esa hukmron tabaqa sifatida talqin qilinadi. Piyozning ko‘z yoshlatish xususiyati nafaqat kulgili detal, balki zulmga uchraganlarning ko‘z yoshi va qarshilikning “achchiq” tabiatini ifodalovchi lingvopoetik motivga aylanadi.

Ta’m sifatlari xarakterologik epitet vazifasini bajaradi. “Shirin” odatda yoqimlilik, mehribonlik yoki joziba bilan; “achchiq” keskinlik, g‘azab, dard yoki haqiqat bilan; “nordon” norozilik bilan;

“sho‘r” esa hayot tajribasi yoki kulfat bilan bog‘lanishi mumkin. Biroq bu assotsiatsiyalar qat’iy emas. Bolalar adabiyoti ko‘pincha stereotipni buzadi: tashqi ko‘rinishi yoqimsiz mahsulot yaxshi, chiroyli shirinlik esa xavfli bo‘lishi mumkin.

Nutqiy aktlar tahlili so‘zlovchi glyutonimlarning nutqi syujetga bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatdi. “The Gingerbread Man”ning asosiy aktlari assertiv va ekspressiv ko‘rinishda bo‘lib, u o‘zining tezligi va boshqalardan ustunligini e’lon qiladi. Bu nutq boshqa personajlarni quvishga undaydi va yakunda tulkining aldamchi nutqiga duch kelishiga sabab bo‘ladi. Demak, maqtanish akti personajning psixologik belgisi bo‘lish bilan birga, syujetdagi halokatli qarorni tayyorlaydi.

Cipollino nutqida direktiv va qarshilik aktlari ustun. U savol beradi, e’tiroz bildiradi, boshqalarni birlashishga chaqiradi va hokimiyat vakillarining so‘zlarini qayta baholaydi. Bunday nutq bolalar adabiyotida fuqarolik agentligini sodda, personifikatsiyalangan shaklda namoyish etadi. Qahramonning “kichik” va oddiy mahsulot bo‘lishi uning axloqiy kuchini kamaytirmaydi; aksincha, tengsizlikka qarshi turish g‘oyasini kuchaytiradi.

So‘zlovchi glyutonim nutqi ikki auditoriyaga yo‘nalishi mumkin. Bola o‘quvchi qiziqarli dialog va kulgili qahramonni qabul qiladi, katta o‘quvchi esa ijtimoiy satira, iste’mol tanqidi yoki tarbiya strategiyasini ko‘radi. Bu ikki adresatlilik ayniqsa parodik asarlarda kuchli. Jon Scieszka va Lane Smithning “The Stinky Cheese Man and Other Fairly Stupid Tales” kitobida an’anaviy ertak qahramoni va syujetini buzish orqali o‘quvchining janr haqidagi kutishi masxara qilinadi. “Badbo‘y pishloq odam”ning glyutonik tabiati jozibali oziq-ovqat qahramoni stereotipini ataylab teskarilaydi.

So‘zlovchi glyutonimning semiotik tuzilishi uch qatlamdan iborat: mahsulotning denotativ ma’nosi, antropomorf personaj ma’nosi va madaniy-aksiologik ma’no. Masalan, piyoz — sabzavot; Cipollino — bola-qahramon; piyozning achchiqligi va ko‘z yoshlatishi esa zulm, dard, halollik va qarshilik kodlari bilan birlashadi. Ushbu qatlamlar bir-birini yo‘q qilmaydi, aksincha, bir vaqtning o‘zida faol bo‘lib turadi.

Proppning funksional yondashuvi asosida so‘zlovchi glyutonimlarning syujetdagi rollari bir necha turga ajratildi. Birinchi tur — qahramon-glyutonim: u voqealarning markaziy subyekti bo‘lib, masalan, Gingerbread Man yoki Cipollino kabi harakat qiladi. Ikkinchi tur — yordamchi yoki donor-glyutonim: qahramonga kuch, bilim yoki sehrli imkoniyat beradi. Uchinchi tur — zarar yetkazuvchi yoki vasvasa qiluvchi glyutonim: zaharli, aldovchi yoki ortiqcha iste’molga undovchi obraz. To‘rtinchi tur — mukofot-glyutonim: bayram, to‘kinlik yoki muvaffaqiyat belgisi. Beshinchi tur — metanarrativ/parodik glyutonim: janr qoidalarini buzish va ertak stereotiplarini masxara qilishga xizmat qiladi.

Ushbu rollar qat’iy va o‘zgarmas emas. Gingerbread Man o‘zini qahramon deb namoyon qilsada, boshqa personajlar nuqtai nazaridan u oziq-ovqat va ov obyekti hisoblanadi. Bu “subyekt — iste’mol obyekti” ziddiyati so‘zlovchi glyutonimlarning eng muhim ontologik xususiyatlaridan biridir. Personaj o‘z hayoti va ovoziga ega, biroq atrofdagilar uni yeyiladigan predmet sifatida ko‘radi. Mazkur ziddiyat hayvonlar va insonlar, iste’molchi va mahsulot, kuchli va zaif o‘rtasidagi axloqiy masalalarni ko‘taradi.

Oziq-ovqatning madaniy qiymati mahsulotning o‘zidan tashqariga chiqadi. O‘zbek madaniyatida non rizq, mehnat, baraka va hurmat bilan bog‘lanadi; uni yerga tashlamaslik, ushoqlarini qadrlash kabi me’yorlar mavjud. Shu sababli o‘zbek bolalar matnida nonning so‘zlashi yoki personifikatsiyalashuvi, ehtimol, mehnatga hurmat, isrof qilmaslik va rizqni qadrlash g‘oyalarini kuchaytiradi. Yevropa ertaklaridagi gingerbread esa pishiriq, bayram, uy va bolalar dunyosi bilan bog‘liq bo‘lib, qochuvchi qahramon shaklida erkinlik hamda kibr mavzusini ifodalashi mumkin.

Meva-sabzavotlarning personifikatsiyasi sog‘lom ovqatlanish didaktikasida ham faol qo‘llanadi. Biroq bunday matnlarda badiiy obrazning murakkabligi ko‘pincha ochiq nasihatga bo‘ysunadi. Ilmiy tahlilda didaktik maqsad bilan estetik mustaqillik o‘rtasidagi nisbatni hisobga olish zarur. Agar personaj faqat “meni ye, men foydaliman” kabi bir vazifali nutqqa ega bo‘lsa, u funksional-didaktik glyutonimdir; agar u ziddiyatli xarakter, rivojlanish va murakkab munosabatlarga ega bo‘lsa, to‘laqonli badiiy glyutonim-personaj sifatida baholanadi.

Qiyosiy kuzatuvlar universal va milliy xususiyatlarning birga mavjudligini ko‘rsatadi. Universal tendensiyalarga oziq-ovqatni jonlantirish, ta’mni xarakter bilan bog‘lash, ochlik va to‘qlikni axloqiy baholash, bolaga tanish mahsulot orqali murakkab g‘oyani soddalashtirish kiradi. Milliy xususiyatlar esa qaysi mahsulot tanlanishi, uning marosimiy maqomi, odob normalari, metaforik assotsiatsiyasi va nutq uslubida namoyon bo‘ladi.

So‘zlovchi glyutonimlarning funksional tipologiyasi

Funksiya	Asosiy belgi	Tahlil savoli	Namunaviy obraz
Nominativ-personajlovchi	Mahsulot nomining personaj ismiga aylanishi	Nom xarakter va tashqi qiyofani qanday motivlaydi?	Cipollino, Gingerbread Man
Kommunikativ-pragmatik	Mustaqil nutq va illokutiv maqsad	Personaj nutqi bilan qanday harakat bajaradi?	Maqtanish, buyurish, ogohlantirish
Syujet-dinamik	Voqeani boshlash yoki o‘zgartirish	Glyutonim qaysi syujet funksiyasini bajaradi?	Qahramon, donor, vasvasa, mukofot
Semiotik-ramziy	Mahsulotning madaniy kodga aylanishi	Predmet ma’nosidan tashqari nimani anglatadi?	Olma, non, piyoz, shirinlik
Aksiologik-didaktik	Yaxshi-yomon, foydali-zararli bahosi	Qanday axloqiy me’yor uzatiladi?	Isrof qilmaslik, me’yor, ehtiyotkorlik
Lingvomadaniy	Milliy taom va urf-odat bilan bog‘liqlik	Universal va milliy belgilar qanday farqlanadi?	Non, sumalak, gingerbread

Tadqiqot natijalari Khyoonning bolalar adabiyotida oziq-ovqat ma’nosi bola yoshi bilan murakkablashib borishi haqidagi xulosasini qo‘llab-quvvatlaydi, biroq uni verbal agentlik kategoriyasi bilan kengaytiradi. Khyoon oziq-ovqatni axborot, tarbiya, oila, ijtimoiy mavqe, xavfsizlik, yetilish va psixologik konflikt vositasi sifatida ko‘radi. Mazkur tahlil esa oziq-ovqat obrazining gapirish qobiliyati unga qo‘shimcha pragmatik kuch berishini ko‘rsatdi: personaj o‘z ma’nosini faqat tashqi tavsif orqali emas, balki bevosita nutqiy harakatlar orqali ishlab chiqadi.

Barthes semiologiyasi so‘zlovchi glyutonimning madaniy belgi sifatidagi ko‘p qatlamliligini tushuntiradi, ammo personaj nutqining aniq maqsadini tasniflamaydi. Austin–Searle modeli bu bo‘shliqni to‘ldiradi, lekin oziq-ovqat nomining tarixiy va madaniy ma’nosini ochish uchun yetarli

emas. Shuning uchun bir nazariyaga tayanish o‘rniga integrativ yondashuv zarur. Lingvopoetika obrazning shaklini, semiotika ramziy ma’nosini, pragmatika nutqiy harakatini, oziq-ovqat antropologiyasi esa uning ijtimoiy munosabatlarini tushuntiradi.

Konseptual metafora nazariyasi ta’m va ovqatlanishning abstrakt tushunchalarni tashkil etishini ko‘rsatadi. Biroq har bir glyutonimni metafora deb e’lon qilish metodologik xato bo‘ladi. Personaj ba’zan mahsulotning madaniy metonimiyasi, parodik transformatsiyasi yoki shunchaki fantastik jonlantirilishi bo‘lishi mumkin. Shu bois metafora haqidagi xulosa takroriy til birliklari, syujetdagi mosliklar va muallifning baholash tizimi bilan isbotlanishi kerak.

Bolalar adabiyotidagi ikki adresatlilik konsepsiyasi so‘zlovchi glyutonimlarning didaktik tabiatini tanqidiy baholash imkonini beradi. Kattalar bolaga foydali ovqat, me’yor, ehtiyotkorlik yoki itoat haqidagi xabarni yetkazish uchun qiziqarli oziq-ovqat personajidan foydalanadi. Biroq kuchli badiiy asarda qahramon faqat nasihatni tashuvchi “og‘iz” bo‘lib qolmaydi; u mustaqil xarakter va ziddiyatga ega bo‘ladi. Demak, didaktik funksiya badiiylikni bekor qilmasligi, balki obraz tizimiga singdirilishi kerak.

Tadqiqotning nazariy natijasi sifatida “so‘zlovchi glyutonim” quyidagicha ta’riflanadi: badiiy matnda oziq-ovqat, taom, ichimlik, meva-sabzavot yoki ularning xususiyatlari bilan nominativ va semantik jihatdan bog‘langan, antropomorf yoki subyektlashtirilgan maqomga ega hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita nutq orqali syujet va ma’no yaratishda faol qatnashadigan personaj. Ushbu ta’rif glyutonik obyekt, verbal glyutonim va kvaziverbal glyutonimni farqlashga imkon beradi.

Glyutonik obyekt — gapirmaydigan, lekin ramziy yoki syujet ahamiyatiga ega oziq-ovqat obrazi; verbal glyutonim — to‘liq nutq subyekti; kvaziverbal glyutonim esa yozuv, buyruq, sehrli ta’sir yoki kuchli agentlik orqali “xabar” beradigan, ammo grammatik jihatdan to‘liq dialogga kirmaydigan obrazdir. “Snow White”dagi olma birinchi turga, Gingerbread Man ikkinchi turga, “Alice”dagi “Eat me/Drink me” obyektlari uchinchi turga yaqin. Korpusni aniq chegaralash, misollarni bir xil mezon asosida kodlash va o‘zbek hamda jahon materialini qiyoslash uchun metodologik vosita bo‘la oladi. Keyingi bosqichda har bir asardagi glyutonim nomi, mahsulot turi, nutqiy akti, syujet funksiyasi, ta’m semantikasi, madaniy kodi va didaktik xabari maxsus jadvalda qayd etilishi maqsadga muvofiq.

Bolalar adabiyotida so‘zlovchi glyutonimlar oziq-ovqat nomining personifikatsiyasi bilangina cheklanmaydigan, bir necha semiotik va kommunikativ qatlamlarni birlashtiruvchi badiiy hodisadir. Ularning asosiy farqlovchi belgisi oziq-ovqat bilan semantik aloqadorlik, personaj maqomi va verbal agentlikning birligidan iborat. Nutqiy aktlar nuqtai nazaridan so‘zlovchi glyutonimlar assertiv, direktiv, ekspressiv va ba’zan komissiv harakatlar orqali syujetga ta’sir qiladi. Ularning nutqi faqat ma’lumot bermaydi, balki boshqa personajlarni quvishga, qarshilik ko‘rsatishga, ishonishga yoki ehtiyot bo‘lishga undaydi. So‘zlovchi glyutonimlarning nominativ-personajlovchi, kommunikativ-pragmatik, syujet-dinamik, semiotik-ramziy, aksiologik-didaktik va lingvomadaniy funksiyalarini ajratish mumkin. Ushbu tasnif kelgusida kengroq korpus tadqiqoti uchun asos bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Austin, J. L. How to Do Things with Words. Oxford: Clarendon Press. 1962.

2. Barthes, R. Mythologies. Paris: Éditions du Seuil. 1957.

3. Barthes, R. Toward a Psychosociology of Contemporary Food Consumption. In R. Forster & O. Ranum (Eds.), Food and Drink in History. Baltimore: Johns Hopkins University Press. 1961.

4. Carroll, L. Alice in Wonderland (2nd ed.). New York: W. W. Norton. (Asar dastlab 1865-yilda

nashr etilgan. 1992.

5. Counihan, C. M. The Anthropology of Food and Body: Gender, Meaning, and Power. New York: Routledge. 1999.

6. Douglas, M. Deciphering a Meal. Daedalus, 101(1), 61–81. 1972.

Аннотация. В статье анализируются роль и значение психологических факторов в воспитании зрелого поколения. Рассматриваются взгляды восточных мыслителей на воспитание, духовность, национальное самосознание и формирование гармонично развитой

личности как важный методологический источник для современного образовательного процесса. Также раскрывается психологическое влияние народной педагогики, национальных ценностей, традиций, устного народного творчества, воспитательных идей хадисов и семейно-махаллинской среды на развитие личности молодежи.

Ключевые слова: зрелое поколение, этнопсихология, национальное воспитание, народная педагогика, национальные ценности, духовность, самосознание, восточные мыслители, семья и махалля.

Bugungi kun odamlari komillikni egallovchi, ya'ni komil insonlikka intiluvchi shaxslardan tarkib topishi lozim. Komillikning bir nechta mezonlari mavjud bo'lib, unda jismoniy barkamollik, axloqiy barkamollik, betakrorlik, aql-zakovatlilik singari shaxsning ijtimoiy tarbiyaviy tarkiblari o'z ifodasini topadi. Komillikning o'ziga xos bosqichlari, ob'yektiv va sub'yektiv xususiyatli shart-sharoitlari, omillari mavjuddir. Komil inson imkoniyati cheksiz, o'z iqtidori, iste'dodi, saloxiyati, qobiliyati, donishmandligi, qomusiyligi bilan o'z zamondoshlaridan sezilarli darajada ilgarilab ketuvchi, betakror, o'ta (super) ongli, biosfera va neosfera munosabatlarini anglovchi ongli zotdir (onglilikning ongliligi ustuvordir)[89].

O'zbekistonning birinchi prezidenti I.A.Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch» asarida yozganlaridek: «Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yshashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmi, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi»[29].

Yuqorida keltirib o'tilgan komillikning bir nechta mezonlarini Najmiddin Kubro qarashlari bilan asoslashga harakat qilamiz. Ajdodlarimizning vakillari qaysi ta'limotga (diniy yoki dunyoviy) va ilmiy platformaga (ilmiy maktabga, nazariyaga) asoslanganligidan qat'iy nazar, amaliyot - haqiqat mezoni ekanligidan kelib chiqib, uning birlamchi, ustuvor mezon, o'lcham sifatida milliy o'zlikni anglashning sur'atini oshirish uchun o'rganilishga loyiqdir.

Najmiddin Kubroning axloq haqidagi tasavvufiy qarashlarini bugungi yosh avlodga yetkazish bo'yicha dastlabki amaliy ishlarni yuqoridagi paragrafimizda barkamol shaxsni baholovchi test orqali amalga oshirdik. Endilikda esa, tadqiqotni yanada amaliy jihatdan mustahkamlash uchun sinaluvchilarning berilgan metodikalarga nisbatan faktorizatsiyaga ajratgan holda shkalalarni ahamiyatli va ahamiyatsiz farqlarga ajratish, so'rovnomalarning nisbatiga ko'ra quyi, o'rta va yuqori darajalarga ajratish va aloqador bog'liqliklarni aniqlashdan iboratdir.

Demak, inson komil, izzat-ikromli, jamiyat va oilasida o'z mavqeini topish uchun fikru mulohazasiga har jabhada ega bo'lishi kerak. Shu bilan birga, uning to'g'ri va foydali bo'lish alohida ahamiyatlidir[32].

Jamiyat taraqqiyoti sharoitida har bir faoliyat, jumladan, pedagogik faoliyatning ham ilmiy asoslanganligi, erishilgan natijasi bilan hisoblanadi. Shuni alohida qayd etish joizki, pedagogik nazariyadagi quruq safsata, amaliyotdagi subyektiv mavhumlik bugun davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning oqilona siyosati tufayli barham topa boshladi. Komil inson tarbiyasi masalalari amaliyotda o'z ijobiy samarasini ko'rsatmoqda.[2]

O'zbekistonning birinchi prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Har qaysi inson Alloh taolo ato etgan noyob qobiliyat va iste'dodini avvalo o'zi uchun, oilasining, millati va xalqining, davlatning farovonligi baxt-saodati, manfaati uchun to'liq baxshida etsa, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga erishadiki, uning sur'at va samarasini hatto tasavvur ham qilish oson emas[21].

Qadimgi Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarashlar hamda g'oyalar bugungi

kunda ham muhim ta’lim-tarbiyaviy manba sifatida talaba-yoshlar ongi va qalbiga ma’naviy ozuqa berib kelmoqda. O‘quv jarayonlarida esa rejadagi mavzularni buyuk mutafakkirlarimizning fikrlari, hadislar, xalq og’zaki namunalaridan olingan ibratli lavhalar bilan boyitishtalab etiladi. Nazariy va amaliy mashg’ulotlarda ajdodlarimiz tomonidan taqdim etilgan va xalq pedagogikasidagi tarbiyaviy usullar va vositalardan foydalangan holda o‘quvchilarni ajdodlarimiz merosiga qiziqtirish, uning hayotbaxsh g’oyalarini singdirish, milliy ildizlarimizdan ularni xabardor qilish orqali yoshlarni o‘zlikni anglashga o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

Farobiy bilimdon, ma’rifatli, yetuk inson obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi: “Har kimki ilm-hikmatni o‘rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, sog’-salomatligi yaxshi bo‘lsin, yaxshi axloq va odobi bo‘lsin, so‘zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo‘lsin, barcha qonun – qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo‘lsin, ilmli va dono kishilarni xurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to‘g’risida bilimga ega bo‘lsin”. Bu fikrlardan Farobiyning ta’lim-tarbiyada yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda, xususan, aqliy-axloqiy tarbiyaga alohida e’tibor bergani ko‘rinib turibdi, uning e’tiqodicha, bilim, ma’rifat albatta yaxshi axloq bilan bezatilmog’I lozim, aks holda kutilgan maqsadga erishilmaydi, bola yetuk bo‘lib yetishmaydi.

Farobiy o‘z ijtimoiy vazifasini bajarish uchun unga, birinchidan, kundalik hayotida odamlar bilan muloqatda bo‘lish zarurligini, ikkinchidan, esa u mehnat va kasb-hunar ko‘nikmalarini va axloqiy fazilatlarni egallashi lozimligini ta’minlaydi[106].

Ibn Sino bola тarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikrlarini bildirgan. Ibn Sino bolaning axloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida uy-ro‘zg’or tutish masalalari xususida ham so‘z yuritadi. Bolani tarbiyalash oila – ota-onaning asosiy мaqsadi va vazifasidir. O‘z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo‘lgan ota-ona tarbiyachi bo‘lishi mumkin. Axloqiy tarbiyada eng muhim vositalar bolaning nafsoniyatiga, g’ururiga tegmagan holda, yakkama-yakka suhbatda bo’lish, unga nasihat qilishdir. Ibn Sino bolada axloqiy xususiyatlarni mexnat, jismoniy-aqliy тarbiya bilan uzviy birlikda shakllantirishni uni inson sifatida kamol toptirishda asosiy omil deb biladi.

Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e’tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo‘lib o‘sishiga ishonadi. Yosh bolani juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o‘zida yaxshi odat va fazilatlar hosil qilishga yordam beradi. U odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa, kishilarning bir-biriga bo‘lgan ruhiy, ma’naviy ta’siri natijasida tarkib topadi deb voyaga etkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligini uqtiradi.

Jaloliddin Davoniy ota-onaning bolani tarbiyalashdagi ahamiyatiga keng to‘xtalgandi. Uning fikricha, oila tarbiyasida ota ham, ona ham teng huquqli, teng ishtirok etishi bolaning yaxshi xulq, odob qoidalarining muayan bir kasbni egallashga ko‘maklashishi, ilm-fan va kasb-hunar egallashning moddiy asosi bo‘lmish oziq-ovqat, кiyim-кechak, кerakli buyum va jihozlarni etkazib berish uchun jonbozlik ko‘rsatish kerak.

Sharq mumtoz adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri Muslihiddin Sa’diy Sheroziy Sheroz shahrida 1184 yilda tug’ilgan. Sa’diyning fikricha, oila bolaning baxti, кelajagi uchunzamin yaratuvchidir. Oilada asosiy tayanch otadir. U mas’uliyatli tarbiyachidir. Ota o‘z bolalarini tarbiyalashi, o‘qitilishi, hunarga o‘rgatishi, jismonan chiniqtirishi kerak. Sa’diyning pedagogik qarashicha, bola qobiliyati va kamqobiliyatli bo‘lishi mumkin. Qobiliyat o‘z-o‘zidan rivojlanmaydi. Uning rivojlanishi uchun bolani tarbiyalash kerak, tarbiya bo‘lmasa, boladagi qobiliyat so‘nadi, tarbiyani 3 asosiy – aqliy, nafosat va jismoniy mehnat tarbiyasiga bo‘ladi. Adib bolani tarbiyalash vazifasini ularnig ota-onalariiga, ya’ni oilaviy tarbiyaga kata e’tibor beradi. XIX asr o‘zbek ijtimoiy va adabiy hayotining yirik vakillaridan biri Komil Xorazmiy o‘z asarlarida

ma’rifat, axloqiy kamolot, vatanparvarlik g’oyalarini olg’a surdi. U ilm-ma’rifatning xalq, jamiyat farovonligiga, insonning axloq kamolotida tutgan o‘rni, axloqiy va nafosat tarbiyasining uzviy birligi haqidagi pedagogik fikrlarini ham bayon etadi. Komil Xorazmiyning fikricha, ilm-hunar, ilm-ma’rifat inson axloqiy kamoloti, ijtimoiy - ma’navi rivoji uchun xizmat qilishi kerak. Kamtarlik eskirmaydigan, eng go‘zal insoniy fazilatdir. Bu fazilatlarga ega bo‘lganlar obro‘-e’tiborli komil insonlardir. Kamtarlik insonni turli noxushliklardan, xijolatdan saqlaydi. Shoir, tarixshunos, tarjimon va xattot Munis Xorazmiy tilga ko‘p erk bermaslikni maslahat beradi. Uning ta’kidlashicha, ortiqcha so‘zamollik kishi boshiga oltin o‘rniga qattiq tosh bo‘lib tegishi mumkin. Shoir yomon so‘zli, ozor beruvchilar sifatini tasvirlab, kishilarni, jumladan, yoshlarni ular bilan hamsuhbat bo‘lmaslikka undaydi. Munis Xorazmiy o‘z asarlarida xalqni adolatli, ongli, bilimli bo‘lishga, jaholatdan yiroq turishga da’vat etadi, uning fikricha, adolat – sharaf ko‘rki, osoyishtalik, xushnudlikdir. U yoshlarni kamtarlik bilan muloqotda bo‘lishga, ularni hurmat qilib e’zozlashga chorlaydi. Munis Xorazmiyning asarlarida bayon etilgan ta’lim-tarbiyaga oid fikrlar faqat u yashagan davr uchun emas, balki hozirgi davr uchun ham qimmatlidir.

Mohlaroyim Nodiraning inson va tabiatga nisbatan qarashlarida faqat shaxsiy tuyg’u emas, balki yoshlar tarbiyasida millay an’analarning roli haqidagi fikrlari ham aks etgan. Nodiraning tarbiya haqidagi qarashlarida insonparvarlik g’oyalari–adolat, insof, xalq manfaati muhim o‘rinni egallaydi. Nodira hayotning tub mohiyatini yaxshilik binosini barpo etishdan iborat deb biladi. Uning fikricha, kimki tiriklik chog’ida yaxshilik bunyod etgan bo‘lsa, o‘zining bu ezgu ishlari bilan o‘zidan keyin hayotda yorqin xotira qoldiradi. Umuman, Nodira o‘z she’rlarida barkamol insonni ulug’laydi. Ta’lim-tarbiyaga oid ko‘p foydali o‘gitlarni bayon etgan.

Muhammad Rizo Ogahiy o‘z ijodiy faoliyatida, pisxologik qarashlarida nafosat tarbiyasi yuqori baholanadi. Ogahiy milliy an’analarimizdan bo‘lmish mehmondo‘stlikni go‘zal fazilatlardan biri hisoblaydi. Mehmonga chuqur hurmat bilan qarash, mehmon kutish, kuzatish odobi Ogahiy ijodida o‘z ifodasini topdi, odamlarni bu fazilatni egallashga da’vat etdi. Ogahiyning ta’kidlashicha, insonning do‘st va dushmanni ajratib olishi hayotda o‘z o‘rnini topib olishida g’oyat muhimdir. Uning fikricha, to‘g’riso‘z kishilar hayotda qiyinchiliklar bila yashsalar– da, dunyoning mavjudligini saqlab turadilar, mangu yashaydilar.

Ogahiy ta’lim-ga molik ekanligini ta’kidlaydi. Muhammad Rizo Ogahiy o‘z ijodiy faoliyatida binobarin yoshlarni odamlarni xalq, vatan, jamiyat farovonligi yo‘lida xizmat qilishga da’vat etdi. U do‘stlikni, mehmondo‘stlikni, axloqiy go‘zallikni ulug’laydi. Insonlarni ziyraklikka to‘g’ri so‘zli bo‘lishga chorlaydi. Ogahiyning bu fikr, o‘gitlari hozir ham pedagogik qadriyat sifatida qimmatlidir. Markaziy Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini jahon miqiyosiga olib chiqqan. Markaziy Osiyoda psixologik fikr taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan ulug’ siymolardan biri Mirzo Ulug’bek. U, avvalo, yosh avlodning aqliy va ma’rifiy tarbiyasiga kata ahamiyat berib, ularni dunyoviy bilimlarni egallashga da’vat etadi. Faqat rivojlangan fan va nadaniyat inson tafakkurining kamol topishini ta’minlashga ishondi. Allomaning uqtirishicha, bolaning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi, havasini oshishida u tarbiyalanayotgan muhit muhim o‘rinni egallaydi. Oilada ota-onalar, aayniqsa, o‘qimishli ota-onalar o‘z farzandlarining haqiqiy inson bo‘lib kamol topishiga alohida e’tibor berishlari lozim. Mirzo Ulug’bek o‘z psixologik qarashlarida bolalarning jismonan sog’lom, harbiy hunarni puxta egallagan, jasur, mard bo‘lib etishuviga alohida ahamiyat beradi. Ulug’bekning fikricha, odam sog’lom va baquvvat bo‘lishi uchun yoshlik chog’idayoq jismoniy mashqlar bilan shug’ullanishi, ta’lim-tarbiyada порахўрлик, қаллоблик бўлмаслиги учун мударрислар одил ва ҳалол бўлиши kerak.

Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta’lim-tarbiyaga oid yondashuvlar, g’oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari va vositalarini bilish, hayotda

ulardan to‘g’ri foydalanish – o‘qituvchilarning pedagogіl – psixologik mahoratidagi muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. Pedagogika fanida tarbiya – inson tarbiyasi muammolarini asosiy maqsad qilib, barkamol shaxsni shakllantirishga zamonaviy pedagogika fani yutuqlaridan foydalanish bilan bir qatorda milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizdan foydalanish va ijodiy yondashishni talab etadi. Bu talab ajdodlarimiz g’oyalariga suyanib, quyidagi qonunlarga asoslanishi zarur:

 tarbiya inson faoliyati jarayonida tartibli ta’sir etuvchi omil bo‘lib, natijasini insonning yashab turgan ijtimoiy sharoiti belgilaydi;

 inson kamolotini harakatlantiruvchi kuch, qarama-qarshiliklarning mavjudligini uning shaxsiy hayotda namoyon bo‘ladi;

 inson faoliyati jarayonida atrofdagi narsa va hodisalarga қизиқиш уйғотиш ва уни эътиқодга айлантириш лозим. Chunki e’tiqod insonning jamiyatda bo‘lgan munosabatida, tevarak-atrofda kechayotgan voqea–hodisalarga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi;

 tarbiya jarayoni yoshlarning kattalar bilan, kattalarning yoshlar bilan qonuniy munosabati natijasida amalga oshirilishini ta’minlash demakdir.

 Tarbiya jarayonining qonun, qoida, tamoyil va metodlarini psixologiyada chuqur, atroflicha o‘rganadi. Ta’limga umumiy tarzda quyidagicha ta’rif berish mumkin: ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan, rejali ravishda amalga oshiriladigan o‘qituvchi-o‘qituvchilarning o‘zaro muloqot-munosabati bo‘lib, o‘quv fanlariga oid tushunchalarni va etakchi g’oyalarni o‘quvchilar ongiga singdirib borishga asoslanadi. Ta’lim va tarbiya uzviy bog’langan jarayon bo‘lganligi sababli tarbiyalangan komil inson aqliy kamolotiga tartibli ta’sir ko‘rsatish orqali ilmli, barkamol inson bo‘lib yetishadi. Ta’lim jarayoni insonlarga nimalarni berishi haqida Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg’u bilig” asarida shunday yozgan edi: O‘quv qayda bo‘lsa, ulug’lik bo‘lur, Bilim kimda bo‘lsa, buyuklik olur. O‘quvli tirikdir, o‘quvsiz – olik, Kelu, ey o‘quvsiz, o‘quv o‘lik. Ta’lim inson aqliy kamolotini yuzaga chiqaruvchi pedagogika tarbiyashunoslikning bir qismidir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1..O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi. 2023 yil 20 dekabr.

2. G’oziev E. Umumiy psixologiya. -T.: «Universitet», 2008, 137 b.

3. I.Karimov. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. Ma’naviyat. - T.: 2008. B. 36.

4. Imom Zarnujiy «Ilm olish sirlari».Munir nashriyoti. Toshkent-2022. B. 28.

5. Barkamol avlod orzusi. Tuzuvchilar : Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov.-T.: Sharq NMBK. 1999. B.173.

6. Hikmatlar guldastasi. Toshkent. Ga‘fur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1952 y. B. – 53

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA TA’LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Eshpo’latova Maftuna Akbar qizi
Navoiy davlat universiteti
Ilmiy innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo’limi yetakchi mutaxasisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada sun’iy intellekt texnologiyalari asosida ta’lim muassasalarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonlari va bu sohadagi tizimlarni takomillashtirish masalalari yoritiladi. Unda sun’iy intellekt yordamida axborotlarni tahlil qilish, qarorlarni samarali qabul qilish, jarayonlarni optimallashtirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etishning ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Sun’iy intellekt asosida boshqaruvda yuzaga keladigan keng imkoniyatlar bilan bir qatorda, bu sohadagi dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari haqida ham fikr yuritilgan. Maqolada raqamli transformatsiya davrida ta’lim muassasalarining samarali faoliyat yuritishida sun’iy intellektdan foydalanishning istiqbollari va natijalari muhim ilmiy-amaliy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, boshqaruv, qaror qabul qilish, ta’lim muassasasi, raqamli ta’lim, avtomatlashtirish, algoritm, innovatsion yondashuv, axborot texnologiyalari.

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы совершенствования систем принятия управленческих решений в образовательных учреждениях на основе технологий искусственного интеллекта. Показана значимость анализа информации с использованием искусственного интеллекта, эффективного принятия решений, оптимизации процессов и внедрения инновационных подходов. Кроме того, освещены широкие возможности, которые открываются при внедрении искусственного интеллекта в управление, а также актуальные проблемы в этой сфере и пути их решения. В статье дана научно-практическая оценка перспектив и результатов применения искусственного интеллекта для эффективного функционирования образовательных учреждений в условиях цифровой трансформации.

Ключевые слова: искусственный интеллект, управление, принятие решений, образовательное учреждение, цифровое образование, автоматизация, алгоритм, инновационный подход, информационные технологии.

Abstract: This article examines the improvement of decision-making systems in educational institutions based on artificial intelligence technologies. It highlights the importance of analyzing information using artificial intelligence, making effective decisions, optimizing processes, and introducing innovative approaches. The paper discusses the broad opportunities arising from AI-based management, as well as current issues in this field and ways to address them. The prospects and outcomes of utilizing artificial intelligence for the efficient functioning of educational institutions in the context of digital transformation are scientifically and practically analyzed in this work.

Keywords: artificial intelligence, management, decision-making, educational institution, digital education, automation, algorithm, innovative approach, information technologies.

Kirish. Bugungi kunda dunyo bo‘ylab barcha sohalarda, ayniqsa ta’lim sohasida, sun’iy intellekt texnologiyalari keng joriy qilinmoqda. Bu texnologiyalar axborotlarni qayta ishlash, ulardan foydalanish va natijada samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda muhim vositagacha aylangan. An’anaviy boshqaruv usullariga nisbatan sun’iy intellekt asosidagi yondashuvlar yuqori samaradorlik, aniqlik va tezkorlik imkoniyatini beradi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – sun’iy intellekt texnologiyalari asosida ta’lim muassasalarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish tizimini mukammallashtirish masalasini chuqur tahlil qilish va takliflarni ishlab chiqishdan iborat. Hozirgi zamon ta’lim muassasalari oldida yangi raqamli dunyo talablari asosida o‘z faoliyatini tubdan o‘zgartirish vazifasi turibdi. Ayniqsa, inson resurslarini boshqarish, o‘quv jarayonining sifatini monitoring qilish, muammoli vaziyatlarni oldindan aniqlab, ularga zudlik bilan samarali yechimlarni taklif qilish uchun sun’iy intellekt vositalaridan keng

foydalanilmoqda. Raqamli ma’lumotlarning keskin ko‘payishi, o‘quvchi va pedagoglarning ehtiyojlari va faoliyati haqidagi statistikani muntazam ko‘zdan kechirish zarurati boshqaruv tizimida ilg‘or texnologik yechimlarga ehtiyojni oshirmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Ta’lim muassasalari faoliyatida samarali tashkiliy boshqaruv doimo dolzarb masalalardan hisoblanadi. Boshqaruv qarorlari muassasaning raqobatbardoshligi, taraqqiyoti, resurslardan foydalanish samaradorligi va natijadorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. An’anaviy boshqaruv yondashuvlarining asosiy kamchiligi – axborotlarni tahlil qilishda inson omiliga kattaroq bog‘liqlik, vaqt va resurslarning ko‘p sarf bo‘lishidir. Sub’ektiv baholash, yetarli statistik tahlil qilinmagan qarorlar esa muassasaning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [1].

Sun’iy intellekt texnologiyalari asosida esa, katta hajmdagi axborotlarni qisqa fursatda qayta ishlash, ruhiy va emotsional faktorlardan holi obyektiv xulosalar chiqarish, xavf va imkoniyatlarni oldindan prognoz qilish imkoniyatlari mavjud. Bunday tizimlar yordamida muassasa rahbariyati o‘z boshqaruv qarorlari natijadorligi va samaradorligini oldindan aniq baholay oladi. Ta’lim muassasalari faoliyatini real vaqtda monitoring qilish, bir nechta yo‘nalishdagi axborotlarni jamlab, ularni mukammal tahlil qilish imkoniyatidan to‘liq foydalanish orqali boshqaruv mazmuni va sifatini sezilarli darajada yaxshilash mumkin [2].

Muhokama va natijalar

Sun’iy intellekt asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish bir qancha muhim ustunliklarga ega. Eng muhimlaridan biri – barcha qatlamlardagi qaror sohiblari uchun axborotlarning shaffof va doimiy yangilanishi, xolis va adolatli tahlil hamda real holatga mos tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyatidir. Natijada boshqaruv tizimidagi inson omiliga bog’liq xatoliklar kamayadi, resurslar tejab-tergab ishlatiladi, faoliyat jarayonlari avtomatik va izchil boshqariladi. Sun’iy intellekt orqali o‘quvchilar, tahsil oluvchilar va pedagoglarning individual ehtiyojlarini aniqlash hamda har bir ishtirokchi uchun shaxsiy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish imkoni kengayadi. Bu esa o‘qitishda yuqori natijalarga erishish, innovatsion yondashuvlarni qo‘llash, rivojlanish strategiyalarini to‘g‘ri tanlash va o‘z vaqtida faoliyat yo‘nalishini o‘zgartirish imkonini beradi [3].

So‘nggi yillarda xorijiy davlatlar va mamlakatimizda ham ta’lim sohasida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish tajribalari bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilmoqda va ijobiy natijalar berayotgani kuzatilmoqda. Dastlabki bosqichlarda bu texnologiyalardan o‘quv natijalarini monitoring qilish, o‘qituvchilar faoliyatini baholash va o‘quv rejalari sifatini tahlil qilishda foydalanilmoqda. Shuningdek, ta’lim muassasalarini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda, muammolarni aniqlash va ularning oldini olish bo‘yicha ham sun’iy intellekt asosidagi dasturlar natijadorligi yuqori bo‘lmoqda. Ayrim yirik oliy ta’lim muassasalarida axborot texnologiyalari markazlari va sun’iy intellekt laboratoriyalari tashkil etilgan. Ularda boshqaruvni avtomatlashtirish, jahonda qo‘llanilayotgan zamonaviy tajribalardan foydalanish, ichki va tashqi muhit tahlillari asosida optimallashtirilgan dasturlar ishlab chiqilmoqda. Natijada, boshqaruv sohasida inson faktoriga bog‘liq sub’ektiv qarorlar soni kamaydi, axborotlarni tahlil qilish va qaror qabul qilishda tezkorlik sezilarli oshdi [4].

Keng ko‘lamli statistik tahlillar orqali o‘quvchilarning qobiliyatiga mos individual dasturlar ishlab chiqilmoqda, resurslar samarali taqsimlanmoqda va boshqaruv strategiyalari optimallashtirilmoqda. Bu esa ta’lim sohasida sifat va samaradorlikning oshishiga va xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallashga zamin hozirlayapti. Har qanday innovatsion tizimlarni joriy etishda, shu jumladan sun’iy intellekt asosidagi boshqaruv tizimida ham, qator muammolar vujudga kelishi mumkin. Eng avvalo, mavjud infratuzilmaning texnik imkoniyatlari, axborot texnologiyalari xavfsizligi va axborotlarning to‘g‘ri va ishonchli saqlanishi muammosi dolzarbdir. Keng va ko‘lamli ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash uchun zamonaviy texnik vositalar, kuchli serverlar va tezkor dasturlar hamisha yetarli emas [5].

Hozirgi kunda sun’iy intellekt orqali boshqaruv qarorlarini qabul qilish tizimlari jahon miqyosida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim muassasalarida bu texnologiya yordamida ilgari inson faktori sabab yuzaga kelgan ko‘plab muammolar o‘z yechimini topmoqda. An’anaviy boshqaruv tizimida qarorlarni qabul qilish ko‘pincha subyektiv yondashuv, cheklangan axborot hamda vaqt va resurslarni

sarflash bilan bog‘liq bo‘lar edi. Sun’iy intellekt esa ushbu holatlarni tubdan o‘zgartirishga yordam bermoqda. Eng avvalo, sun’iy intellekt asosida ma’lumotlar bazasini to‘plash, ularni tezkor va chuqur tahlil qilish mumkin. Ma’lumotlar ustida ishlash, ularni saralash va tuzilmaga solish, turli sohalar bo‘yicha kesimda statistik va semantik tahlil o‘tkazish jarayonlari avtomatlashtiriladi. Bu orqali ta’lim muassasasidagi mavjud ahvolni real va holis baholash mumkin bo‘ladi. Muassasa faoliyatining deyarli barcha jihatlari — o‘quvchilar ishtiroki, o‘qituvchilarning natijalari, o‘quv jarayoniga oid muammolar, texnik va moliyaviy ta’minot, qatnovdan tortib, baholash, mavzular o‘zlashtirilishi, fanlar kesimida kamchiliklar va ilg‘or yutuqlar — barchasi sun’iy intellekt yordamida mukammal tahlil qilinadi.

Sun’iy intellekt yordamida resurslarni optimal boshqarish imkoniyati ham vujudga keladi. Bu jarayonda moddiy, moliyaviy, tashkiliy va inson resurslarini aniq tahlil asosida taqsimlashga erishish imkoniyati kengayadi. Bundan tashqari, boshqaruv sohasida o‘zgarishlar kiritilayotgan vaqtda mazkur o‘zgarishlarning salbiy yoki ijobiy oqibatlarini oldindan ko‘ra olish, kerakli xulosalarni chiqarish, muvaffaqiyatli strategiyalar yaratish va yangilanishga doim tayyorlik holatini shakllantirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Sun’iy intellekt yordamida har bir qarorning aniqligi, shaffofligi va ishonchliligi sezilarli darajada oshadi. Bunday yondashuv boshqaruv jarayonlarini zamon talablari va raqobatbardoshlik mezonlariga uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Ma’lumotlar va statistik tahlil asosida qabul qilinadigan har bir qaror muassasa rivoji uchun manzilli va samarali natija beradi.

Xulosa

Maqolada sun’iy intellekt asosida ta’lim muassasalarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish tizimini takomillashtirish masalasi muhim ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilindi. Zamonaviy intellektual texnologiyalar yordamida boshqaruvni avtomatlashtirish, axborotlarni obyektiv tahlil qilish, natijada faoliyat samaradorligini oshirish, resurslarni tejash, sifat va shaffoflikni ta’minlash imkoniyatlari yaratilmoqda. Bunda inson omilining ahamiyati saqlanib qoladi – boshqaruv organlarining texnologik savodxonligini oshirish, milliy qadriyatlarni inobatga olish va sun’iy intellekt yordamida chiqarilgan qarorlarda ijtimoiy-axloqiy jihatlarni muvofiqlashtirish muhim. Natijada raqamli transformatsiyaga asoslangan yangi avlod ta’lim boshqaruvi shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. U. Toshmatov, “Oliy ta’limda raqamli boshqaruv tizimlari va ularning samaradorligi”, Toshkent, 2019.
2. G. Ergasheva, “Raqamli transformatsiya asosida oliy ta’lim muassasalarini strategik boshqarish”, Samarqand, 2020.
3. N. Sharipova, “Strategik menejment va raqamli texnologiyalar integratsiyasi: tajriba va yangiliklar”, Farg‘ona, 2021.
4. I. Yuldashev, “Ta’limda raqamli innovatsiyalar va ularni samarali boshqarish yo‘llari”, Toshkent, 2022.
5. Z. Abdullaeva, “Oliy ta’lim transformatsiyasida strategik yondashuvlar”, Buxoro, 2023.
6. S. Kadirova, “Oliy ta’limda raqamli menejmentning zamonaviy tendensiyalari”, Nukus, 2024.

OLIY TA’LIMDA SOHAGA OID HUQUQIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING MILLIY VA XORIJIY TAJRIBASI

Xudayberdiyev Erkin Umedovich
Buxoro davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada oliy ta’limda sohaga oid huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishning O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlardagi tajribasi qiyosiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Milliy amaliyotdagi normativ ta’minot, davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, ishlab chiqarish amaliyoti va kasbiy etika mazmuni xorijiy natijaga yo‘naltirilgan akkreditatsiya, klinik ta’lim, simulyatsiya, loyiha va portfolio asosidagi baholash mexanizmlari bilan solishtirilgan. Natijalar odatiy mamlakatlar tavsifi tarzida emas, tajriba xaritasi, to‘rt pedagogik arxetip va “transfer filtri” vositasida muhokama qilingan. O‘zbekiston oliy ta’limi uchun normativ yadro, sohaga oid keys, amaliy sinov, daliliy baholash hamda refleksiv yangilashdan iborat integratsiya modeli taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, huquqiy kompetensiya, kasbiy kompetensiya, milliy tajriba, xorijiy tajriba, akkreditatsiya, klinik ta’lim, keys, simulyatsiya, portfolio, qiyosiy pedagogika.

НАЦИОНАЛЬНЫЙ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ ОТРАСЛЕВЫХ ПРАВОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ

Худайбердиев Эркин Умедович
независимый исследователь Бухарского государственного технического университета

Аннотация. В статье представлен сравнительно-педагогический анализ национального и зарубежного опыта формирования отраслевых правовых компетенций в высшем образовании. Национальная модель сопоставляется с результативной аккредитацией инженерных программ, клиническим обучением, симуляционными и проектными практиками, а также оцениванием на основе доказательств. Результаты обсуждаются посредством карты опыта, четырех педагогических архетипов и фильтра переноса. Для высшего образования Узбекистана предложена интеграционная модель, объединяющая нормативное ядро, отраслевой кейс, практическое испытание, доказательное оценивание и рефлексивное обновление.

Ключевые слова: высшее образование, правовая компетентность, профессиональная компетентность, национальный опыт, зарубежный опыт, аккредитация, клиническое обучение, кейс, симуляция, портфолио.

NATIONAL AND INTERNATIONAL EXPERIENCE IN DEVELOPING SECTOR-SPECIFIC LEGAL COMPETENCIES IN HIGHER EDUCATION

Xudayberdiyev Erkin Umedovich
Independent Researcher at Bukhara State Technical University

Abstract. The article offers a comparative pedagogical analysis of national and international approaches to developing sector-specific legal competencies in higher education. Uzbekistan’s regulatory and curricular mechanisms are compared with outcomes-based accreditation, clinical education, simulation, project work, and evidence-based assessment used internationally. Rather than presenting country descriptions, the findings are discussed through an experience map, four pedagogical archetypes, and a transfer filter. An integration model for Uzbekistan is proposed, connecting a regulatory core, discipline-specific cases, practical trials, evidence-based assessment,

and reflective renewal.

Keywords: higher education, legal competence, professional competence, national experience, international experience, accreditation, clinical education, case method, simulation, portfolio.

Kirish. Oliy ta’lim bitiruvchisining kasbiy qarori ko‘pincha faqat texnik yoki iqtisodiy emas, huquqiy oqibatga ham ega. Muhandis xavfsizlik me’yorini, pedagog ta’lim oluvchining huquqlarini, tibbiyot xodimi rozilik va maxfiylik talablarini, iqtisodchi shartnoma hamda moliyaviy javobgarlikni, axborot texnologiyalari mutaxassisi esa ma’lumotlarni himoya qilish qoidalarini hisobga oladi. Shu bois sohaga oid huquqiy kompetensiya umumiy huquq fanining qo‘shimcha natijasi emas, kasbiy faoliyat sifatini belgilaydigan tarkibiy qismdir.

O‘zbekistonda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun ta’limning uzluksizligi, sifat va davlat ta’lim standartlari bilan bog‘liq asoslarni belgilaydi [1]. Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ta’lim mazmunini amaliy ko‘nikmalar, xalqaro standartlar va mehnat bozori ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi [2]. Milliy malakalar tizimini rivojlantirishga doir hujjatlar ham natijani kasbiy vazifa va malaka bilan bog‘lashga yo‘nalgan [3]. Biroq normativ maqsadning mavjudligi uning o‘quv mashg‘uloti, amaliyot va baholashda bir xil darajada ro‘yobga chiqishini avtomatik ta’minlamaydi.

Muammo huquqiy mazmunning qaysi fan tarkibida berilishida emas, talaba uni kasbiy vaziyatda qanday ishga solishida namoyon bo‘ladi. Alohida huquq fanida qonunlarning umumiy mazmunini bilgan talaba mutaxassislik fanida yuzaga kelgan huquqiy xavfni ko‘rmasligi mumkin. Aksincha, faqat ishlab chiqarish amaliyotiga tayanish bilimning tasodifiy va muassasaga qaram bo‘lib qolishiga olib keladi. Tadqiqotning maqsadi milliy va xorijiy tajribadagi samarali mexanizmlarni aniqlash, ularning ko‘chirilish imkoniyatlarini baholash va O‘zbekiston oliy ta’limi uchun integratsiyalashgan pedagogik modelni asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Kompetensiyaviy yondashuvda bilim faoliyatdan ajratilmaydi. F. Weinert kompetensiyani muammoni hal qilish uchun zarur kognitiv resurslar bilan motivatsion va ijtimoiy tayyorgarlik birligi sifatida talqin qiladi [4]. D. Rychen va L. Salganik kompetensiyaning kontekstga bog‘liqligini ko‘rsatadi: bir xil bilim turli kasbiy vaziyatlarda turli usulda safarbar etiladi [5]. M. Mulder kasbiy kompetensiyani mehnat vazifasi, professional identifikatsiya va javobgarlik bilan bog‘laydi [6]. Bu qarashlar sohaga oid huquqiy kompetensiyani qonun moddalarini eslab qolishdan ko‘ra kengroq tushunishga asos beradi.

O‘zbekistonlik olim N.A. Muslimov kasbiy kompetentlikni mutaxassisning bilim va tajribani real faoliyatga ko‘chira olishi bilan bog‘laydi [7]. N.A. Muslimov, M.H. Usmonboyeva, D.M. Sayfurov va A.B. To‘rayev kompetentlikning o‘zini rivojlantirish, vaziyatga moslashish va amaliy natija yaratish jihatlarini yoritadi [8]. R. Ishmuhamedov va hammualliflar muammoli ta’lim, keys hamda interfaol metodlarning talaba faoliyatini faollashtirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi [9]. Ushbu yondashuvlar milliy metodik zaminni beradi, biroq sohaga oid huquqiy kompetensiyani aniq dalil va kasbiy hujjat bilan baholash masalasi qo‘shimcha ishlab chiqishni talab qiladi.

Xorijiy tajribada huquqiy tayyorgarlik turli nomlar ostida namoyon bo‘ladi. ABETning muhandislik dasturlarini akkreditatsiyalash mezonlari talabaning kasbiy va axloqiy mas’uliyatni tanishi, asoslangan qaror qabul qilishi, standartlar hamda huquqiy cheklovlarni loyihalashda hisobga olishini natija sifatida belgilaydi [10]. Buyuk Britaniyaning AHEP standarti muhandislik bitiruvchisi faoliyatida huquqiy, axloqiy va professional talablarni integratsiyalashga urg‘u beradi [11]. EUR-ACE ramkasi muhandislik amaliyotida standart, xavfsizlik, ijtimoiy va huquqiy cheklovlarni hisobga olishni dastur natijalari bilan bog‘laydi [12].


Yuridik ta’limdagi klinik yondashuv esa talabaning real yoki modellashtirilgan mijoz

muammosi ustida ishlashi, hujjat tayyorlashi, professional rolni bajarishi va faoliyatni refleksiv tahlil qilishiga asoslanadi. L. Shulman kasblarga xos “signature pedagogies” tushunchasi orqali professional fikrlash va javobgarlikni fan mazmuni bilan birga o‘rgatish zarurligini ko‘rsatadi [13]. Sullivan va hammualliflar yuridik ta’limda doktrinal bilim, amaliy ko‘nikma va professional identifikatsiya birligini asoslaydi [14]. Yevropa Ittifoqining umrbod ta’lim uchun tayanch kompetensiyalar tavsiyasi fuqarolik kompetensiyasida huquq, institutlar, mas’ul ishtirok va demokratik qadriyatlarni birlashtiradi [15].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot qiyosiy-pedagogik dizayn asosida olib borildi. Tahlil obyektlari davlatlar emas, huquqiy kompetensiyani shakllantirish mexanizmlari sifatida tanlandi. Bu yondashuv “qaysi mamlakat yaxshiroq?” degan soddalashtirilgan savoldan voz kechib, “qaysi mexanizm qanday sharoitda ishlaydi?” degan savolga javob izlash imkonini berdi. Manbalarni tanlashda to‘rtta mezon qo‘llandi: hujjat 2000-yildan keyin e’lon qilingan yoki yangilangan bo‘lishi; oliy yoki professional ta’lim natijalariga daxldorligi; huquq, standart, kasbiy mas’uliyat yoki dalillangan qaror bilan bevosita bog‘liqligi; tashkilotning rasmiy nashri yoxud tan olingan ilmiy manba bo‘lishi. Normativ-huquqiy tahlil, kontent-tahlil, funksional qiyoslash, pedagogik modellashtirish va transfer tahlili metodlaridan foydalanildi.

Qiyoslash uchun besh indikator belgilandi: huquqiy mazmunning o‘quv dasturidagi joyi; asosiy didaktik birlik; amaliyot muhiti; baholash dalili; dastur yangilanish mexanizmi. Har bir tajriba ushbu indikatorlar orqali kodlandi. Keyin mexanizmlar “alohida kurs–fanlarga integratsiya” va “deklarativ bilim–faoliyat dalili” koordinatalarida joylashtirildi. Yakuniy bosqichda transfer filtri yordamida bevosita o‘zlashtiriladigan, mahalliylashtirishni talab qiladigan va ko‘chirilishi maqsadga muvofiq bo‘lmagan elementlar ajratildi.

Natijalar. Tahlil natijasi milliy va xorijiy tajribani oddiy mamlakatlar ketma-ketligida emas, ikki o‘lchovli xaritada ko‘rish zarurligini ko‘rsatdi. Birinchi o‘lchov huquqiy mazmunning alohida fan sifatida yoki mutaxassislik fanlariga integratsiyalangan holda berilishini ifodalaydi. Ikkinchi o‘lchov natijaning test va og‘zaki bayon bilan yoxud real faoliyat mahsuli – hujjat, loyiha, ekspert xulosasi, portfolio va simulyatsiyadagi qaror bilan baholanishini ko‘rsatadi.



1-rasm. Sohaviy huquqiy kompetensiyani shakllantirish tajribalari xaritasi

Xarita milliy amaliyotda normativ bazaning kuchli, ammo o‘quv natijasini faoliyat dalili bilan tasdiqlashning notekis ekanini ko‘rsatadi. Xorijiy akkreditatsiya modellarida esa huquqiy mazmun alohida “huquq” blokida ko‘rinmasligi mumkin, lekin u loyiha cheklovlari, professional mas’uliyat, xavfsizlik va qaror oqibatlarini baholashga singdirilgan. Bu farq mazmun miqdoridan ko‘ra didaktik joylashuv va baholash usuliga taalluqlidir.

Birinchi arxetip – natijaga yo‘naltirilgan akkreditatsiya. ABET, AHEP va EUR-ACE tajribalarida dastur muayyan mavzu o‘tilganini emas, bitiruvchi kasbiy vaziyatda standart, xavfsizlik, huquqiy va axloqiy cheklovlarni hisobga ola olishini ko‘rsatishi kerak. Bu modelda huquqiy kompetensiya sillabusdagi soat bilan emas, o‘quv natijasi va uni tasdiqlovchi dalil bilan boshqariladi. Uning kuchli tomoni – dastur, topshiriq va baholashning bir yo‘nalishga keltirilishi; xavfi esa mezonlarning haddan tashqari umumiy yozilib, real mazmundan uzilib qolishidir.

Ikkinchi arxetip – klinik-professional ta’lim. Talaba huquqiy vaziyatni tayyor misol sifatida o‘qimaydi, balki professional rol ichida hujjat, manfaatdor tomon, muddat va oqibat bilan ishlaydi. Klinik model yuridik ta’limda shakllangan bo‘lsa-da, uning mantiqi pedagogika, tibbiyot, muhandislik va biznesga moslashtirilishi mumkin. Masalan, ta’lim yo‘nalishida ota-ona murojaati, muhandislikda xavfsizlikka oid nomuvofiqlik, axborot texnologiyalarida shaxsiy ma’lumotlar buzilishi klinik topshiriq vazifasini bajaradi.

Uchinchi arxetip – o‘quv rejasiga singdirilgan muvofiqlik. Bu yerda huquq alohida mavzu bo‘lib qolmaydi: laboratoriya protokolida standart talabi, loyihada ruxsat va xavfsizlik, pedagogik amaliyotda ta’lim oluvchi huquqi, biznes-rejada litsenziya va shartnoma masalasi qo‘shiladi. Mazkur arxetip takroriy uchrashuvlar orqali kompetensiyani chuqurlashtiradi, lekin fan o‘qituvchilari o‘rtasida kelishilgan natija va terminologiya bo‘lmasa, fragmentatsiya yuz beradi.

To‘rtinchi arxetip – professional identifikatsiya va qadriyatlar. Huquqiy kompetensiya faqat “nima mumkin?” savoliga emas, “vakolatdan qanday mas’uliyat bilan foydalanish kerak?” savoliga ham javob beradi. Yevropa fuqarolik kompetensiyasi va kasbiy standartlar huquq, etik prinsip, jamiyat manfaatlari va javobgarlikni birlashtiradi. Bu arxetipning natijasi vaziyatni formal

qonuniylik darajasida emas, manfaatdor tomonlar va uzoq muddatli oqibatlar nuqtayi nazaridan baholashdir.


Xorijiy tajribani o‘rganishda eng muhim savol modelning nufuzi emas, uning milliy tizimga ko‘chirilganda funksiyasini saqlab qolishidir. Shu maqsadda uch bosqichli transfer filtri ishlab chiqildi. Birinchi bosqich mexanizmning universalligini, ikkinchisi O‘zbekiston qonunchiligi va ta’lim tuzilmasiga mosligini, uchinchisi esa uni amalga oshirish uchun o‘qituvchi, hamkor tashkilot va baholash resurslarining mavjudligini tekshiradi.

2-jadval

Xorijiy tajribani milliy ta’limga ko‘chirish filtri

Mexanizm	Transfer qarori	Asos
O‘quv natijasini faoliyat fe’li bilan yozish	Bevosita o‘zlashtirish mumkin	Barcha yo‘nalishlarda qo‘llanadi; katta institutsional xarajat talab qilmaydi
Keys, simulyatsiya va portfolio	Mahalliylashtirish talab etiladi	Keys milliy qonunchilik, vakolat va mahalliy hujjat shakllariga qurilishi kerak
Professional standart va akkreditatsiya natijalarini uyg‘unlashtirish	Bosqichma-bosqich joriy etish	Mehnat bozori, ish beruvchi va ta’lim muassasasi kelishuvi zarur
Huquq klinikasining tashkiliy modeli	Moslashtirilgan shaklda	Barcha sohada haqiqiy mijoz bilan ishlash mumkin emas; simulyatsiya va “regulyator laboratoriyasi” muqobil bo‘ladi
Xorijiy qonun va hujjat shakllarini aynan ko‘chirish	Ko‘chirilmaydi	Huquqiy yurisdiksiya, vakolat va protseduralar farq qiladi
Faqat xalqaro reyting uchun mezon kiritish	Ko‘chirilmaydi	Mazmun real kasbiy vazifa va milliy ehtiyoj bilan bog‘lanmasa formalizm kuchayadi

O‘zbekiston oliy ta’limi uchun integratsiya modeli. Qiyosiy natijalar asosida besh bo‘g‘inli integratsiya modeli taklif etildi. Uning farqi shundaki, huquqiy fan, mutaxassislik fani va amaliyot alohida natijalar yaratmaydi; ular bir xil kasbiy-huquqiy vaziyat atrofida bog‘lanadi. Normativ yadro talabaga manbani beradi, sohaga oid keys muammoni ko‘rsatadi, amaliy sinov qarorni harakatga aylantiradi, daliliy baholash kompetensiyani tasdiqlaydi, refleksiya va yangilash esa o‘zgarayotgan qonunchilikka moslashishni ta’minlaydi.



2-rasm. Sohaga oid huquqiy kompetensiyani integratsiyalash modeli

Muhokama. Model modul emas, o‘quv dasturini bog‘lovchi mexanizm sifatida ishlaydi. Masalan, muhandislikda “mahsulot xavfsizligi bo‘yicha nomuvofiqlik” vaziyati huquq fanida normativ vakolat, mutaxassislik fanida texnik sabab, laboratoriyada o‘lchash dalili, loyiha fanida tuzatish yechimi va yakuniy baholashda ekspert xulosasi orqali o‘rganiladi. Pedagogik yo‘nalishda esa “ta’lim oluvchining huquqi buzilishi” vaziyati ta’lim qonunchiligi, pedagogik etika, kommunikatsiya, hujjat yuritish va refleksiv tahlilni birlashtiradi. Integratsiyaga qarshi birinchi dalil – o‘quv rejasining allaqachon yuklanganidir. Biroq taklif etilgan model yangi fan yoki qo‘shimcha soatni shart qilib qo‘ymaydi; mavjud laboratoriya, loyiha va amaliyot topshiriqlariga huquqiy mezon hamda hujjat talabini kiritadi. Demak, masala ko‘proq mazmunni muvofiqlashtirishda, kamroq yangi yuklama yaratishdadir.

Ikkinchi dalil – mutaxassislik fani o‘qituvchisining yuridik tayyorgarligi yetarli bo‘lmasligi mumkin. Bu xavf fanlararo topshiriqlar banki, soha yuristi bilan ekspertiza, rasmiy normativ manbaga havola va o‘qituvchilar uchun qisqa metodik modullar orqali kamaytiriladi. O‘qituvchidan yurist vazifasini bajarish emas, huquqiy muammoni tanish va talabani ishonchli manbaga yo‘naltirish talab etiladi.

Uchinchi cheklov – autentik baholashning subyektivligi. Portfolio yoki keys javobi bitta “to‘g‘ri” variantga ega bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun rubrikada qarorning o‘zi emas, manbaning dolzarbligi, talqinning aniqligi, dalilning yetarliligi, vakolat chegarasi, oqibat tahlili va hujjat sifati baholanishi kerak. Ikki ekspertli tekshiruv va namunaviy dalillar baholash ishonchliligini oshiradi.

To‘rtinchi cheklov – qonunchilikning tez yangilanishi. Statik darslik tez eskiradi. Shu sababli talabaga barcha hujjatlarni yodlatishdan ko‘ra, rasmiy bazadan amaldagi tahrirni topish, o‘zgarishni kuzatish va yangi normani mavjud kasbiy jarayonga tatbiq etish algoritmini o‘rgatish barqarorroq natija beradi.

Xulosa va takliflar. Milliy va xorijiy tajriba tahlili sohaga oid huquqiy kompetensiya alohida huquq fanining hajmi bilan emas, huquqiy mazmunning kasbiy vazifa, amaliy sinov va daliliy baholash bilan qanchalik bog‘langaniga qarab shakllanishini ko‘rsatdi. O‘zbekiston tajribasining kuchli jihati milliy qonunchilik va davlat talablari bilan mustahkam normativ asos mavjudligidir.

Rivojlantirilishi zarur bo‘lgan jihat esa huquqiy natijaning mutaxassislik fanlari bo‘ylab izchil takrorlanishi va real faoliyat mahsuli bilan baholanishidir. Xorijiy tajribadan natijaga yo‘naltirilgan akkreditatsiya, klinik-professional topshiriq, o‘quv rejasiga singdirilgan muvofiqlik va professional identifikatsiya arxetiplari ajratildi. Ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, transfer filtri orqali milliy qonunchilik, ta’lim resurslari va kasbiy vazifalarga moslashtirish zarur.

Amaliy jihatdan har bir ta’lim yo‘nalishi uchun takrorlanuvchi 6–8 ta asosiy kasbiy-huquqiy vaziyat bankini yaratish; malaka talablaridagi huquqiy natijalarni faoliyat fe’llari bilan aniqlashtirish; amaliyot hisobotiga normativ qaror va hujjat dalilini kiritish; keys, simulyatsiya, portfolio va ekspert xulosasini baholash tizimiga qo‘shish; o‘qituvchi–soha yuristi–ish beruvchi hamkorligida topshiriqlarni muntazam yangilash tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/docs/5013007

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. https://lex.uz/docs/4545884

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi 287-son qarori. O‘zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi to‘g‘risida. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/

4. Weinert F.E. Concept of Competence: A Conceptual Clarification // Defining and Selecting Key Competencies / eds. D.S. Rychen, L.H. Salganik. Seattle: Hogrefe & Huber, 2001. P. 45–65.

5. Rychen D.S., Salganik L.H. (eds.). Key Competencies for a Successful Life and a Well-Functioning Society. Göttingen: Hogrefe & Huber, 2003. 206 p.

6. Mulder M. Competence-Based Vocational and Professional Education: Bridging the Worlds of Work and Education. Cham: Springer, 2017. https://doi.org/10.1007/978-3-319-41713-4

7. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped. fan. dokt. diss. Toshkent, 2007.

8. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent: Sano-standart, 2015. 120 b.

9. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Iste’dod, 2008. 180 b.

10. ABET. Criteria for Accrediting Engineering Programs, 2025–2026. Baltimore: ABET, 2025. https://www.abet.org/accreditation/accreditation-criteria/criteria-for-accrediting-engineering-programs-2025-2026/

11. Engineering Council. Accreditation of Higher Education Programmes: Fourth Edition. London: Engineering Council, 2020. https://www.engc.org.uk/standards-guidance/standards/uk-spec-and-ahep/

12. ENAEE. EUR-ACE Framework Standards and Guidelines. 2021 edition. Brussels: European Network for Accreditation of Engineering Education, 2021. https://www.enaee.eu/eur-ace-system/standards-and-guidelines/

13. Shulman L.S. Signature Pedagogies in the Professions // Daedalus. 2005. Vol. 134, No. 3. P. 52–59. https://doi.org/10.1162/0011526054622015

14. Sullivan W.M., Colby A., Wegner J.W., Bond L., Shulman L.S. Educating Lawyers: Preparation for the Profession of Law. San Francisco: Jossey-Bass, 2007. 245 p.

15. Council of the European Union. Council Recommendation of 22 May 2018 on Key Competences for Lifelong Learning // Official Journal of the European Union. 2018. C 189. P. 1–13. https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32018H0604(01)

DUAL TA’LIM SHAROITIDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA O‘QITUVCHI FAOLIYATI VA REFLEKSIV TEXNOLOGIYALARNING METODIK AHAMIYATI

Saidjonova Parvina Shuxratovna,
Buxoro davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda dual ta’limni joriy etishning pedagogik-metodik xususiyatlari, professor-o‘qituvchilarning dual ta’lim sharoitidagi yangi funksional vazifalari hamda refleksiv texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Dual ta’limda nazariy va amaliy tayyorgarlikning oddiy navbatlashuvi emas, balki oliy ta’lim tashkiloti, korxona, pedagog, ishlab chiqarish mentori va talaba faoliyatining yagona kompetensiyaviy natijaga yo‘naltirilgan integratsiyasi ustuvor ekanligi asoslangan. O‘qituvchining dasturiy-loyihalash, koordinatsion, metodik, diagnostik-baholash va refleksiv funksiyalari aniqlashtirilgan. Mazkur sikl kasbiy bilimlarni real ishlab chiqarish vaziyatlariga transfer qilish, mustaqil qaror qabul qilish va kasbiy o‘zini rivojlantirishni ta’minlovchi metodik mexanizm sifatida asoslangan.

Kalit so‘zlar: dual ta’lim, kasbiy kompetensiya, professor-o‘qituvchi, korxona, mentor, refleksiya, refleksiv texnologiya, nazariya va amaliyot integratsiyasi, kasbiy faoliyat, baholash, qayta aloqa.

МЕТОДИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ И РЕФЛЕКСИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Саиджонова Парвина Шухратовна,
независимый исследователь Бухарского государственного технического университета

Аннотация. В статье проанализированы педагогико-методические особенности внедрения дуального образования в формирование профессиональных компетенций студентов, новые функциональные задачи преподавателей, а также возможности применения рефлексивных технологий. Уточнены проектировочная, координационная, методическая, диагностико-оценочная и рефлексивная функции преподавателя, обеспечивающая перенос теоретических знаний в реальные производственные ситуации, осознанное профессиональное действие и совершенствование профессиональных компетенций студента.

Ключевые слова: дуальное образование, профессиональная компетентность, преподаватель, предприятие, наставник, рефлексия, профессиональная деятельность, оценивание, обратная связь.

METHODOLOGICAL SIGNIFICANCE OF TEACHER ACTIVITY AND REFLECTIVE TECHNOLOGIES IN DEVELOPING STUDENTS’ PROFESSIONAL COMPETENCIES IN DUAL EDUCATION

Saidjonova Parvina Shuxratovna,
Independent Researcher at Bukhara State Technical University

Abstract. The article examines the pedagogical and methodological features of implementing dual education for developing students’ professional competencies, with particular attention to the changing functions of university teachers and the use of reflective technologies. The teacher’s

curriculum-design, coordination, methodological, diagnostic-assessment and reflective functions are specified. The cycle is interpreted as a methodological mechanism that facilitates the transfer of theoretical knowledge to authentic workplace situations, conscious professional decision-making, self-assessment and continuous improvement of students’ professional competence.

Keywords: dual education, professional competence, teacher, enterprise, workplace mentor, reflection, professional activity, assessment, feedback.

Kirish. Zamonaviy mehnat bozori oliy ta’lim bitiruvchisidan nazariy bilimlarning mavjudliginigina emas, balki ularni real kasbiy vaziyatlarda mustaqil qo‘llash, ishlab chiqarish muammolarini tahlil qilish, texnologik va tashkiliy qarorlar qabul qilish, kasbiy harakat natijalarini baholash hamda o‘z faoliyatini takomillashtira olishni talab etmoqda. Bunday sharoitda ta’limning amaliyotdan nisbatan ajralgan modeli o‘rniga nazariya va ishlab chiqarish faoliyatining uzviy integratsiyasiga asoslangan dual ta’limning ahamiyati ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida dual ta’lim nazariy qismi ta’lim tashkilotida, amaliy qismi esa ta’lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladigan ta’lim shakli sifatida belgilangan [1]. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-yanvardagi 14-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomda esa oliy ta’limdagi dual ta’limning maqsadi talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, tegishli ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish hamda oliy ta’lim va korxona hamkorligini tizimli tashkil etish bilan bog‘langan [2]. Mazkur qarorga ko‘ra, 2025/2026-o‘quv yilidan boshlab oliy ta’lim tizimida dual ta’lim bosqichma-bosqich joriy etilishi belgilangan. Shu nuqtayi nazardan dual ta’limni talabaning muayyan kunlarda korxonaga borishi yoki oddiy ishlab chiqarish amaliyotining kengaytirilgan shakli sifatida tushunish yetarli emas. Uning pedagogik mohiyati ta’lim mazmuni – real kasbiy faoliyat – pedagogik rahbarlik – ishlab chiqarish mentorligi – baholash – refleksiya komponentlarining yagona natijaga yo‘naltirilgan integratsiyasidan iborat.

S.G‘. Siddiqova va P.Sh. Saidjonova oliy ta’limdagi pedagogik faoliyatning mazmunini maqsad, subyekt, obyekt va pedagogik o‘zaro ta’sir birligi bilan bog‘lab, pedagog faoliyatining ta’lim natijasini loyihalashdagi o‘rniga alohida e’tibor qaratadilar [3].

Z.Sh. To‘xtayeva va A.A. Mamedova ta’lim muassasalari bilan korxonalar o‘rtasidagi integrativ hamkorlik masalasini kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishning muhim sharti sifatida ko‘rsatadilar [4]. Bu yondashuv dual ta’limda o‘qituvchi faoliyatini an’anaviy auditoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish chegarasidan chiqarib, korxona bilan hamkorlikda ta’lim natijasini loyihalovchi pedagogik koordinator darajasiga olib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan va refleksiv yondashuvlar metodologik asos sifatida qabul qilindi. Nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, pedagogik modellashtirish, kasbiy vaziyatlarni loyihalash hamda refleksiv faoliyatni strukturaviy tahlil qilish metodlaridan foydalanildi.

Kasbiy kompetensiya mazmunini aniqlashda N.A.Muslimov va hammualliflarning kompetentlikni bilimni egallashning o‘zi emas, balki uni kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishda safarbar etish imkoniyati sifatida talqin etuvchi qarashlari metodik ahamiyatga ega [5].

Mahalliy tadqiqotlarda dual ta’limning nazariya va amaliyot integratsiyasiga asoslanganligi ham alohida qayd etiladi. M. Avezova dual ta’limni tashkil etishda predmet xususiyati, oliy ta’lim tashkiloti va amaliyot bazasining funksional hamkorligi hamda milliy modelni ishlab chiqish zarurligiga urg‘u beradi [6].

Natijalar va muhokama. Dual ta’limni joriy etishda asosiy metodik o‘zgarishlardan biri professor-o‘qituvchi faoliyati mazmunining kengayishidir. An’anaviy ta’limda pedagogning ustuvor vazifasi fan mazmunini tushuntirish, mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘zlashtirishni nazorat

qilishdan iborat bo‘lsa, dual ta’limda u ta’lim tashkiloti va korxona o‘rtasidagi pedagogik aloqani ta’minlovchi subyektga aylanadi. Shu sababli dual ta’lim professor-o‘qituvchidan, birinchidan, dual ta’limga oid normativ-huquqiy hujjatlarni bilishni; ikkinchidan, ta’lim dasturini korxonaning real kasbiy faoliyati bilan muvofiqlashtira olishni; uchinchidan, o‘quv natijalarini korxonadagi amaliy vazifalar orqali diagnostika qilishni; to‘rtinchidan, korxona mentori bilan hamkorlikda baholash mezonlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Fleming, Rowe va Jackson ish joyidagi rahbar yoki mentorning vazifasi talabani faqat ishlab chiqarish operatsiyalariga o‘rgatish emas, balki universitetda egallangan bilim va ko‘nikmalarning ish joyidagi faoliyatga transferini qo‘llab-quvvatlash ekanligini ko‘rsatgan [9].

Mazkur qarashdan kelib chiqib, dual ta’limda universitet o‘qituvchisining quyidagi beshta integrativ funksiyasi aniqlashtirildi:

1-jadval

Dual ta’limda universitet o‘qituvchisining integrativ funksiyalari

O‘qituvchi funksiyasi	**Dual ta’limdagi mazmuni**	**Kasbiy kompetensiyaga ta’siri**
Dasturiy-loyihalash	Fan natijalari va korxona vazifalarini muvofiqlashtirish	Nazariy bilimning kasbiy yo‘nalganligi
Koordinatsion	OTM–korxona–mentor–talaba aloqasini boshqarish	Hamkorlik va kasbiy kommunikatsiya
Metodik	Real vaziyatlar, case, loyiha va dual topshiriqlarni ishlab chiqish	Bilimni amaliy faoliyatga transfer qilish
Diagnostik-baholash	Pedagog va mentor mezonlarini uyg‘unlashtirish	Kompetensiya rivojlanishini xolis baholash
Refleksiv	Talabaning kasbiy tajribasini anglash va tahlil qilishini tashkil etish	O‘zini baholash va kasbiy o‘zini rivojlantirish

Demak, dual tizim o‘qituvchidan nafaqat o‘z fanini chuqur bilishni, balki korxonadagi texnologik va tashkiliy jarayonlarni tushunish, real ishlab chiqarish vazifalarini o‘quv topshirig‘iga transformatsiya qilish hamda natijani kompetensiyaviy mezonlar asosida baholash qobiliyatini ham talab qiladi.

Dual ta’lim dasturi auditoriya va korxona mashg‘ulotlarini mexanik tarzda ikkiga bo‘lish asosida qurilmasligi kerak. Aksincha, har bir nazariy mavzu tegishli ishlab chiqarish vazifasi bilan, har bir ishlab chiqarish topshirig‘i esa muayyan o‘quv natijasi bilan bog‘lanishi lozim.

Shuning uchun dual o‘quv dasturini loyihalashda quyidagi metodik bog‘lanish asosiy o‘rin tutadi: o‘quv natijasi → nazariy bilim → ishlab chiqarish vazifasi → talabaning kasbiy harakati → mentor qayta aloqasi → refleksiya → kompetensiya natijasi. Bunday yondashuv nazariya va amaliyotni bir-biriga tashqi ravishda qo‘shish emas, ularni bitta kasbiy vazifani hal qilish doirasida

integratsiyalash imkonini beradi.

V. Björck work-integrated learning kontekstida nazariya va amaliyotni bir-biridan mutlaq ajratib qarash talaba tasavvurida “nazariya–amaliyot uzilishi”ni kuchaytirishi mumkinligini ta’kidlaydi [8]. Shu sababli muallif nazariy bilimning kasbiy faoliyatning ichida qanday namoyon bo‘lishini anglatishga asoslangan yaxlit yondashuvni ilgari suradi.


Mazkur fikr dual ta’lim metodikasi uchun prinsipial ahamiyatga ega: talaba “universitetda nazariya, korxonada amaliyot” tarzida emas, balki “nazariy bilim – kasbiy harakatning ilmiy asosi” ekanligini anglab yetishi kerak.

Talabaning korxonada muayyan operatsiyani bajarishi hali uning kasbiy kompetensiyasi to‘liq shakllanganligini anglatmaydi. Tajriba faqat talaba o‘z harakatining maqsadi, usuli, natijasi, xatosi va uni takomillashtirish yo‘lini anglagandagina kasbiy rivojlanish manbaiga aylanadi. Shu nuqtayi nazardan refleksiya dual ta’limdagi tajriba bilan kompetensiya o‘rtasidagi metodik bog‘lovchi bo‘g‘in hisoblanadi.

Refleksiya talabaning “Men nima qildim?” degan savoliga javob berish bilangina cheklanmaydi. Uning mazmunida “Nima uchun aynan shunday harakat qildim?”, “Qaysi nazariy bilimdan foydalandim?”, “Natija nima sababdan kutilganidek bo‘ldi yoki bo‘lmadi?”, “Mentorning fikri mening yondashuvimni qanday o‘zgartiradi?”, “Keyingi safar nimani boshqacha bajaraman?” kabi kasbiy-metodik savollar mujassam bo‘lishi kerak.

F.Trede va D.Jacksonning tadqiqotida ish bilan integratsiyalashgan ta’limdan keyingi maqsadli tashkil qilingan tengdoshlar refleksiyasi talabalarda professional agentlikni rivojlantirishga yordam berishi ko‘rsatilgan [10]. Mualliflar dialogik va yozma refleksiyaning kasbiy tajribani ongli tahlil qilishdagi ahamiyatini asoslaganlar. Shunga ko‘ra, dual ta’limda refleksiya individual yozma hisobot, refleksiv kundalik, mini-esse, mentor bilan tahliliy suhbat, kichik guruh muhokamasi, case-debriefing, davra suhbati yoki o‘zaro baholash shaklida tashkil etilishi mumkin. Muhimi, refleksiya amaliy faoliyat yakunidagi formal hisobot emas, balki navbatdagi kasbiy harakatni takomillashtiruvchi pedagogik jarayon sifatida loyihalanishi lozim.

Tadqiqot tahlillari asosida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan refleksiv-dual sikl taklif qilindi:



1-rasm. Kasbiy kompetensiya rivojlanishining refleksiv-dual sikli

Mazkur siklning ilmiy-metodik xususiyati shundaki, talabaning korxonada bajargan harakati yakuniy natija sifatida emas, balki “faoliyat – tahlil – qayta aloqa – refleksiya – korreksiya – takomillashtirilgan faoliyat” ning takrorlanuvchi rivojlantiruvchi jarayoni sifatida tashkil etiladi. Bu yondashuvda xato salbiy natija sifatida emas, balki kompetensiyani rivojlantirish uchun diagnostik axborot manbai sifatida qabul qilinadi.

An’anaviy baholashda o‘qituvchi asosiy baholovchi sifatida qatnashsa, dual ta’limda kasbiy natijani bitta subyekt nuqtayi nazaridan baholash yetarli emas. Chunki talabaning faoliyati bir vaqtning o‘zida akademik va ishlab chiqarish mezonlariga javob berishi kerak.

Pedagog nazariy asoslanganlik, tahliliy fikrlash va metodik to‘g‘rilikni baholasa, korxona mentori harakatning ishlab chiqarishga mosligi, xavfsizligi, tezkorligi va amaliy samaradorligini baholaydi. Talabaning o‘zini baholashi esa uning refleksiv va metakognitiv rivojlanishini namoyon etadi.

Work-integrated learning bo‘yicha tadqiqotlarda bunday tajribaning inson kapitali, kasbiy o‘zini boshqarish va bitiruvchining o‘z mehnat imkoniyatlarini idrok etishi bilan bog‘liqligi qayd etilgan [11]. Ng, Wut va Chan 588 nafar amaliyot tajribasiga ega talaba ma’lumotlarini tahlil qilganlar va WIL doirasidagi tajribaning ishga tayyorlik bilan aloqasini ko‘rsatganlar. Shunday qilib, dual baholash “talaba topshiriqni bajardimi yoki yo‘qmi?” degan savoldan “talaba vazifani

qanchalik mustaqil bajardi, qarorini qanday asoslay oldi, qayta aloqa asosida o‘z harakatini qanday takomillashtirdi?” degan kompetensiyaviy savollarga o‘tishni talab qiladi. Olib borilgan tahlillar asosida dual ta’lim orqali talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligi bir necha o‘zaro bog‘liq pedagogik shartlarga tayangan holda ta’minlanishi aniqlandi.

Birinchi shart – o‘quv fanlari natijalari bilan korxonadagi real kasbiy vazifalar o‘rtasida mazmuniy muvofiqlikning mavjudligi.

Ikkinchi shart – universitet pedagogi va korxona mentorining vazifalari, baholash mezonlari va qayta aloqa mexanizmlarining oldindan kelishilganligi.

Uchinchi shart – talabaga oddiy kuzatuvchi yoki ijrochi emas, balki muammoni tahlil qiluvchi va qaror ishlab chiquvchi faol subyekt sifatida yondashish.

To‘rtinchi shart – ishlab chiqarish tajribasining har bir muhim bosqichini maqsadli refleksiya bilan yakunlash.

Beshinchi shart – baholashda faqat faoliyat natijasini emas, balki talabaning mustaqilligi, tahlili, kasbiy qarori, xatoni anglash darajasi va takomillashtirish dinamikasini ham hisobga olish.

Mazkur shartlar bajarilganda dual ta’lim korxonada ma’lum vaqt ishlash shaklidan talabaning kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantiruvchi pedagogik tizimga aylanadi.

Xulosa. Dual ta’limni talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish vositasi sifatida samarali joriy etish oliy ta’lim tashkiloti va korxona faoliyatini faqat tashkiliy jihatdan bog‘lashni emas, balki ularning maqsad, mazmun, topshiriq, mentorlik, baholash va refleksiya mexanizmlarini metodik integratsiyalashni talab qiladi. Dual ta’lim sharoitida professor-o‘qituvchi an’anaviy bilim yetkazuvchi rolidan ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyani loyihalovchi, real kasbiy vaziyatlarni o‘quv topshiriqlariga transformatsiya qiluvchi, korxona mentori bilan hamkorlik qiluvchi hamda talabaning kasbiy tajribasini refleksiv tahlil qilishga yo‘naltiruvchi pedagogik koordinator roliga o‘tadi.

Tadqiqot natijasida o‘qituvchining dasturiy-loyihalash, koordinatsion, metodik, diagnostik-baholash va refleksiv funksiyalari dual ta’limning samaradorligini belgilovchi asosiy funksional komponentlar sifatida aniqlashtirildi. Shuningdek, “faoliyat – qayta aloqa – refleksiya – korreksiya – takroriy kasbiy harakat” refleksiv-dual sikli talabaning ishlab chiqarish tajribasini ongli kasbiy tajribaga, ongli tajribani esa barqaror kasbiy kompetensiyaga aylantiruvchi metodik mexanizm sifatida taklif etildi.

Bunda refleksiya ishlab chiqarish amaliyotining yakuniy hisoboti emas, balki talabaning o‘z kasbiy harakatini tahlil qilish, xatolarning sabablarini aniqlash, pedagog va mentor qayta aloqasini qabul qilish hamda keyingi faoliyat strategiyasini takomillashtirishga xizmat qiluvchi rivojlantiruvchi texnologiyaga aylanadi.

Demak, dual ta’limning pedagogik samaradorligi talabaning korxonada qancha vaqt bo‘lishi bilan emas, balki uning ushbu davrda qanday kasbiy muammoni hal qilgani, nazariy bilimini qanday qo‘llagani, faoliyati natijasini qanday tahlil qilgani va qayta aloqa asosida o‘z harakatini qay darajada takomillashtira olgani bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ–637-son. – 2020-yil 23-sentabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2025-yil 16-yanvardagi 14-son qarori.

3. Siddiqova S.G‘., Saidjonova P.Sh. Oliy ta’lim tizimida pedagogik faoliyatning mazmuni va maqsadi // Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Vol. 3, Special issue 4. – B. 270–274.

4. To‘xtayeva Z.Sh., Mamedova A.A. Professional ta’lim muassasalari va korxonalarning

integrativ hamkorligi mazmuni // Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Vol. 3, Special issue 4. – B. 283–287.

5. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2015. – 120 b.

6. Avezova M. Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini tayyorlashda dual ta’limning nazariy-metodologik asoslari // O‘zMU xabarlari. Ijtimoiy-gumanitar fanlar. – 2026. – №1/1.11. – B. 68–70.

7. Maxmudova M.S. Dual ta’lim sharoitida bo‘lajak logopedlarning akademik mobilligini rivojlantirishning nazariy jihatlari // Muǵallim hám úzliksiz bilimlendiriw. – 2024. – №6/1. – B. 53–57.

8. Björck V. Taking issue with how the Work-integrated Learning discourse ascribes a dualistic meaning to graduate employability // Higher Education. – 2021. – Vol. 82, No. 2. – P. 307–322. DOI: 10.1007/s10734-020-00650-y.

9. Fleming J., Rowe A.D., Jackson D. Employers as educators: the role of work placement supervisors in facilitating the transfer of skills and knowledge // Journal of Education and Work. – 2021. – Vol. 34, No. 5–6. – P. 705–721. DOI: 10.1080/13639080.2021.1969343.

10. Trede F., Jackson D. Educating the deliberate professional and enhancing professional agency through peer reflection of work-integrated learning // Active Learning in Higher Education. – 2021. – Vol. 22, No. 3. – P. 171–187. DOI: 10.1177/1469787419869125.

11. Ng P.M.L., Wut T.M., Chan J.K.Y. Enhancing perceived employability through work-integrated learning // Education + Training. – 2022. – Vol. 64, No. 4. – P. 559–576. DOI: 10.1108/ET-12-2021-0476.

AHMAD DONISHNING MA’RIFATPARVARLIK QARASHLARINING SHAKLLANISH OMILLARI

Laylo Zamonova
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ahmad Donish ma’rifatparvarlik tafakkurining shakllanishi, ma’rifatparvarlik qarashlari mahalliy ilmiy-madaniy muhit, madrasa ta’limi, qiziqishlari, saroy xizmati, Rossiyaga elchilik safarlari, diplomatik tajriba hamda Buxoro amirligidagi ta’limiy muammolarga doir masalalar muhokama qilinadi.
Kalit so‘zlar: tasavvuf, mazhab, diniy munozaralar, mudarris, diniy-axloqiy tafakkur.

Аннотация. В данной статье рассматриваются процесс формирования просветительской мысли Ахмада Дониша, а также факторы, повлиявшие на становление его просветительских взглядов, в том числе местная научно-культурная среда, обучение в медресе, круг его интересов, служба при дворе, дипломатические поездки в Россию, дипломатический опыт и проблемы образования в Бухарском эмирате.
Ключевые слова: суфизм, мазхаб, религиозные дискуссии, мударрис, религиозно-нравственное мышление.

Abstract. This article examines the formation of Ahmad Donish’s enlightenment thought and the factors that influenced the development of his enlightenment views, including the local scholarly and cultural environment, madrasa education, his intellectual interests, service at the court, diplomatic missions to Russia, diplomatic experience, and educational issues in the Bukhara Emirate.
Keywords: Sufism, madhhab, religious debates, mudarris, religious and moral thought.

XIX asr Buxoro amirligi ijtimoiy-ma’naviy hayotida Ahmad Donish ma’rifatparvarlik tafakkurining shakllanishi murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lgan. Uni faqat Rossiya safarlari ta’siri bilan izohlash yetarli emas. Donishning oilaviy muhiti, madrasa ta’limi, Sharq mumtoz ilmiy-adabiy merosi, aniq va tabiiy fanlarga qiziqishi, saroy xizmatidagi tajribasi, elchilik safarlari hamda Buxoro amirligining siyosiy va ma’rifiy muammolari o‘zaro qo‘shilib, uning islohotchi dunyoqarashini shakllantirdi. Shu bois mutafakkir qarashlari an’ana va yangilikning qarama-qarshiligi emas, balki mahalliy ilmiy zaminni yangi tarixiy ehtiyojlar asosida qayta baholash mahsuli sifatida ko‘rilishi lozim. Ahmad Donish 1826-yilda Buxoroda mudarris oilasida tug‘ilgan. Manbalarda u boshlang‘ich savodni onasidan olgani, keyinchalik maktab va madrasada tahsil ko‘rgani qayd etiladi. Bu holat uning ma’rifiy qarashlarining dastlabki poydevori an’anaviy ilmiy muhitda qo‘yilganini ko‘rsatadi. Donish keyinchalik madrasa ta’limining ayrim jihatlarini tanqid qilgan bo‘lsa-da, bu tanqid tizimni tashqaridan inkor etgan shaxsning emas, uning ichida shakllangan va imkoniyatlarini yaxshi bilgan ziyolining munosabati edi [3:5; 2:48]. Shuning uchun uning yangilanish g‘oyalarida eski bilimni butunlay rad etish emas, uni hayot ehtiyojlariga yaqinlashtirish tamoyili kuchli seziladi.

Donishning intellektual shakllanishida bilim doirasining kengligi alohida ahamiyatga ega. U xattotlik, rassomlik, naqqoshlik, ilmi nujum, geometriya, me’morlik va tabobatdan xabardor bo‘lgan, she’r va risolalar yozgan. “Navodir ul-vaqoe”da esa rasm va chizmachilikka qiziqishi, tabiat, odamlar va binolar tasvirini chizishni o‘rganganini eslaydi. Bunday ko‘p qirrali tayyorgarlik uning ilmni faqat nazariy bilim emas, amaliy natija beruvchi faoliyat sifatida anglashiga yordam

berdi. Ayniqsa, geometriya, me’morlik va astronomiyaga qiziqish kuzatish, hisoblash va sababiy bog‘lanishlarni izlash ko‘nikmalarini rivojlantirgan. Keyinchalik jamiyat va davlat masalalariga ham aynan amaliy mezon bilan yondashishi shu intellektual tajriba bilan bog‘liq edi. Donish dunyoqarashining ikkinchi muhim manbai Sharq mumtoz ilmiy va adabiy merosi bo‘ldi. Tadqiqotlarda uning Alisher Navoiy, Fuzuliy, Umar Xayyom, Ibn Sino va Mirzo Bedil merosiga qiziqqani qayd etiladi [10:33–34; 8:120–126]. Bu omil Donish ma’rifatparvarligini tashqi ta’sirning oddiy mahsuli sifatida talqin qilishga imkon bermaydi. Rasul Hodizoda ham Donish XVIII asr fransuz va XIX asr 40–60-yillar rus ma’rifatparvarlari ijodidan bevosita xabardor bo‘lmaganini ta’kidlaydi.

Donish qarashlarining shakllanishida saroy xizmatining o‘rni ham katta bo‘lgan. Uning xattotlik, naqqoshlik va munajjimlikdagi qobiliyati amir Nasrullo e’tiboriga tushgan. Saroydagi faoliyat Donishga davlat boshqaruvi, mansabdorlar, elchilik, moliya va siyosiy qarorlar mexanizmini ichkaridan kuzatish imkonini berdi. Shu tajriba natijasida u bilim bilan lavozim, malaka bilan mansab o‘rtasidagi nomuvofiqlikni ko‘rdi. Naimov tadqiqotida Donish davlat ishlarini bilimli va tajribali kishilarga topshirish, layoqatsiz amaldorlarni chetlashtirish va boshqaruvni tartibga solish zarurligini ilgari surgani ko‘rsatiladi [7:20–22; 9: 22–23].

Bu yerda ma’rifat shaxsiy fazilatdan davlat boshqaruvi samaradorligini belgilovchi mezonga aylanadi. Donish dunyoqarashidagi eng muhim burilishlardan biri Rossiyaga qilingan elchilik safarlari bilan bog‘liq. U Buxoro elchilari tarkibida uch marta Rossiyaga borgan. Tadqiqotlarda birinchi safar 1857-yil 9-yanvardan 1858-yil 11-yanvargacha, ikkinchisi 1869-yil 2-oktabrdan 10-dekabrgacha, uchinchisi esa 1874-yil yanvaridan mayigacha davom etgani aniqlashtirilgan. Safarlarning qariyb o‘n yetti yil oralig‘ida takrorlanishi muhimdir: Donish Rossiyadagi taraqqiyotni bir martalik taassurot sifatida emas, vaqt davomida kuzatish va Buxoro bilan qiyoslash imkoniga ega bo‘ldi. 1857-yilda u Peterburgga yuborilgan elchilar tarkibida bosh kotib sifatida qatnashgan.

Peterburg va Rossiyaning boshqa shaharlarida Donish shaharsozlik, yo‘l va kommunikatsiya, davlat idoralari, texnika, saroy marosimlari va diplomatik tartiblarni kuzatdi. Keyingi tadqiqotlarda uning Peterburg va Moskva ko‘chalari, binolari va bunyodkorlik ishlariga e’tibor bergani qayd etiladi. Biroq bu safarlarni “ko‘rdi va ko‘chirishni istadi” tarzida tushuntirish to‘liq emas. Donish ko‘rgan yangiliklarni Buxoro sharoiti bilan qiyosladi va taraqqiyotning sabablarini izlashga harakat qildi. Shu tariqa tashqi kuzatuv uning avvaldan shakllangan ilmiy qiziqishi bilan qo‘shilib, tanqidiy-qiyosiy tafakkurni kuchaytirdi. U uchun taraqqiyot endi mavhum tushuncha emas, tartibli boshqaruv, ilm, texnika, malakali kadr va bunyodkorlikda namoyon bo‘ladigan amaliy hodisaga aylandi. Rossiya safarlari Donishning siyosiy tafakkuriga ham kuchli ta’sir ko‘rsatdi. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga bosimi kuchayib borayotgan bir sharoitda u Buxoroning zaif tomonlarini yanada ravshan ko‘ra boshladi. Naimov Donish mustamlakachilik xavfini anglagani va amir Muzaffarga tahdidni diplomatik yo‘llar bilan yumshatish zarurligini bildirganini qayd etadi [9:12–13; 12:323–324]. Shuning uchun Donishning Rossiya taraqqiyotiga qiziqishini siyosiy xavfni e’tibordan chetda qoldirish deb talqin qilish noto‘g‘ri.

Donishning ta’lim haqidagi qarashlari ham ana shu tajribalar ta’sirida kengaydi. U an’anaviy ta’limni butunlay rad etmagan, biroq bilimning hayotdan uzilib qolishi, dunyoviy va amaliy fanlarning yetarli o‘rin egallamasligi, davlat uchun layoqatli kadr tayyorlashdagi kamchiliklarni tanqid qilgan. Haydarov tadqiqotida uning Buxoro amirligidagi ta’lim tizimini yangilashga oid fikrlari alohida tahlil qilingan. Naimov esa Donish dunyo sivilizatsiyasi yutuqlarini o‘rganish, dunyoviy fanlarga e’tibor berish va ilm-maorif bilan shug‘ullanuvchi maxsus davlat tuzilmasini tashkil etish zarurligini ilgari surganini ko‘rsatadi [9:13; 11:14–18]. Bu fikrda ilm shaxsiy kamolot

vositasidan jamiyat va davlat taraqqiyotining institutsional omiliga aylanadi.

Donish ma’rifatparvarligining shakllanishida tarixiy tafakkur ham muhim o‘rin tutgan. “Risola yoxud mang‘itlar sulolasi tarixidan qisqacha risola”da u hukmdorlar faoliyatini bayon qilish bilan cheklanmay, boshqaruv usuli, hukmdor axloqi va davlat holati o‘rtasidagi bog‘liqlikni tanqidiy ko‘rsatadi. Tarix Donish uchun o‘tmishni madh etish vositasi emas, mavjud muammolarning sabablarini anglash va kelajak uchun xulosa chiqarish manbai bo‘ldi. Shu jihatdan uning tarixnavisligi ma’rifatparvarlik bilan bevosita tutashadi: davlatning kuchi hukmdorning shaxsiy qudratidan ko‘ra adolatli boshqaruv, bilimli kadrlar va oqilona tartibga bog‘lanadi. Diniy-axloqiy tafakkur ham Donish qarashlarining muhim ichki manbai edi. “Me’yor ut-tadayyun”da tasavvuf, mazhab, diniy munozaralar va jamiyat islohiga doir masalalar muhokama qilinadi. Bu manba Donish ma’rifatparvarligini dinga qarshi yo‘nalish sifatida tushunish bir yoqlama ekanini ko‘rsatadi. U diniy-axloqiy meros doirasida ham me’yor, ongli munosabat va inson manfaatini izlaydi. Naimov ham “Me’yor ut-tadayyun”ni diniy-axloqiy manba sifatida tahlil qilib, Donish merosida diniy qarashlar va ijtimoiy masalalar o‘zaro bog‘langanini ko‘rsatadi [3:5–10; 4:5–8]. Demak, uning islohotchiligi an’anani inkor etish emas, uning ma’rifiy imkoniyatlarini qayta talqin qilishga yaqin edi.

Donishning mustaqil fikrlash qobiliyati barcha tashqi va ichki omillarni birlashtirgan asosiy shaxsiy omil bo‘ldi. “Devoni ash’or”ning 2020-yilgi nashri muqaddimasida Sadriddin Ayniyning Donishdagi yangi fikrlar tayyor zamonaviy adabiyotdan emas, uning mustaqil tadabbur va tafakkuridan tug‘ilgani haqidagi bahosi keltiriladi. Bu baho Donishning ko‘rgan hodisalarini tayyor qolipda qabul qilmay, o‘z mezonlari bilan tahlil qilishga intilganini ifodalaydi [6:3]. Shuning uchun uning Rossiya safarlari ham faqat tashqi ta’sir emas, balki qiyosiy tafakkurni ishga tushirgan tajriba sifatida ahamiyatlidir.

Xulosa sifatida quyidagi ilmiy natijalarni qayd etish mumkin. Birinchidan, Ahmad Donish ma’rifatparvarlik tafakkurining shakllanishi birgina Rossiya safarlari ta’siri bilan emas, balki mahalliy ilmiy-madaniy muhit, madrasa ta’limi, Sharq mumtoz merosi, aniq va tabiiy fanlarga qiziqish hamda saroy boshqaruvini bevosita kuzatish tajribasining o‘zaro birikishi bilan izohlanadi. Shu jihatdan uning ma’rifatparvarligi tashqi g‘oyalarni oddiy o‘zlashtirish emas, balki Buxoro jamiyatining ichki ehtiyojlarini qiyosiy va tanqidiy tafakkur asosida qayta anglash natijasi bo‘lgan.

Ikkinchidan, Donish qarashlarida ilmning funksiyasi bosqichma-bosqich kengaygan. U dastlab shaxsiy kamolot va kasbiy-hunar tayyorgarligi vositasi sifatida namoyon bo‘lsa, keyinchalik malakali kadrlar tayyorlash, oqilona boshqaruvni qaror toptirish va davlat taraqqiyotini ta’minlashning institutsional omili darajasiga ko‘tarilgan. Bu holat uning ma’rifatparvarlik konsepsiyasida ta’lim, davlat boshqaruvi va ijtimoiy taraqqiyot o‘zaro bog‘liq tizim sifatida qaralganini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, Ahmad Donishning islohotchilik modeli an’ana va yangilikni mutlaq qarama-qarshi qo‘ymaydi. “Me’yor ut-tadayyun”, “Navodir ul-vaqoe” va tarixiy risolalaridagi qarashlar diniy-axloqiy me’yorlar, adolat, mustaqil tafakkur va amaliy bilimni yagona ma’rifiy tizimda uyg‘unlashtirishga intilganini ko‘rsatadi. Demak, Donish ma’rifatparvarligining tarixiy o‘ziga xosligi mavjud ilmiy-ma’naviy merosni inkor etishda emas, uni XIX asr Buxoro amirligining siyosiy, ta’limiy va ijtimoiy muammolarini hal etishga xizmat qiladigan yangi mazmun bilan boyitishga urinishida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Аҳмади Дониш. Наводир-ул-вақоеъ. Китоби 2. – Душанбе: Дониш, 1989.
2. Аҳмад Дониш. Наводир ул-вақое. – Тошкент: Фан, 1964.
3. Аҳмад Дониш. Рисола ёхуд манғитлар сулоласи тарихидан қисқача рисола. – Тошкент,

2014.
4. Аҳмад Махдуми Дониш. Меъёру-т-тадайюн. – Душанбе: Эр-граф, 2010.
5. Аҳмади Дониш. Рисола дар назми тамаддун ва таовун. – Душанбе: Сайёд, 2020.
6. Аҳмад Махдуми Дониш. Девони ашъор. – Душанбе: Дониш, 2020.
7. Муиний Р. Аҳмад Дониш ҳаёти ҳақида. – Бухоро, 2007.
8. Ҳодизода Р. Аҳмади Дониш. – Душанбе: Ирфон, 1976.
9. Наимов И.Н. Аҳмад Донишнинг маърифатпарварлик фаолияти ва илмий меросида ислоҳотчилик ғоялари: PhD диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2022.
10. Бозоров Ш.С. Аҳмад Дониш маърифатпарварлик қарашларининг ижтимоий-фалсафий моҳияти. – Бухоро, 2022.
11. Хайдаров А.А. Реформаторские взгляды Ахмада Дониша в обновлении системы образования в Бухарском эмирате. – Душанбе, 2012.
12. Жамолова Л.И. Аҳмад Донишнинг таълим олувчилар шахсини ривожлантиришда тарбия турларининг тутган ўрни ҳақидаги қарашлари. – 2025.

FAN METODOLOGIYASI VA ILMIY TADQIQOTLARNI TASHKIL ETISH FANINI O‘QITISH ORQALI MAGISTRATURA TALABALARINING TADQIQOT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Parmanov J.T.,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada magistratura talabalarining tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy va pedagogik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqot kompetensiyasining mazmun-mohiyati, tarkibiy komponentlari hamda uni shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar yoritilgan. Shuningdek, magistratura ta’limi jarayonida ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etish, “Fan metodologiyasi va ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish” fanining imkoniyatlari, interfaol ta’lim metodlari va loyiha asosida o‘qitish texnologiyalarining tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirishdagi o‘rni asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, magistratura talabalarida ilmiy tafakkur, mustaqil izlanish, tahliliy fikrlash hamda innovatsion yondashuvni rivojlantirish ularning kasbiy kompetentligini oshirishning muhim omili ekanligi aniqlangan.

Kalit so‘zlari: tadqiqot kompetensiyasi, magistratura ta’limi, pedagogik shart-sharoitlar, ilmiy tadqiqot metodologiyasi, ilmiy-tadqiqot faoliyati, kasbiy kompetentlik, ilmiy tafakkur, interfaol ta’lim metodlari, loyiha asosida o‘qitish, mustaqil ta’lim, innovatsion pedagogik texnologiyalar.

Развитие исследовательской компетентности магистрантов посредством обучения научной методологии и организации научных исследований

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические и педагогические основы развития исследовательской компетентности магистрантов. Выделены содержание, структурные компоненты исследовательской компетентности и педагогические условия, способствующие её формированию. Также обоснованы эффективная организация научно-исследовательской деятельности в процессе обучения в магистратуре, возможности дисциплины «Методология науки и организация научно-исследовательской работы», роль интерактивных методов обучения и проектно-ориентированных технологий в развитии исследовательской компетентности. По результатам исследования установлено, что развитие научного мышления, самостоятельной исследовательской работы, аналитического мышления и инновационных подходов у магистрантов является важным фактором повышения их профессиональной компетентности.

Ключевые слова: исследовательская компетентность, обучение в магистратуре, педагогические условия, методология научно-исследовательской работы, научно-исследовательская деятельность, профессиональная компетентность, научное мышление, интерактивные методы обучения, проектно-ориентированное обучение, самостоятельное обучение, инновационные педагогические технологии.

Developing research competence of master’s students through teaching scientific methodology and organization of scientific research

Abstract: This article analyzes the theoretical and pedagogical foundations of the development of research competence of master’s students. The content, structural components of research

competence and pedagogical conditions serving its formation are highlighted. Also, the effective organization of research activities in the process of master's education, the possibilities of the discipline «Methodology of Science and Organization of Scientific Research», the role of interactive teaching methods and project-based teaching technologies in the development of research competence are substantiated. According to the results of the study, it was determined that the development of scientific thinking, independent research, analytical thinking and innovative approaches in master's students is an important factor in increasing their professional competence.

Keywords: research competence, master's education, pedagogical conditions, scientific research methodology, scientific research activity, professional competence, scientific thinking, interactive teaching methods, project-based teaching, independent learning, innovative pedagogical technologies.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini ta'lim jarayoni bilan uzviy integratsiya qilishni ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilamoqda. Ko'p bosqichli oliy ta'lim tizimining joriy etilishi magistratura bosqichining mazmunini yangi talablar asosida takomillashtirishni, xususan, magistratura talabalarida ilmiy izlanish olib borish, mustaqil fikrlash, innovatsion g'oyalarni ilgari surish va ularni amaliyotga tatbiq etish kompetensiyalarini rivojlantirishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish magistratura ta'limining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Zamonaviy mehnat bozori nafaqat chuqur kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega, balki ilmiy asoslangan qarorlar qabul qila oladigan, muammolarni tahlil qilish, ilmiy farazlarni ilgari surish, zamonaviy tadqiqot metodlarini qo'llash hamda olingan natijalarni tanqidiy baholash qobiliyatiga ega mutaxassislarni talab etmoqda. Shu sababli magistratura ta'limi jarayonida tadqiqot kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish bo'lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligini ta'minlovchi muhim omil sifatida e'tirof etiladi.

Tadqiqot kompetensiyasi magistratura talabalarining ilmiy-metodologik bilimlari, tadqiqot olib borish ko'nikmalari, analitik va tanqidiy fikrlashi, ilmiy axborot bilan ishlash madaniyati hamda ilmiy faoliyatga nisbatan motivatsiyasini o'zida mujassamlashtiruvchi integrativ shaxsiy sifatdir. Ushbu kompetensiyaning rivojlanishi talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatida samarali ishtirok etishi, magistrlik dissertatsiyasini yuqori ilmiy saviyada bajarishi va kelgusidagi kasbiy faoliyatida innovatsion yondashuvlarni qo'llashiga xizmat qiladi.

Magistratura ta'limida tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish nazariy va amaliy jihatdan puxta asoslangan pedagogik yondashuvlarni, zamonaviy o'qitish metodlari va texnologiyalarini, shuningdek, ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etishni talab etadi. Xususan, loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, keys-stadi, refleksiv yondashuv, ilmiy seminarlar va tadqiqot amaliyoti magistratura talabalarining ilmiy salohiyatini rivojlantirishda muhim pedagogik vositalar hisoblanadi.

Mazkur maqolada magistratura talabalarining tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, pedagogik shart-sharoitlari hamda uni takomillashtirishning samarali metod va texnologiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirishning kasbiy tayyorgarlik sifatiga ta'siri yoritilib, magistratura ta'limi jarayonini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Ko'p bosqichli oliy ta'lim tizimining joriy etilishi yuqori darajadagi mustaqillik, mas'uliyat va butun umri davomida o'rganishga tayyor bo'lishi kerak bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash talablari bilan bog'liq. Ularning kasbiy faoliyatga tayyorligi nafaqat kasbiy sohaga moslashish

darajasi, balki uzluksiz ta’lim olishga, zarur kasbiy fazilatlarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga va o‘z-o‘zini o‘qitishga tayyorligi bilan ham belgilanishi kerak.

Magistratura darajasi - bu mutaxassisning kasbiy sohada kasbiy va shaxsiy fazilatlar va tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan magistratura dasturini o‘zlashtirish jarayoni va natijasidir. Kasbiylikning ajralmas qismi sifatida tadqiqot kompetensiyasi talabalarga keyingi ta’lim jarayonida yuzaga keladigan innovatsion muammolarni hal qilish imkonini beradi.

Magistraturaning maqsadi talabalarning kasbiy tayyorgarlikka qo‘yiladigan ijtimoiy talablarga javob beradigan ilmiy tadqiqotlarning metodologik madaniyatini rivojlantirishlarini ta’minlashdir. Tadqiqot kompetensiyasi mutaxassisni rivojlantirishda muhim tarkibiy qism bo‘lib, kasbiy kompetensiyani rivojlantirish uchun juda muhimdir. Oliy ta’lim muassasasida tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish magistratura dasturini barcha faoliyat sohalarida: ta’lim, kasbiy va tadqiqot sohalarida amalga oshirishda ko‘zda tutilgan bo‘lib, ular professional sohada ilmiy tadqiqotlarni metodologik jihatdan malakali olib borish qobiliyatini rivojlantirish maqsadlariga erishishga yordam beradi.

Tadqiqot kompetensiyasi va professional va ilmiy tafakkurga ega mutaxassisni rivojlantirish jarayonida muhim va ustuvor yo‘nalish quyidagi sohalarning uyg‘unligiga urg‘u berishdir:

-magistratura kasbiy tayyorgarligining markaziy komponenti sifatida ilmiy tadqiqotlar nazariy va amaliy tadqiqotlarning optimal kombinatsiyasi bilan;

-talabaga yo‘naltirilgan ta’lim, kelajakdagi mutaxassisning har tomonlama va uyg‘un rivojlanishi uchun sharoit yaratish;

-magistratura talabalari uchun yuqori darajadagi mustaqillik;

-ta’lim jarayonining o‘zgaruvchanligi;

-o‘z ta’limi va kasbiy malakasini doimiy ravishda boyitish zarurligini tan olishga e’tibor qaratish;

-tadqiqot faoliyatini tashkil etish shakllarini tanlash va natijada tadqiqot kompetensiyasi komponentlarini rivojlantirish.

Tadqiqot kompetensiyasi ta’rif sifatida noaniq talqin qilinadi. Ilmiy ta’riflar juda xilma-xil.

Tadqiqotchilar uni ijodiy fikrlash va tadqiqot va dizayn faoliyati jarayoni va natijasini tavsiflovchi qobiliyat sifatida belgilaydilar. Bu tushuncha uchun faoliyatning semantik kontekstini funktsional natijadan transformatsion natijaga mustaqil ravishda o‘tkazish qobiliyati juda muhimdir. Ushbu o‘tkazish ko‘nikmalariga erishish va rivojlantirish uchun magistratura talabalari universal o‘rganish faoliyatini o‘zlashtirishlari, ilmiy tadqiqot metodologiyasini bilishlari va tadqiqot faoliyatida tajribaga ega bo‘lishlari kerak.

Tadqiqot kompetensiyasini aniqlashning yana bir nuqtai nazari o‘zaro bog‘liq shaxsiy xususiyatlar to‘plamini ta’kidlaydi. Tadqiqotchilar bularni qiymat-semantik yo‘nalishlar, shaxsiy fazilatlar, bilimlar, tadqiqot ko‘nikmalari va qobiliyatlari, shuningdek, o‘zgaruvchan sharoitlarda professional muammolarni hal qilish uchun tanish va ijodiy tadqiqot usullari bilan tajriba sifatida belgilaydilar. Magistratura talabalarida tadqiqot kompetensiyasi, shuningdek, ilmiy tadqiqotlardan foydalanish orqali professional faoliyat bilan bog‘liq muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan shaxsiy xususiyat sifatida talqin qilinadi. Tadqiqot kompetensiyasini bu tushunishda bilim, tadqiqot ko‘nikmalari, tadqiqot yo‘nalishi va ilmiy faoliyat uchun motivatsiyani farqlash muhimdir.

Ko‘rib chiqilayotgan hodisani tushunishni umumlashtirib, magistratura talabalarining tadqiqot kompetensiyasi aniqlangan muammolarga javoban gipotezalarni shakllantirish, maqsadlarni belgilash, gipoteza va maqsadlarga muvofiq faoliyatni rejalashtirish, olingan ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish, eksperimental tadqiqotlarni tashkil etish usullarini aniqlash, natijalarni yetarli miqdorda va sifatli qayta ishlash bilan taqdim etish va tadqiqot ko‘nikmalarini muayyan

faoliyatga qo‘llash uchun mo‘ljallangan bilim va ko‘nikmalar to‘plamini o‘z ichiga olishi mumkinligini aytish mumkin. Yuqoridagi ta’riflarni tahlil qilishda magistratura talabalarining tadqiqot kompetensiyasi o‘ziga xos tarzda, tarkibiy elementlar va xususiyatlar to‘plami orqali ko‘rib chiqilishi ta’kidlandi.Shu bilan birga, tadqiqotchilar tadqiqot kompetensiyasini yanada tizimli tushunishni ham tan olishadi. Shunday qilib, A.V. Xutorskoyning tasnifida tadqiqot kompetensiyasi sub’ektdan tashqari, mantiqiy va metodologik faoliyat nuqtai nazaridan qaraladi, maqsad qo‘yish, rejalashtirish, tahlil qilish va aks ettirish esa kognitiv kompetensiyaning bir qismi hisoblanadi.

Shunday qilib, magistratura talabalarining tadqiqot kompetensiyasining asosiy xususiyatlari o‘zaro bog‘liq shaxsiy xususiyatlar to‘plami deb hisoblanishi mumkin;

fan bilimlari;

va ilmiy nuqtai nazardan muammolarni hal qilishda ifodalangan qobiliyatlar: gipoteza yaratish, taklif qilingan gipotezaga muvofiq muammolarni qo‘yish va amalga oshirilayotgan professional faoliyat uchun yetarli bo‘lgan axborot qidirish va eksperimental tadqiqot faoliyatini tashkil etish.

Shu bilan birga, tadqiqot kompetensiyasi shaxsiy o‘zini o‘zi takomillashtirishning bir qismi va o‘zini rivojlantirish usullari va yo‘llarini o‘zlashtirishga turtki hisoblanadi. Tahlil bizga o‘rganilayotgan kompetensiyaning ta’rifini aniqlashtirish, uni muammolarni ob’ektiv baholash, ularni aniq tadqiqot vazifalariga aylantirish, ularni hal qilish, bilimlarni qayta tiklash, o‘zini ijodiy ifoda etish, o‘zini o‘zi anglash, rivojlangan va zarur tadqiqot ko‘nikmalariga asoslangan faol ishlarni bajarish va transformatsion ilmiy faoliyat bilan bog‘liq muammolarni mustaqil ravishda hal qilishning noyob, keng qamrovli qobiliyatini aks ettiruvchi integrativ shaxsiyat xususiyati sifatida shakllantirish imkonini berdi. Shuni ta’kidlash kerakki, tadqiqot faoliyatining tuzilishi va funktsiyalari magistratura tayyorlash maqsadlari bilan belgilanadi. Bularga professional nazariy bilimlarni va uni amaliy qo‘llashni chuqurlashtirish va rivojlantirish; magistratura talabalariga mustaqil ilmiy tadqiqotlarni shakllantirish va o‘tkazish ko‘nikmalarini singdirish; va ularning eng qobiliyatlilarini joriy ta’lim muammolarini hal qilishga jalb qilish; o‘zlarining ijodiy qobiliyatlarini eng yaxshi namoyish etadigan tadqiqot yo‘nalishini oqilona tanlash qobiliyati; universitet ichida olimlar, tadqiqotchilar va mutaxassislar havzasini shakllantirish kiradi.

Magistratura talabalarining tadqiqot kompetensiyasi o‘z-o‘zidan rivojlanmaydi; u ilmiy va professional muammolarni hal qilish uchun bilim va tushunchani samarali rivojlantiradigan, tadqiqot o‘tkazish uchun ushbu bilimlarni o‘zlashtirish uchun ongli ravishda fikrlashni rivojlantiradigan va tadqiqot jarayonini tajriba quradigan zarur sharoitlar orqali rivojlanadi. Tadqiqot kompetensiyasini jarayon sifatida rivojlantirish maxsus tashkil etilgan faoliyatlar: o‘quv va kasbiy, kognitiv va ta’lim tadqiqot faoliyati orqali amalga oshiriladi. Magistratura talabalarining tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirishning mazmunli jihati umum va ixtisoslashgan fanlarni o‘rganish orqali amalga oshiriladi. Amaliyotga yo‘naltirilgan xususiyat tadqiqot amaliyotini tashkil etish orqali beriladi. Magistrlik dissertatsiyasi ustida ishlashga alohida ahamiyat beriladi. Magistrlik dissertatsiyasi ustida ishlash jarayonida tadqiqot kompetensiyasi ushbu turdagi faoliyatning o‘ziga xos xususiyati tufayli eng talabga ega: ilmiy manbalarni tahlil qilish, ish uchun mantiqiy asos yaratish, umumlashtirish va ishning eksperimental yoki sinov qismini qurish va tashkil etish. Bundan tashqari, tadqiqot amaliyoti davomida eksperimental tadqiqotlarni tashkil qilish, gipotezalarni sinab ko‘rish va muammolarga yechim topish va boshqalar zarur. Magistr talabalarining ushbu faoliyatda ishtirok etishi magistr talabalaridan tadqiqot faoliyatini tashkil qilish uchun zarur bo‘lgan bilimlarga, olingan bilimlarni ilmiy tadqiqotlar tuzilishi va tashkil etilishida qo‘llashga qaratilgan ko‘nikmalarga, ijodkorlik va ilmiy fikrlashga ega bo‘lishni talab

qiladi.

Biz magistr talabalarining ta’lim va tadqiqot faoliyatida ishtirok etishini, shuningdek, kvaziprofessionalizm xususiyatlariga ega bo‘lgan tadqiqot va loyihaga asoslangan magistr talabalarining faoliyatini tashkil etishni tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirishning zaruriy sharti deb bilamiz, chunki bunday faoliyatlar:

-hodisalar va jarayonlarning tushuntirishlariga boy, ularning aloqalari va munosabatlarini o‘rnatadi;

-ilmiy faktlarni didaktik jihatdan nazariy va eksperimental asoslashni ta’minlaydi;

-ilmiy bilish usullariga asoslangan naqshlarni aniqlashga yordam beradi;

-“kashfiyotlar”ning sub’ektiv tabiatini qo‘llab-quvvatlaydi;

-tadqiqot kompetensiyasida shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lishga yordam beradi.

Yuqoridagilarni texnik universitetdagi magistratura talabalarining tadqiqot kompetensiyasi transportni boshqarish va iqtisodiyotga oid o‘quv dasturi o‘ziga xos xususiyatlarga va umumiy komponentlarga ega ekanligini ta’kidlab, batafsilroq to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir, ular birlashtirilganda o‘qishning ushbu bosqichida rivojlanishi kerak bo‘lgan yaxlitlikni tashkil qiladi:

iqtisodiyot sohasidagi dolzarb ilmiy masalalarni shakllantirish;

zamonaviy tadqiqot usullarini o‘zlashtirish va ularni transport iqtisodiyoti

va tadqiqotlari sohasida qo‘llash;

transport iqtisodiyoti muammolarini aks ettiruvchi ilmiy nashrlarni ko‘rib chiqish va ekspertlar tomonidan ko‘rib chiqish; iqtisodiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini o‘zlashtirish.

